

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

N. MAHMUDOV, A. NURMONOV, A. SOBIROV, I. HOJALIYEV,
O'. HUSANOV

ONA TILI

7-SINF

O'QITUVCHILAR UCHUN USLUBIY QO'LLANMA

TOSHKENT «MA'NAVIYAT» 2011

Hurmatli o'qituvchilar!

Dars o'qituvchi va o'quvchilarning sa'yi-harakatiga asoslangan murakkab jarayondir. Uning qanchalik samarali bo'lmog'i ko'proq o'qituvchining bilimi, izlanuvchanligi, topqirligi hamda zukkoligiga bog'liqdir. «Izlanganga tole yor» deganlaridek, qo'lingizdagi uslubiy qo'llanma muallimlik faoliyatingizda Sizga yordam bera oladi deb o'ylaymiz.

Umid qilarnizki, har bir ziyokor qo'llanmaga o'z olarni, ijodkorligi bilan yondashadi.

Osiyo Rivojlanish Banki krediti mablag'lari hisobidan DARS-LIKLAR AYLANMA JAMG'ARMASI(DAJ) uchfaunchopetildi.

Ushbu nashrga doir barcha huquqlar muhofaza qilinadi va nashriyotga tegishlidir. Undagi matn va rasmlarni nashriyot rozilgisiz to'liq yoki qisman ko'chirib bosish taqiqlanadi.

M 4702620204-25 M25(04)-05

© «Ma'naviyat», 2011

1. UMUMIY MA'LUMOT

O'rta umumiy ta'limda ona tili fanining o'mi beqiyos. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, «Dunyodagi jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili — bu millatning ruhidir».

Shunday ekan, o'quvchilarni o'tmish madaniyatiga, ona zaminiga mehr-muhabbat, vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari, eng avvalo, ona tilini o'qitish jarayonida amalga oshiriladi.

Bu hoi yosh avlodni kamol toptirishda ona tili o'qituvchisining xizmati naqadar katta ekanligini ko'rsatadi.

Ana shundan kelib chiqqan holda, qo'llanmada MI sinf o'quvchilariga ona tili o'qitish jarayonida milliy istiqloq g'oyalarini, vatanparvarlik, insonparvarlik ruhini singdirishga alohida ahamiyat berildi.

O'quvchilarning o'z fikrini ravon, ifodali va lo'nda bayon qila olish ko'nikmasini shakllantirish ona tili ta'limining bosh maqsadi sanaladi.

VII sinfda o'tilishi lozim bo'lgan 102 soat alohida-alohida darslarga ajratib chiqildi.

Har bir bo'lim bo'yicha yakunlovchi savol va topshiriqlar mustahkamlash darslariga singdirib yuborildi.

O'qituvchilarga yordam tariqasida har bir darsning maqsadi uch yo'nalishda bayon qilindi: 1) ilmiy maqsad; 2) tarbiyaviy maqsad; 3) rivojlantiruvchi maqsad. Shuni ta'kidlash kerakki, har bir darsning tavsiya etilayotgan maqsadi o'qituvchilar tomonidan o'zgartirilishi ham mumkin.

O'quvchilarning nutqini o'stirish uchun mo'ljallangan diktant va bayonlar uchun matnlar ham tavsiya etildi. Tavsiya etilgan matnlarni ham o'qituvchi, lozim bo'lsa, boshqa matn bilan almashtirishi mumkin.

Darsning qiziqarli va ta'sirchan bo'lishi uchun qo'llanmada darslarni o'yinlar asosida olib borishga katta e'tibor qaratildi. O'ndan ortiq o'yinlar tavsiya etildi.

2. 7-SINFDA «ONA TILI» FANINI O'QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi, «Davlat till to'g'risida»gi, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida»gi Qonunlari umumiy o'rta ta'limda ona tili o'qitishning metodologik asosi bo'lib xizmat qildi.

Bu qonunlardan kelib chiqqan holda, o'rta maktabda ona tili o'qitishning oldiga quyidagi muhim vazifalar qo'yiladi:

- o'quvchilarni erkin fikrlarga o'rgatish;
- o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda o'zbek tilining qonun-qoidalariga muvofiq ravishda to'g'ri ifodalash;
- bir ma'noni turli shakllarda bera olish ko'nikmasini shakllantirish,

so'zlardan o'rinli foydalana olish;

- orfografiya va punktuatsiya qoidalarini singdirish;
- o'quvchilarda ish qog'ozlarini yurita olish ko'nikmasini shakllantirish;
- olamni bilishda ona tilining ahamiyatini singdirish.

Bu maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun o'qituvchi faqat o'quvchilar bilan sinfda o'tiladigan mashg'ulotlar bilangina chegaralanib qolmasdan, darsdan tashqari mashg'ulotlardan ham unumli foydalanmog'i lozim.

7-sinfda «Ona tili» fanini o'qitish jarayonida o'qituvchi 6-sinf o'qituvchilari uchun «Metodik qo'llanma»da bayon qilingan darsdan tashqari mashg'ulotlar turlaridan foydalanishi mumkin.

3. 7-SINF O'QUVCHILARINING «ONA TILI»DAN O'ZLASHTIRISHI KERAK BO'LGAN ZARURIY BILIMLAR

Mustaqil va yordamchi so'zlar.

Olmosh, uning ma'nolari, morfologik va sintaktik xususiyatlari. Ohnoshning ma'no turlari va ularning uslubiy qo'llanilishi.

Taqlid so'zlar. Ularning ma'nosi va gapdagi vazifasi.

Modal so'zlar. Ularning ma'nosi va gapdagi vazifasi.

Bog'lovchilar. Ularning turlari. Teng bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchilar. Bog'lovchilarning vazifalari.

Yuklamalar. Ularning turlari. Yuklamalarning vazifalari.

Ko'makchilar. Ularning turlari. Ko'makchilarning vazifalari.

4. 7-SINF O'QUVCHILARINING EGALLASHI ZARUR BO'LGAN KO'NIKMA VA MALAKALAR

Grammatik atamaga asoslanib, grammatik vositani esga olish; grammatik vositalardan amalda to'g'ri va o'rinli foydalana olish.

Olmoshning boshqa so'z turkumlaridan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyati — ishora qilish xususiyatini anglay olish va ularning ma'no turlarini bir-biridan farqlay olish.

Fikrni yozma ravishda to'g'ri va mantiqiy izchil bayon eta olish. Miqdoriy ko'rsatkichi: 13—15 gap; sifat ko'rsatkichi: gapda fikrni aniq, mantiqiy izchil yorita olish; sodda gap bo'laklarini, qo'shma gap qismlarini, uyushiq bo'laklarni o'zaro bog'lashda teng va ergashtiruvchi bog'lovchilardan, ko'makchilardan, yuklamalardan va boshqa bog'lovchi vositalardan o'rinli foydalana olish.

Abzatlarni to'g'ri ajrata olish. Kelishiklar va ko'makchilarning funksional almashinuvidan maqsadga muvofiq to'g'ri foydalana olish.

7-SINF UCHUN DARSLAR TAQSIMOTI

I chorak (27 soat)

1. Til va nutq
2. Fonetika bo'yicha o'tilganlarni takrorlash
3. Imlo bo'yicha o'tilganlarni takrorlash

4. Qo'shimchalar bo'yicha o'tilganlarni takrorlash
5. Leksikologiya bo'yicha o'tilganlarni takrorlash
6. Fe'l so'z turkumi bo'yicha o'tilganlarni takrorlash
7. Ot so'z turkumi bo'yicha o'tilganlarni takrorlash
8. Sifat so'z turkumi bo'yicha o'tilganlarni takrorlash
9. Son so'z turkumi bo'yicha o'tilganlarni takrorlash
10. Ravish so'z turkumi bo'yicha o'tilganlarni takrorlash
11. Yozma ish

Mustaqil so'z turkumlari haqida ma'lumot

12. Olmosh so'z turkumi va uning tasnifi
13. Ko'rsatish olmoshlari
14. Ko'rsatish olmoshlarining talaffuzi va imlosi
15. Kishilik olmoshlari
16. O'zlik olmoshlari
17. So'roq olmoshlari
18. Belgilash olmoshlari
19. Gumon olmoshlari
20. Bo'lishsizlik olmoshlari
21. Olmoshlar o'rnida keladigan so'zlar
22. Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari
23. Sodda va qo'shma olmoshlar hamda ularning imlosi
24. Juft va takroriy olmoshlar hamda ularning imlosi
25. Mustahkamlash darsi
26. Yozma ish
27. Yozma ish tahlili

II chorak (22 soat)

So'zlarning munosabat shakllari

28. Ismlarning munosabat shakllari
29. Ismlarning lug'aviy shakllari va munosabat shakllari haqida
30. Egalik shakllari va ularning imlosi
31. Sifatdosh va harakat nomlaridagi egalik qo'shimchalarining vazifasi
32. Egalik qo'shimchali so'zlar imlosi
33. Mustahkamlash darsi
34. Kelishik shakllari
35. Bosh kelishik
36. Qaratqich kelishigi
37. Tushum kelishigi
38. Jo'nalish kelishigi va uning imlosi
39. O'rin-payt kelishigi va uning imlosi
40. Chiqish kelishigi va uning imlosi
41. Ismlarni kesim sifatida shakllantiruvchi va uning ega bilan munosabatini bildiruvchi shakllar
42. Mustahkamlash darsi
43. Diktant
44. Diktant tahlili

45. Testlar ustida ishlash

Yordamchi so'zlar. Ko'makchilar

46. Yordamchi so'zlar

47. Ko'makchilar

48. Sof ko'makchilar

49. Sof ko'makchilarning ma'no turlari

III chorak (30 soat)

50. Vazifadosh ko'makchilar

51. Ko'makchining qo'shimchalar bilan ma'nodoshligi

52. Vazifadosh ko'makchilar bilan birga kelgan so'zlarning imlosi

53. Mustahkamlash darsi

54. Yozma ish

55. Yozma ish tahlili

56. Bog'lovchilar

57. Bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra turlari

58. Teng bog'lovchilar

59. Sof va vazifadosh bog'lovchilar

60. Biriktiruv bog'lovchilari

61. Ayiruv bog'lovchisi

62. Zidlov bog'lovchilari

63. Inkor bog'lovchi-yuklamasi

64. Yakka va takror qo'llanuvchi ayiruv bog'lovchilar

65. Ergashtiruvchi bog'lovchilar

66. Sabab bog'lovchilar

67. Aniqlov bog'lovchilar

68. Shart bog'lovchilar

69. Mustahkamlash darsi

70. Yuklama haqida ma'lumot

71. Sof va vazifadosh yuklamalar

72. So'roq va taajjub yuklamalari

73. Ayiruv-chegaralov yuklamalari

74. Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari

75. O'xshatish-qiyoslash yuklamalari

76. Gumon yuklamasi

77. Diktant

78. Diktant tahlili

79. Testlar ustida ishlash

IV chorak (23 soat)

Undov so'zlar. Taqlid so'zlar. Modal so'zlar

80. Undov so'zlar

81. His-hayajon undovlari

82. Buyruq-xitob undovlari

83. Nutqiy odat undovlari

84. Taqlid so'zlar

85. Taqlid so'zlarning tuzilishi va imlosi

86. Modal so'zlar

87. Modal so'zlarning ma'noviy guruhlari

88. Sof va vazifadosh modal so'zlar

89. Tasdiq va inkor so'zlar

90. Taklif so'zlar

91. Mustahkamlash darsi

92. Yozma ish

93. Yozma ish tahlili

94. Testlar ustida ishlash

O'quv yili oxiridagi takrorlash

95. Olmosh yuzasidan o'tilganlarni takrorlash

96. Egalik va kelishik qo'shimchalari yuzasidan o'tilganlarni takrorlash

97. Yordamchi so'zlar yuzasidan o'tilganlarni takrorlash

98. Undov, taqlid va modal so'zlar yuzasidan o'tilganlarni takrorlash

99. Testlar ustida ishlash

100. Asosiy atamalar ustida ishlash

101. Ish qog'ozlari ustida ishlash

102. Yakuniy dars

1-dars

TIL VA NUTQ

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — til va nutqning farqini o'quvchilarga tushuntirish;

b) tarbiyaviy maqsad - o'quvchilarni ona tiliga bo'lgan muhabbatini orttirish, o'z ona tilisi bilan faxrlanish hissiyotini oshirish, Davlat tili mohiyatini anglash ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilar so'z boyligini oshirish, nutqini o'stirish, fikrlashga o'rgatish.

Darsning jihozi: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili to'g'risida»gi Qonuni, tillar shajarasi tasviri.

Darsning rejasi:

1. Til va nutqning farqi.

2. Respublikamizda o'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi.

3. Til — millat ko'zgusi.

Bugun birinchi ona tili darsi bo'lganligi uchun o'quvchilar bilan tanishiladi, suhbat o'tkaziladi.

So'ngra o'quvchilarning diqqati ko'chma sinf taxtaga yozilgan «Til va nutq» mavzusiga qaratiladi. Darslikda berilgan 1-, 2-, 3-savol va topshiriqlar haqida o'quvchilar bahsi eshitiladi.

O'qituvchi bahsni shunday xulosalashi mumkin.

Biz ona tilimizni sevamiz, uning go'zal va nafisligidan faxrlana-miz. Sizlar aytganingizdek, O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston qahramoni E. Vohidov «Ona tilim o'lmaydi», sevimli shoirimiz Mirtemirning «Ona tilim» she'riarida ona tilimiz madhini kuylagan-lar. Alloma bobomiz Alixon to'ra Sog'uniy «Til haqida» she'rida: «Agar xo'r'lasa kishi o'z tilin, Vatan xoinidur, Vatan dushmani. Sut emganda kirgan ona tili erur, ona-yu ota haqqi saqla oni»,- deganlar.

Tilning bevosita yuzaga chiqishi nutq ekanligi bayon qilinadi. Hissiyotda shodlik, quvnoqlik, xursandlik, jilmayish yoki aksi — darg'azablilik, xafalik, badjahlilik ohanglari nutqda namoyon bo'ladi. Demak, til bilan nutqning farqi bor.

Darslikda mashqlar, asosan, o'quvchilarning ravon so'zla-shiga, kichik matn tuzishiga, fikrlashiga, lug'at ustida ishlash, so'z boyliklarini oshirishga qaratilgan.

1-mashq shartida matnni o'qish nazarda tutilgan. Matnda Alisherning bolalik chog'larida o'zbek shoirlari o'z tilidan ko'ra fors tilida ko'proq ijod qilayotganliklari aytiladi. Shoir, avvalo, o'z ona tilida ijod qihshi, so'ngra boshqa tillarda she'rlar yozishini aytgan tog'asi Alisherning qalbiga shu so'zlarni yetkazmoqchiday. Alisher ulg'ayganda xuddi shunday qildi. U ona tilisi — o'zbek tilida jahonga mashhur 50 ming misrali «Xamsa»ni yaratdi.

Alisherning tog'asi turkiy xalqlarning viqorli tog'lari, «Navro'z», Iyd hayiti bayramlari, «Sunbula» singari qo'shiqlari, «Alpomish», «Kuntug'mish» dostonlari, ko'plab ertaklari borligini, ularni ifodalagan jarangdor, go'zal, nafis tili borligini Alisherning qulog'iga quyib qo'ydi.

Nutq ikki xil bo'ladi: 1. Ichki nutq. 2. Tashqi nutq. Alisherga tog'asining aytgan gaplari tashqi nutqdir. Kishi navbatda qila-digan ishlarini ovoz chiqarmay ichida o'ylagan bo'lsa, bu ichki nutq bo'ladi.

Dunyodagi tillar va ular orasida o'zbek tilining tutgan o'rni

haqida o'quvchilar bahsini shunday yakunlash mumkin. Demak, dunyoda besh mingdan ortiq til bor. Ba'zi tillarda bitta qishloq, yoki ming, yoki milliardlab kishilar gapirishadilar. Turkiy xalqlar orasida usmonli turk tilida 40 milliondan ortiq, o'zbek tilida 20 milliondan ziyod, qirg'iz tilida 2,5 milliondan, turkman tilida 2 milliondan ortiq kishi gaplashadi.

2-mashqni bajarishda o'quvchilar mustaqillikning ulug' ne'mat ekanligi haqida fikr yuritadilar va ma'naviyatning yuksak kuch ekanligini gapirib beradilar.

3-mashqning sharti o'qilgach, O'zbekiston Respublikasining «Davlat till to'g'risida» Qonuni ko'rsatiladi va undan ba'zi bandlar o'qib eshittiriladi. Erkin Vohidov fikrlari sharhlanadi. Til millat bo'lishlikning asosiy belgilaridan bin ekanligiga urg'u beriladi.

4-mashq uyga vazifa qilib beriladi. Mashq sharti tushuntiriladi.

2-dars

FONETIKA BO'YICHA O'TILGANLARNI TAKRORLASH

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — unli va undosh harflarning hosil bo'lish o'rni, usuli. Undosh tovushlarning ovoz va shovqinga ko'ra turlari o'rganiladi;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash,

tabiatni asrashga o'rgatish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Oarsning jihozi: unli va undosh tovushlar jadvali.

Darsning rejasi:

1. Fonetika haqida ma'lumot.

2. Unli tovushlar tasnifi.

3. Undosh tovushlarning hosil bo'lish o'rni, usulini aniqlash.

Berilgan savol va topshiriqlar asosida o'quvchilar bilimi aniqlanadi. So'ngra o'quvchilar fikri umumlashtirilib, shunday xulosaviy fikrlarni bayon qihsh mumkin.

Fonetikada tovush va harf, nutq a'zolari, bo'g'in, bo'g'in ko'chirish, urg'u singari hodisalarning o'rganilishi aytiladi.

Undosh va unli harflarni sinf taxtasiga oldindan yozib qo'yish mumkin: **b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng -a, e, i, o, u, o'.**

Sinf «Chaqqon» va «Tezkor» guruhlariga bo'linadi. «Chaq-qon»lar undoshlarni, «Tezkor»lar unilarni talaffuz qiladilar. Shu bilan birga, undoshlar va unilarni ajratishda ularning to'siqqa uchrashi va uchramaslik belgisiga tayanilganligini aytadilar.

O'qituvchi o'quvchilarning javoblarini to'ldirib, ovoz va shov-qinning ishtirokiga ko'ra undosh tovushlarni jarangli va jarangsiz undoshlarga bo'linishiga hamda jarangli va jarangsiz undoshlarning farqli belgilariga e'tiborni qaratadi.

5-mashqni bajarishda o'quvchilar gaplarni ko'chirib, unli va undosh tovushlarni ajratib, ularga tavsif beradilar. Namuna: **b** — undosh, jarangli, lab tovushi.

6-mashqni bajarishda o'quvchilar undosh tovushlarni aniqlab berilgan jadvalga joylashtiradilar.

Lab undoshlari	Til undoshlari				Bo'g'iz undoshi
	Til oldi	Til o'rta	Til orqa	Chuqur til orqa	
<i>b, f, m, v, p</i>	<i>d, t, z, j, s, sh, ch, n, l, r</i>	<i>y</i>	<i>g, k, ng</i>	<i>q, g', x</i>	<i>h</i>

7-mashq shartini bajarish uchun portlovchi va sirg'aluvchi undosh tovushlarni amaliy bajaradilar. **D** undoshi til uchining yuqoritishlar tirqishini jipsberkitishidan og'izbo'shlig'ida qamalib yotgan havo zarb bilan til-tish orasini «yorib», «portlash»idan hosil bo'lishi anglatiladi. **M, n, ng** undoshlarining portlovchiligi burunni ikki barmoq bilan qisib, talaffuz qilish orqali oson tushuniladi.

Sirg'aluvchi undoshlar ikki nutq a'zosi jipslashishga yaqin-lashganda og'iz bo'shlig'ida to'plangan havo har qanday sharoitda yo'l topib, tirqishlardan chiqishi hisobiga hosil bo'ladi. **r, z, s** tovushlarining talaffuzi o'quvchilarning amaliy bajarishlari hisobiga aniqlansa, xotirada uzoq saqlanadi.

Namuna: **Sh** sirg'aluvchi, **n** portlovchi, **s** sirg'aluvchi, **t** portlovchi, **b** portlovchi, **i** sirg'aluvchi deb davom ettiradi.

8-mashq mustaqil bajariladi. 9-mashq uyga vazifa.

3-dars

IMLO BO'YICHA O'TILGANLARNI TAKRORLASH

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — o'quvchilarga talaffuz va imlo me'yorlari yuzasidan yangi bilim berish va ko'nikmalar hosil qilish;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarning savodxonlik rha-daniyatini o'stirish, matnlar orqali ekologik tarbiya berish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarning fikrlash qobi-liyatlarini o'stirish, xotirasini mustahkamlash.

Darsning jihozi: imloga doir so'zlar yozilgan plakat «O'zbek adabiy talaffuzi lug'ati», «O'zbek tilining imlo lug'ati» namoyishi.

Darsning rejasi:

1. Unli va undoshlar imlosi.
2. Asos va qo'shimchalar imlosi.
3. Chiziqcha va bosh harflarning qo'llanilishi.

Savol va topshiriqlar asosida o'quvchilar bahsi eshitiladi.

1. Ko'chma taxtaga *betokat, kerak, yolg'onchi, teng, achchig'i tez, joy bo'sh etnas, choyxonada choy qaynatadigan asbob* singari so'z va birikmalaraing sinonimlarini aniqlash topshiriladi. Sinf o'quvchilari 4 guruhga bo'linadi. Har bir guruh sardorlari sinf taxtaga ikkitadan so'z yozishadi. Sardorlar so'zlarni tabiiy talaffiiz qiladilar. Agar so'zlar imlo jihatdan xato yozilsa, raqib guruh a'zolari to'g'rilab yozadilar va ball to'playdilar, o'rinlar belgilanib, e'lon qilinadi. Shu mashq orqali orfoepiya va orfografiya tushuntiriladi.

2. *Toshken, Samarqan, shamba, yomma-yon, milyon, ukrayin, mukopot, bohor* kabi sinf taxtasiga imlosi xato yozilgan so'zlar guruhlar tomonidan to'g'rilanadi. Va buni guruh vakillari izohlay olsalar, ball oladi.

3. *So'ra+q, sayra+q, o'qi+vchi, sovi+q, tok+ga, eg+gin, bog'+ga, tog'+da.* Har bir guruh o'zlariga qarashli asos va qo'shimchalarni qo'shib yozib, qoida chiqaradilar. Chiqarilgan qoidalar har bir guruhning vakili tomonidan izohlanadi. Izohlarga ball qo'yiladi.

4. Birinchi guruh *boqar, rang*; ikkinchi guruh *xona, oy*; uchinchi guruh *xush, umum*; to'rtinchi guruh *noma, kam* so'zlariga so'z qo'shib qo'shma so'z yasaydilar. Yozuvlarning qo'shib yoki ajratib yozganliklari o'qituvchi tomonidan tekshiriladi va baholanadi. So'ngra o'qituvchi vaqtni tejash maqsadida *har, hech, o'sha, yoqqa* kabi so'zlarga so'z qo'shib yozilganda ajratib yozilishini uqtiradi. Chiziqcha va bosh harflarning ishlatilish o'rinlari o'qituvchi tomonidan misollar orqah qisqacha bayon qilinadi.

10-mashqda berilgan so'zlar imlo jihatidan to'g'ri yozilgan. So'zlar tarkibida «x» va «h» kelgan qo'sh unli, qo'sh undoshli

so'zlarning yozilishi va to'g'ri talaffuziga e'tibor berish talab qilinadi.

11-mashqni bajarishda «h» va «x» harfli sozlarga misol yoziladi. Namuna: *ehtiyot, ixcham.*

12-mashqdagi imlosi xato yozilgan so'zlar o'qituvchi yor-damida sinf bilan

ishlanadi va tushuntiriladi.

13-mashq uyga vazifa qilib beriladi, bunda o'quvchilarga «*Saxovatli kuz*» suvrati asosida matn tuzib kehs hamda uni imlo qoidalariga amal qilgan holda yozish topshiriladi.

4-dars

QO'SHIMCHALAR VA ULARNING IMLOSI BO'YICHA O'TILGANLARNI TAKRORLASH

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — o'quvchilarga qo'shimcha va ularning turlari haqida ma'lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni matn orqali vatan-parvarlik ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad — fikrlash orqah qo'shimchalarni o'rinli qo'llash malakasini shakllantirish.

Darsning jihozi: misollar yozilgan plakat, kadaskopdan sinf taxtaga tushirish uchun tayyorlangan materiallar.

Darsning rejasi:

1. Qo'shimchalar va ularning turlari.
2. So'z yasovchi qo'shimchalarni takrorlash.
3. Qo'shimchalarning ma'no farqlari.

O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning o'quv malakalari sinovi o'tkaziladi.

Darsliklar ochilib, o'quvchilar diqqati savol va topshiriqlarga qaratiladi. Birinchi savol o'qitiladi. Savoldagi qo'shimchalar so'zini asos va qo'shimchalarga ajratish, unda nechta qo'shimcha borligi aniqlanadi. O'quvchilar turlicha javob berishlari mumkin: *Qo'sh+im+cha+lar*. *Qo'sh+imcha+lar*. Ajratilgan shakllar tahlil qilinadi. O'qituvchi *yog'ingar*, *yog'ingarchi* so'zlarining nutqda yo'qligini, *yog'ingarchilik* so'zining borligini hamda *-garchilik* bitta murakkab qo'shimcha ekanligini aytadi.

Shifokor so'zini birinchi guruh, *oshpaz* so'zini ikkinchi guruh, *dorboz* so'zini uchinchi guruh tahlil qiladilar. *-kor*, *-paz*,

-boz qo'shimchalarining shaxs hosil qiluvchi qo'shimcha ekanligi tushuntiriladi. *Shifokor* so'zi sinf jamoasi bilan tahlil qilinadi. Asos va qo'shimchaga ajratiladi, asos va hosil bo'lgan so'z turkumi aniqlanadi: *ot+ot* savoli so'raladi. (*nima? kim?*) Qoida: **Agar turkumlari o'zgarmay asos va hosil bo'lgan so'zning savollari o'zgaisa, qo'shilgan qo'shimcha shaxs yasovchi qo'shimcha bo'ladi.**

Ba'zi yasama so'zlarda asos va hosil bo'lgan so'z turkumi ham, so'rog'i ham o'zgarmasligi mumkin: *bog'ich*, *tuzdon*. Bunday paytda hosil bo'lgan so'zda asosning ma'nosi saqlangan bo'lsa qo'shilgan qo'shimcha, albatta, so'z yasovchi bo'ladi.

14-mashq ishlangach, gaplar izohlanadi.

Mashqni ishlashda so'z birikmalarining ergash so'zning bosh so'zga bog'lanishida so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarning qaysi qoidaga ko'ra bog'lanishi

tahlil qilinadi. *Men kezmagan* birikmasida ega qaysi shaxsda bo'lsa, kesim ham o'sha shaxsda bo'lishligini shart ekanligi qoidasi asosida yozilishi izohlanadi.

15-mashqni bajarishda o'quvchilarga berilgan qo'shimchalarni jadvalda joylashtirish hamda ularni so'zlarga qo'shib gap ichida keltirish topshiriladi. Namuna:

So'z yasovchi qo'shimchalar	Lug'aviy shakl yasovchi o'shimchalar	Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar
-la, -i, -y, -im	-ta, -tadan, -tacha, -ov, -ovlon, -ala, -ar, -inchi	-ning, -ni, -ga, -da, -dan

Yig'im-terim ishlari boshlanib ketdi. Bizning sinf o'quvchilari ham hasharga chiqdilar.

Uyda bajarishga tavsiya etilayotgan 17-mashqdagi qo'shimchalarning ma'no va vazifasini amaliy qo'llash orqali tu-shuntirishga qaratilgan.

5-dars

LEKSIKOLOGIYA BO'YICHA O'TILGANLARNI TAKRORLASH

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad - so'z va uning ma'nosi haqida o'quv-chilarning bilim va ko'nikmalarini aniqlash va boyitish;
- b) tarbiyaviy maqsad - matn orqali axloq va odob me'yorlarini shakllantirish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad - o'quvchilarning fikrlash qobi-liyatlarini o'stirish.

Darsning jihozi: Darsning jihozi ko'chma ma'noli, shakldosh, zid ma'noli so'zlar va gaplar yozilgan plakatlar.

Darsning rejasi:

1. So'zning o'z va ko'chma ma'nolari haqida.
2. Shakldosh va zid ma'noli so'zlar.
3. Eskirgan va yangi ma'noli so'zlar.

Uyga vazifa 17-mashq sharti bo'yicha tahlil qilinadi.

Savol va topshiriqlar quyidagicha bajariladi.

Meva, daryo, oy so'zlarini ko'chma ma'noda qo'llab, gaplar tuzish topshiriladi. So'ng ko'rgazmadagi birinchi gap o'qiladi. Bir xil yozilgan ikki so'z ma'no jihatdan o'quvchilardan izohlash talab etiladi.

Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar

1. *Bog'dan mevalar terdik. Hunarim o'z mevasini (natijasini) berdi.*
2. *Uzoqdan daryo ko'rindi. HaUm bobo keksaysa ham hali yuragi daryo (fe'li keng) odam.*
3. *Oy ko'rindi. Bir oydan so'ng lagerga boraman (30 kun).*

Atamalar deb nimaga aytiladi?

Berilgan so'zlar qaysi fan atamasi hisoblansa, jadvalning tegishli katagiga joylashtirish topshiriladi.

Geometriya	Ona tili	Biologiya	Geografiya
<i>Teng hadli</i>	<i>Sifat</i>	<i>Hujayra</i>	<i>G'arb</i>

Berilgan so'zlarni qaysi kasb-hunarga doirligini bo'sh kataklarga joylash talab etiladi.

Duradgorlik	Chevarchilik	Dehqonchilik	Chorvachilik
<i>Randa</i>	<i>Qaychi</i>	<i>Shudgor</i>	<i>Suruv</i>

Qaychi, randa so'zlarini boshqa so'z bilan almashtirsa bo'ladimi?

Atamalar necha turli bo'ladi? (Ilmiy, kasb-hunar).

Shevaga xos so'zlar.

G'o'ra — dovuchcha, shakarob — achchiq-chuchuk, bargak — turshak so'zlarining qaysilari shevaga xos so'zlar? (So'zlarning ikkinchisi).

Eskirgan so'zlarni o'qituvchining o'zi tushuntirgani ma'qul.

Geometriya — handasa, astronomiya — falakiyot, matematika-riyoziyot, askar — cherik, do ppi — bo'rk. Bugungi kunda qo'llanmaydigan, uning o'rnida boshqa so'zlar qo'llaniladigan so'zlar eskirgan so'zlardir.

O'zbek tiliga nima sababdan boshqa tillardan so'zlar o'zlashgan?

1. Arablarning Markaziy Osiyoni bosib olishi sababli: *maktab, a'lo, kitob, dars, rais, shoir.*

2. Rossiyaning Markaziy Osiyoni bosib olganligi uchun: *parta, ruchka.*

3. Tojiklar bilan yonma-yon yoki bir hududda yashaganligimiz tufayli: *dastarra, dastyor, jahon.*

4. Qadimda rivojlangan mamlakatlardagi kashfiyotlar sababli: *dekada (fr), dekan (lot), delegatsiya (lot), soldat (nem).*

Chetdan kirgan so'zlar savol-javob asosida aniqlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'qituvchi beshala savol va topshiriqqa berilgan javoblarni xulosalaydi. Quyi sinflarda tasviriy ifoda, iboralar, uyadosh so'zlar va paronim so'zlar ham leksikologiyada o'rganilgani eslatiladi.

18-mashq og'zaki bajariladi.

19-mashq mustaqil bajariladi.

Mavzuni mustahkamlash maqsadida 20-mashq yozma bajariladi. Bajarilgan mashq o'qitiladi. Tekshirish uchun so'zlar tartibi quyidagicha: *osmonda, qoqayotgan, nolib, saylashini, jimjit, boshini, oldida.* Mashq o'qilayotganda ma'nodosh so'zlar ta'riii, ma'nosi savollar orqali aniqlanadi.

«Ma'nodosh so'zlar» mavzusini yanada mustahkamlash maqsadida, sinf o'quvchilari kayfiyatlarini ko'tarish niyatida «Kim ko'p ma'nodosh so'zlarni aniqlaydi» o'yinini tashkillash mumkin. Sinf jamoasi uch guruhga bo'linadi. Uchala guruhga bir xil topshiriq berib, bir daqiqa vaqt ajratiladi. 1-turda inoq bosh so'zi beriladi (sinonimlari: *inoq, ahil, qadrdon, totuv, ittifoq, qalin, apoq-chapoq* tekshirish uchun). Qaysi guruh nechta to'g'ri so'z topsa, o'shancha ball oladi. Oxirida g'oliblar aniqlanadi. 2-turda *unadi (unadi, ko'ndi, rozi bo'ldi)*, 3-turda *osmon (osmon, ko'k, samo, falak, gardun)* bosh so'zlari beriladi.

Darsning so'ngida har bir guruhning darsga ishtirokini izohlab ball qo'yiladi. Har bir guruh o'z ishida o'zaro olgan ballarini taqqoslaydi, ya'ni har bir ishtirokchi

o'zining ishtirokiga yarasha ball oladi.

Uyga 21-mashqni bajarish va nazariy ma'lumotni o'qib kelish topshiriladi.

6-dars

FE'L SO'Z TURKUMI BO'YICHA O'TILGANLARNI TAKRORLASH

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — fe'l so'z turkumiga doir grammatik bilimlarni eslash va mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilar ongiga tabiatni muhofaza qilish ruhini singdirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarning teran fikrlash, mushohada yuritish ko'nikmalarini shakllantirish.

Darsning jihozi: mavjud texnika vositalari va misollar yozilgan ko'rgazma plakatlar.

Darsning rejasi:

1. Fe'l nisbatlari, mayllari haqida ma'lumot.
2. Fe'l shakllarining bayoni.
3. Fe'llarning tuzilishi.

Savol va topshiriqlarni ishlash.

1. Birinchi topshiriq o'quvchilarga tushunarli bo'lishini hi-sobga ohb, fe'l so'z turkumini o'rganganimizda fe'l haqida qaysi mavzularni eslay olasiz, deyish mumkin. O'quvchilarning javoblari sinf taxtasiga tartib bilan yozib boriladi. Yozuv quyidagicha davom etishi mumkin: 1) fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz shaldi; 2) fe'l nisbatlari; 3) fe'l mayllari; 4) fe'l zamonlari; 5) fe'l shakllari; 6) fe'llarning tuzilishi.

2. Ikkinchi topshiriqni bajarish uchun quyidagicha savollar beriladi. *Yozdi* fe'lidan ish-harakatning bajarilgan yoki bajarilmaganini bilsa bo'ladimi? (*ish-harakat bajarilgan*)

Yozdi fe'lida ish-harakat bajarilmasa, qanday shaklda bo'ladi? (*Yozmadi*). *Yozmoq* fe'liga yana qanday so'z qo'shsak, ish-harakatning bajarilmasligini bildiradi? (*yo'q, emas*)

3. Fe'l nisbatlari turlarini kim ayta oladi? *Quyosh ko'tarildi, gul ochildi* gaplaridagi fe'llar qaysi nisbatda? (*O'zlik nisbatda*) *Gulg'unchalarini erta tongda kim ochib qo'yadi. (Hech kim, gul o'zi ochiladi, ish-harakatni gulning o'zi bajaradi).* *Quyoshni koinotga bugun O'zbekiston, ertaga Yaponiya olib chiqib qoyadimi? (Yo'q, quyosh o'zi ko'tariladi).* Demak, tabiatning o'zi yoki insonning o'zi tomonidan ish-harakat bajarilsa, o'zlik nisbati bo'ladi.

6-, 7-, 8- topshiriqlar — harakat nomi, sifat-dosh va ravishdosh qo'shimchalarini aralash holda ko'chma taxtaga oldindan yozib, tayyorlab qo'yish mumkin. O'quvchilar ichlarida o'qishib, ravishdosh, sifat-dosh, harakat nomining to'g'risiga yozib bajaradilar. So'ngra o'qituvchining tayyor javobiga qiyoslab o'z xatolarini tushunib to'g'rilab oladilar.

-moq	-gani	-r(-ar) -gach	Ravishdosh: -a, -y...
-guncha	-sh(-ish)	-v(-uv) -digan	Sifatdosh: -digan...

-gan	-a, -y	-b(-ib) -gali	Harakat nomi: -v (-uv)...
------	--------	---------------	----------------------------------

9- topshiriqdagi sodda, qo'shma, juft fe'llarga o'quvchilar tomonidan keltirilgan misollar bilan kifoyalanish mumkin. Shuningdek, qo'shma fe'lni aniqlash uchun qiyoslash maqsadida ko'makchi fe'lli so'z qo'shimchasidan, birinchi qism fe'l bo'lmagan va har ikkala qismi fe'ldan iborat bo'lgan qo'shma fe'llarni qiyoslash orqali tushuntiriladi. Namuna: Ishlab ko'rди, olib keldi, shod qildi. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasida harakatning bittaligi, qo'shma fe'lda (*fe'1+fe'l*) harakatning ikkitaligi (ko'makchi fe'l: *ishladi*, qo'shma fe'l: *oldi* va *keldi*) bilan farqlanadi.

22-mashqning shartidan shuni uqish mumkinki, fe'lga xos grammatik shakllarning bir guruhi ma'lum vazifani bajarishga xoslanganligini ko'rsatadi. Ularning birinchi guruhi — fe'llarning fonksional shakllari uch xil deyiladi. 1. Harakat nomi; 2. Sifatdosh; 3. Ravishdosh. Demak, mashqdagi faqat so'f fe'llargina tahlil qilinadi: *Eshitmadi, o'rgatadi, so'radi, bilaman, xor bo'lmaydi, deydilar*. Namuna: *o'rgatadi* — aniq mayl, aniq nisbat, hozirgi-kelasi zamon fe'li. 23-mashqda fe'l shakllari qo'shimchalarini aniqlash ko'zda tutilgan. Biroq ravishdoshning ravishga o'xshashligi, birlik nisbatining harakat nomiga o'xshashligi kuzatiladi. *Haqiqatan ham, borishsin* so'zidagi *-ish* birgalik nisbat, duo qilishadi so'zidagi *-ish* birgalik nisbat qo'shimchasidir. Har ikkala so'zga alohida izoh berish darkor.

Sizlab, deb, qo'yib, bo'lib, olib — ravishdosh, *-gan* sifatdosh qo'shimchasidir.

24-mashqda fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari so'ralgan. Mashq-da qo'shma fe'llarni aniqlashda ikki so'zdan tuzilgan *kirib chiqmoq, ekin ekmoq, qo'l urmoq* misollari o'quvchilar fikrini rivojlantirish uchun keltirilgan. *Qo'l urmoqning* ibora, *ekin ekmoqning* so'z birikmasi, *kirib chiqmoqning* qo'shma fe'l ekanligi o'quvchilarni o'ylantiradi. Misollarning ma'no farqlari muam-moli o'qitish usuli asosida hal qilinadi. Sodda fe'llarni sodda yasama, sodda tub fe'llarga ajratish yanada o'quvchilar tafakkurini rivojlantiradi.

25-mashq uyga vazifa qilib beriladi, bu boshqotirma yechilsa, *Oltin olma, duo ol* maqoli kelib chiqadi.

7-dars

OT SO'Z TURKUMI BO'YICHA O'TILGANLARNI TAKRORLASH

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — ot so'z turkumini o'quvchilar tasavvurida tiklash va uni mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad — sportning jismonan barkamol, aqlan teran shaxs qilib tarbiyalovchi vosita ekanligini o'quvchilar ongida shakllantirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarda ixcham qomat, ziyrak aql egasi bo'lish havasini uyg'otish.

Darsning jihozi: sport turlari bo'yicha chempionlar portretlari, plakat, jadval.

Darsning rejasi:

1. Otlarning turlanishi.
2. Otlarning tuzilishiga ko'ra turlari.
3. Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanilishi.

O'quvchilar ruhiyatini darsga moslab olish uchun qator savollar beriladi.

1. Ot so'z turkumi deb nimaga aytiladi?
2. Ot qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
3. Kelishiklar va ularning qo'shimchalarini ayting.
4. Kelishik qo'shimchalari qanday vazifa bajaradi?
5. Otlar ma'no jihatdan qanday turlarga bo'linadi?

Savol va topshiriqdagi «Otlar qanday yasaladi?» savoli 26-mashq asosida muhokama-bahs usuli bilan ishlanadi.

Savol va topshiriqdagi otlarni ma'no guruhlariga ajratish 26-mashq asosida mustahkamlanadi. Matn o'qiladi, sport haqida bahs yuritiladi. Otning ma'no turlari — shaxs otlari, narsa-buyum otlari, kasb-hunar otlari, o'rin-joy otlarini aniqlab, jadvalni to'ldiradilar.

Namuna:

Shaxs otlari	Narsa-buyum otlari	Kasb-hunar otlari	O'rin-joy otlari
<i>Bog'bon</i>	<i>pomidor</i>	<i>zargarlik</i>	<i>daladan</i>

Savollar:

1. Kim birinchi bo'lib 5 ta turdosh otni o'qib beradi?
2. Kim beshta aniq otni topib ko'rsata oladi?

Sinfdagi eng kuchli 2 ta bilimdon nomlari aytilib, minnat-dorchilik bildiradi va ular rag'batlantiriladi. Qolgan o'quvchilar javoblarni izohlab beradilar.

29-mashq. «*Sog'lom tanda sog' aql*» mavzusida matn tuzish ko'zda tutilgan. Matnni qanday boshlash, uni yoritishda o'quvchilarning ko'pchiligi qiynaladilar. Yordam sifatida tayanch iboralar, so'zlar beramiz.

Erta tong, musaffo havo, badantarbiya, nonushta, maktab sport zali, stadion, boks, gimnastika, yugurish maydoni, start, musobaqa, g'oliblik shohsupasi.

30-mashq uyda bajariladi, o'quvchilar matn tuzadilar.

8-dars

SIFAT SO'Z TURKUMI BO'YICHA O'TILGANIARNI TAKRORLASH

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — o'quvchilarning sifat so'z turkumi haqidagi grammatik bilimlarini tiklash va mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni xushxulq, odobli, shirin so'zli bo'lish ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilar nutqini o'stirish, so'z boyligini o'ttirish.

Darsning jihozi: jadvallar, tabiat manzarasi aks etgan asar. Turli predmetlar.

Darsning rejasi:

1. Sifatlarning yasalishi va tuzilishi.
2. Sifatning ma'no turlari.

3. Sifat darajalari.

Uy vazifasi o'qitiladi, otlarning tuzulishi, ma'no turlari savol-javob metodi asosida tahlil qilinadi.

Sinf jamoasi «Iqtidorlilar», «A'lochilar» guruhlariga bo'linadi-lar, «Iqtidorlilar» nisbiy sifatga, «A'lochilar» asliy sifatga misol topa olmay qolguncha o'yinni davom ettiradilar.

31-mashq bajariladi. *Qisqa, baland, ziyrak* sifatlari otlashmagan holda otdan keyin joylashgan, nodondan, nodonga, qorasini sifatlari kelishik va egalikni olib otlashishi tushuntiriladi. Keltirilgan sifatlari otlashgan va otlashmaganiga ko'ra gap bo'laklari aniqlanadi. *Qisqa, baland* shakl), *yomon, ziyrak* (xususiyat,) sifatlarning ma'nolari o'quvchilar tomonidan aniqlanadi. Sifatning ma'no turlari shu mashq bilan xulosalanadi.

32-mashqni ishlashdan ilgari sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari o'quvchilar tomonidan o'qituvchi yordamida esga olinadi. Sinf taxtasiga jadval joylashtiriladi. Gaplardan sifatlari aniqlanadi, ular izohlanadi.

33-mashq mustaqil bajariladi.

34-mashq uyga vazifa qilib topshiriladi. Namuna: *oppoq* qanday? so'rog'iga javob bo'ladi, *oppoq qor* otga bog'langan, ashy sifat, sodda, tub, ortirma daraja, gapdagi vazifasi aniqlovchi.

9-dars

SON SO'Z TURKUMI BO'YICHA O'TILGANLARNI TAKRORLASH

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — o'quvchilarning sonning ma'no turlari, ularning imlosi bo'yicha bUimlarini shakllantirish;

b) tarbiyaviy maqsad — tabiiy bilimlar matni asosida o'quvchilar dunyoqarashini boyitish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarning mushohada va fikriash qobiliyatlarini o'stirish.

Darsning jihozi: jadvallar, topishmoqlar.

Darsning rejasi:

1. Sonning ma'no turlari.
2. Sonlarning imlosi.
3. Sonlarning tuzilishi.

1. Darslikdagi savol va topshiriqlarga o'quvchilar diqqati jalb qilinadi. O'quvchilar *-ta, -tadan, -tacha, -lab, -larcha* qo'shimchalarini sonlarga qo'shib misollar keltiradilar. Shu so'zlar ishtirokida gap tuzib, ularni izohlaydilar. *-ta* qo'shimchasining miqdor, *-tadan* qo'shimchasi taqsim, *-tacha, -lab, -larcha* qo'shimchalarining taxmin, chama ma'nolari izohlanadi.

2. Birdan o'ngacha bo'lgan raqamlarning unli tovush bilan tugaganlari aniqlanadi: *ikki, olti, yetti*. Bu sanoq sonlarga *-ov, -ovlon, -la* qo'shimchalari qo'shilgach, ulardagi tovush o'zga-rishlari kuzatiladi.

Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar,

Yettovlon inoq bolsa, unmaganin undirar maqolidagi *oltovlon, yettovlon*

so'zlarining asos va qo'shimchalari tahtil qilinadi. Namuna: *olti+ovlon=oltovlon*.

3.O'quvchilarga egalik qo'shimchalari eslatiladi. Nigora *bog'dan 12 ta olma olib keldi*. Avval *ikkitasini onasiga, ikkitasini dadasiga ajratib olib qoydi* misollaridagi sonlarga qo'shilgan qo'shimchalar aniqlanadi. (-ta, -si, -ni) egalik va kelishik qo'shimchalari qo'shilishi bilan sonlarning otlashishi, otning so'rog'iga javob bo'lishi, egalik va kelishik qo'shimchalari olma so'zini ifodalayotgani tushuntiriladi.

4. Sonlarning boshqa so'z turkumlari singari sodda, qo'shma, juft, takror bo'lishi eslatiladi va misollar bilan tushuntiriladi: *besht, o'n, uch-to'rt, beshta-beshta* so'zlari bilan gap tuziladi, izohlanadi.

5. Sonlarga qo'shimcha qo'shilganda asosda tovush tushishi va buning imloga ta'siri tushuntiriladi: *yetti+ov=yettov, ikki+ala=ikkala, (5+2=6, 4+3=6)*.

6. Hisob so'zlari: *yil, so'm, oy, metr, nafar, bosh* so'zlari bilan sonlar qo'llanganda son va hisob so'zlar bir so'roqqa javob bo'lib, bitta gap bo'lagi bo'lib kelishi uqtiriladi. *Ikki oydan so'ng ta'til boshlanadi. Uch bosh qo'y boqdik*.

35-mashqni bajarishda o'quvchilar savollarga javob yozib, sonlarning tuzilishiga ko'ra turlarini va gapdagi vazifasini aniqlaydilar.

36-mashq matni o'qib chiqiladi. Ajdodlarimizning jahon faniga qo'shgan ulkan hissalarini bayon qilinib, ulardan faxrlanish, milliy g'ururlanish ruhi singdiriladi. Matndagi sonlar tahlil qilinadi.

Namuna: 873 — tuzilishiga ko'ra qo'shma son, ma'nosiga ko'ra tartib son, gapdagi vazifasi hoi.

37-mashq uyga vazifa. Bu mashqni bajarishda o'quvchilar o'z tarjimaiy holini yozib, unda ishlatilgan sonlarni tahlil qilib keladilar.

10-dars

RAVISH SO'Z TURKUMI BO'YICHA OTILGANLARNI TAKRORLASH

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — o'quvchilarning ravish so'z turkumi haqidagi bilimlarini kengaytirish;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni tabiatni muhofaza qilishga o'rgatish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilar lug'atini boyitish va tafakkurini o'stirish.

Darsning jihozi: rasmlar plakati, tarqatma materiallar.

Darsning rejasi:

1. Ravish so'z turkumi haqida tushuncha.

2. Ravishning ma'no turlari.

3. Ravishning yasalihi.

4. Ravishning tuzilihi.

Uy vazifasi so'raladi. Tarjimaiy holda keltirilgan sonlarning miqdor va tartib songa kirishiga, sonlarning tuzilishiga, qo'shimchalariga e'tibor qaratiladi.

Yangi mavzu bayonida ravish haqida ma'lumot beriladi. Har bir mustaqil so'z turkumini o'rganish oldidan o'tilgan so'z turkumlarini eslatib turilishi zarur. Ravishni otga, sifatga qiyoslash mumkin. Otlarda kelishik, ko'plik va egalik qo'shimchalari bor, ravishda esa yo'qligiga e'tibor qaratiladi. O'quvchilardan ravishga misol keltirish talab etiladi. Keltirilgan misollardan asta, sekin

ravishlarini tanlab, ularga kelishik qo'shimchalarini qo'shish tavsiya qilinadi. *Astani, astaga...* Shu so'zlar ishtirokida gap tuzish lozimligi aytiladi. Demak, ravish ot singari egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini qabul qila olmasligi, ravishning o'zgarmas ekanligi uqtiriladi. Savol va topshiriqning birinchisida holat ravishlari haqida so'ralgan bo'lib, uni tushuntirish uchun *elas-elas, ohista, tez-tez* holat ravishlaridan biriga izoh berish mumkin. Bo'lgan voqeani ohista so'zlab berdi.

Holat ravishlari haqida ma'lumot berishdan avval holatning o'zini izohlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda jadvaldan foydalanish mumkin.

<i>Shoshilmay</i>		<i>Bilinar-bilinmas</i>
<i>Ehtiyotkorona</i>	OHISTA	<i>Shovqin ko'tarmay</i>
<i>Baqirmay</i>		<i>Qattiq gapirmay</i>

Ravish so'zlarning holat, payt, o'rin, daraja-miqdor ma'nola-ridagi mavhumlik va so'zning lug'aviy ma'nolari o'rtasidagi mu-nosabat izohlanishi zarur.

O'quvchilarga quyidagicha savol berish mumkin: 1. Holat ravishlari qaysi so'z turkumlariga bog'langan? (Fe'lga.) 2. Qanday so'roqqa javob bo'lgan? (Qanday?) O'qituvchi xulosalaydi.

40-mashqda guruhlar o'rtasida musobaqa o'tkazish mumkin. Birinchi ustunda beshta ravish, uning to'g'risiga ma'nosi, ikkinchi ustunga beshta ravishning ma'no turlari to'g'risiga misol yoziladi. Tez va to'g'ri ishlagan guruh g'olib hisoblanadi.

Misollar yozing	Ravish ma'nolari
<i>zo'rz'a</i>	holat
<i>ichra</i>	o'rin
<i>birpas</i>	maqsad
<i>salgina</i>	payt

Mashqning birinchi sharti bajarilgach, misollar quyidagi jadvalga joylashtiriladi.

Sodda ravishlar	Qo'shma ravishlar	Juft ravishlar
<i>Kutilmaganda</i>	<i>Bir yo'la</i>	<i>Birin-ketin</i>

41-mashq uyga vazifa. Namuna: *Xalqimiz katta Farg'ona kanalini qazishda qahramonona mehnat qildi.*

11-dars

NAZORAT DIKTANTI VA TAHLILI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad— o'quvchilar bilimini sinash;
- a) tarbiyaviy maqsad— o'quvchilar ongiga matn asosida tabiatni muhofaza qilish hamda tarixga muhabbat ruhini singdirish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarning savodxonligini o'stirish.

Darsning jihozi: diktant matni.

Darsning rejasi:

1. Diktant matni bilan tanishtirish.
2. Matn yuzasidan suhbat.
3. Diktant yozdirish.

Diktant matni bilan tanishtirilgach, suhbat o'tkaziladi. O'zbe-kistonning tarixiy shaharlari haqida suhbat o'tkaziladi. So'ng matn ifodali o'qib beriladi, o'quvchilar yozadilar.

CHORSU

Chorsu maydonining sahnini endi ilg'ab olish mumkin. Maydon kattagina bo'lib, unga tosh yotqizilgan. Samarqand ko'chalarining ko'pchiligi tosh ko'chalardan iborat. Gavjumlikda Chorsu maydonining oldiga tushadigani yo'q, deyishadi. Maydonga qachon, kim tomonidan tartib berilganini birov bilmaydi, har qalay, uning tarixi arablar bosqinidan ham ilgari Turk xoqonligi zamoniga borib taqaladi, hatto xoqon Tuminning o'zi uning qurilishidan xabar olib turgan emish. Chingizxon qo'shinlari Samarqandni bosib olib vayron qildilar, xarobaga aylantirdilar, ko'hna binolar o'rniga kultepalar paydo bo'ldi. Lekin, shahar avvallari ham shun-day falokatga yo'liqqanidan keyin doim o'zini tiklab ola bilar edi. Biroq Chingizxon istilosidan keyin shahar tiklanmadi, chunki shaharkushlarning vayron qilmoqlikda turfa ustaliklari bor edi. Urganchni Amudaryoni to'sib shaharni suvga bostirishib olishgan bo'lsa, Samarqandda aksincha yo'l tutdilar: qirg'oqlari qo'rg'oshin bilan qoplangan mustahkam Jo'yi Arzizni buzib, shaharga keladigan suvni berkitdilar, xalq suvsiz qolib ketdi. Har ikki ko'hna shahar ham keyin qaddini ko'tara olmadi. (Muhammad Ali)

Eslatma: imlosi o'quvchilarga qiyin bo'lgan «*Tuminning*», «*shaharkushlarning*», «*Jo'yi Arziz*» so'zlari sinf taxtasiga yozib qo'yiladi.

12-dars

OLMOSH SO'Z TURKUMI VA UNING TASNIFI

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — olmoshlarning tasnifi, ma'no turlari haqida ma'lumot berish;

- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad— o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish.

Darsning jihozi: olmoshlarning ma'no turlari berilgan chizma, pardali sinf taxtasi, ko'chma xattaxta.

Darsning rejasi:

1. Olmoshning boshqa so'zlar o'mida almashinib qo'llanishi.
2. Olmoshning ma'no turlari.

O'quvchilar diqqatini 1-topshiriqqaqaratadi. O'quvchilardan berilgan gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlar qaysi so'z o'rnida qo'llanganligini aniqlash talab etiladi (*unga — qizchaga, Hamid Olimjon — u, uni — so'zni, o'n marta — shuncha, Olim musobaqada g'olib chiqdi —bu*). Birinchi topshiriq bajarilgach, 2-topshiriqda berilgan so'zlarni olmoshlar bilan almashtirish talab etiladi. Namuna: *Lirika shoir qalbining yilnomasidir. U bunda kechgan jarayonlarni aks ettirish orqali o'z qalbining tarixini yaratadi.*

O'quvchilar topshiriqlarni to'liq bajarib bo'lgach, ana shu misollarga tayanib, nazariy ma'lumot bayon qilinadi.

So'ng navbatdagi topshiriqda berilgan gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qanday so'roqqa javob bo'lishini topish hamda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini izohlash talab qilinadi. Topshiriqni o'quvchilar bajargach, o'qituvchi avvaldan ko'chma taxtaga yozib qo'yilgan so'zlarning izohini ko'rsatadi. O'quvchilar izohlashda xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, ko'chma xattaxtaga to'g'ri javobga qarab, tuzatishadi. O'qituvchi quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

1. *Kim? nima? qayer?* so'roqlariga javob bo'lgan olmoshlar qaysi so'z turkumi o'miga almashinib kelayapti?

2. *Qaysi? qanday?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar qanday so'zlar bilan almashinib qo'llanyapti?

O'qituvchi bolalarning javobini yakunlash asosida qoida chiqaradi.

O'qituvchi avvaldan quyidagi jadvalnipardali xattaxtaga chi-zib qo'ygan boiadi. Pardani ochib, jadvalni ko'chirish va uni 42-mashq asosida to'ldirishni topshiradi.

Kishilik olmoshi	O'zik olmoshi	Ko'rsa- tish olmoshi	So'roq olmoshi	Belgilas h olmoshi	Bo'lishsizli k olmoshi	Gumon olmoshi
<i>men</i>	<i>o'z</i>	<i>bu</i>	<i>kim</i>	<i>hamma</i>	<i>hech</i>	<i>kimdir</i>

O'quvchilar yettita kichik guruhga bo'linadi. Har bir guruh olmoshning bir turini o'rganadi va shu turga kirgan olmoshlarni yod oladi. Buning uchun ma'lum vaqt belgilanadi.

43-mashq mustaqil bajariladi. Bunda har bir o'quvchi o'zi yoqtirgan vaqtli matbuotdan olmoshlar qatnashgan 5 ta gap yozadilar.

44-mashqni bajarishda o'quvchilar nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'yib ko'chiradi. Tez bajargan o'quvchilarga qo'shimcha topshiriq beriladi: ular nuqtalar o'rnida kelgan so'zlarga so'roq beradi. Namuna: *Tog'am – tajribali yurist. U ko'p ishlarni adolatli hal qilgan.*

O'tilganlarni yakunlashda o'quvchilar darslikda berilgan topshiriqlarni bajaradilar.

Uyga vazifa. 45-mashq sharti bo'yicha bajariladi. Namuna: *Xudoyberdi To'xtaboyev – bolalarning sevimli yozuvchisi. U ko'plab qiziqarli asarlar yozgan.*

13-dars

KO'RSATISH OLMOSHLARI

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad - ko'rsatish olmoshlari haqida ma'lumot berish hamda uning

yozilishi bo'yicha malakalarini shakllantirish;

b) tarbiyaviy maqsad - o'quvchilarda ijobiy fazilatlarni rivojlantirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad - o'quvchilarning yozma mashq malakasini o'stirish.

Darsning jihozi: ko'chma xattaxta, ko'rsatish olmoshlari qatnashgan gaplar tushirilgan plakat.

Darsning rejasi:

1. Ko'rsatish olmoshlari.

2. Ko'rsatish olmoshlarining yozilishi.

1-topshiriq bajariladi.

O'quvchilar birinchi topshiriqni bajarib bo'lgandan keyin o'qitilib tekshiriladi. Shundan so'ng bu, shu, u, o'sha olmoshlarining o'zaro farqini aniqlab aytadilar. Bunda quyidagi savollar o'quvchilarni 3-topshiriqning bajarilishiga yo'llab turadi.

1. Qaysi olmoshlar so'z o'rnida almashinib kelyapti?

2. Qaysi olmoshlar so'z birikmasi o'rnida qo'llanyapti?

3. Qaysi olmoshlar gap o'rnida qo'llanmoqda?

4. Olmoshlarning gapdagi vazifasini aniqlang.

So'ng o'quvchilarning javobi umumlashtirilib, qoida chiqariladi.

46-mashq mustaqil bajariladi. Ko'rsatish olmoshlarining gap-da qanday gap bo'lagi vazifasida kelayotganini aniqlash qo'shim-cha topshiriq sifatida beriladi. Masalan: *Hovlini supurish, idish-tovoqlarni yuvish o'sharing bo'ynida. (o'sharing — aniqlovchi)*

47-mashq mustaqil bajariladi. O'quvchilar «**Kutubxonada**» mavzusida matn yaratadilar. Mantda ko'rsatish olmoshlaridan foydalanish shart qilib qo'yiladi.

Sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi, 1-guruh u olmoshi ko'rsatish olmoshi bo'lib kelgan gaplarni; 2-guruh esa u olmoshi kishilik olmoshi bo'lib kelgan gaplarni izohlaydi.

49-mashq uyga vazifa. O'quvchilar badiiy asariardan ko'rsatish olmoshi qatnashgan o'nta gap yozib keladilar.

14-dars

KO'RSATISH OLMOSHLARINING TALAFFUZI VA IMLOSI

Darsning maqsadi:

a) ihtiy maqsad — ana bu, ana shu olmoshlarining talaffuzi va imlosi haqida ma'lumot berish, uning yozilishi bo'yicha malakalarini rivojlantirish;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarning fikrlashini o'stirish; d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarning yozma mashq malakasini shakllantirish.

Darsning jihozi: ko'chma xattaxta, ana bu, ana shu ko'rsatish olmoshlari qatnashgan gaplar tushirilgan plakat.

Darsning rejasi:

1. Ko'rsatish olmoshlari.

2. Ko'rsatish olmoshlarining tuzilishiga ko'ra turlari.

3. Ko'rsatish olmoshlarining yozilishi.

O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini birinchi topshiriqqa qaratadi. Ular topshiriqni mustaqil o'qib chiqishadi va ko'rsatish olmoshlarinnig tuzilishiga e'tibor beradilar. Namuna: *Niyatimga yetaman, mana bu to'polonlar o'tib olsinchi... — derdi u Onabibiga.* Mana bu ko'rsatish olmoshi, tuzilishiga ko'ra qo'shma olmosh, mana va bu olmoshlarini qo'shib hosil qilingan. 2-topshiriqda ana bu va mana shu olmoshlarining yozilishiga e'tibor qaratiladi. Bu olmoshlar doim ajratib yozilishi, ammo ba'zan og'zaki nutqda anavi, manavi tarzda aytilishi hamda shunday yozilishi ta'kidlanadi.

Yangi mavzuni mustahkamlashda, mashqlar ishlashda sinfni ikki guruhga bo'lib, birinchi guruhni «**Topqirlar**», ikkinchi guruhni «**Zukkolar**» deb nomlab olish mumkin.

«**Topqirlar**» tuzilishiga ko'ra sodda olmoshlarga *-day, -aqa, -cha, -ga, -da, -dan, -im, -ing, -si* qo'shimchalarini qo'shib, «**Zukkolar**» esa qo'shma olmoshlarga berilgan qo'shimchalarni qo'shib asosning takribida qanday o'zgarish bo'lganligini aytib beradilar. Namuna: *Bunday — bu* olmoshiga *-day* qo'shimchasi qo'shilganda asos tarkibida bitta *n* tovushining ortishi kuzatilyapti.

50-mashq. Muammoli o'yin. Berilgan misollardagi raqamlar o'rniga mos olmosh hamda qo'shimchalarni qo'yning.

$2+3 = 6$ (*bu+day=bunday*) $5+3=9$ (*ana bu+day =ana bunday*) $2+3 = 6$ (*shu+day=shunday*) $5+3=9$ (*ana shu+day= ana shunday*) $2+2 = 5$ (*shu+cha=shuncha*) $5+2 = 8$ (*ana bu+im=ana bunim*)

51-mashq. Uyga vazifa. Namuna: *Siz bolalik qilib bunaqa xom xayollarga borib yurmang.* Bu gapda *bunaqa* ko'rsatish olmoshi ishtirok etgan. Bu olmoshiga *-aqa* qo'shimchasi qo'shilgan. O'zbek tilida ikki unli yonma-yon kelishi xarakterli emas, shuning uchun bu olmoshiga *-aqa* qo'shimchasi qo'shilsa, o'rtada **n** tovushi orttiriladi.

15-dars

KISHILIK OLMOSHLARI

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — kishiMk olmoshlari va ularning imlosi haqida ma'lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarga axloqiy tarbiya berish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — yozma va og'zaki nutq mada-niyatini o'stirish.

Darsning jihozi: mavjud texnik vositalar, kishilik olmoshlari tushirilgan jadval, ko'chma taxta.

Darsning rejasi:

1. Kishilik olmoshlari.

2. Kishilik olmoshlarining ma'nosi.

3. Kishilik olmoshlarining imlosi

Mustaqil ish: *men, sen, u, biz, sizlar, ular* olmoshlari ishtirokida gap tuzish.

Bunda sinfni guruhlarga bo'lib, har bir guruhda ikkitadan olmoshga gap tuzish topshiriladi. Misollarni o'quvchilar o'qiydi. Eng yaxshi gaplarni tanlab, bu olmoshlar qaysi ma'nosi bilan bir xil, qaysi ma'nolari bilan farqlanishi izohlanadi. Masalan: *men, sen, siz* olmoshlari birlik ma'nosi bilan bir xil, *siz* olmoshi ko'plik II shaxsni ifodalasa ham, gap ichida hurmat ma'nosida birlikni ifodalayotganligi uchun *men, sen* olmoshlari bilan bir xil, hurmat ifodalashi bilan ulardan farqlanishi izohlanadi. Har bir guruhdan o'quvchilar komanda sifatida ishtirok etadi. Ularning ishtirokiga qarab, guruh ball to'playdi. Har bir guruh bir jamoa sifatida o'zaro javoblarni mu-hokama qilib, eng to'g'ri va to'liq javobni hozirlaydilar. Guruhlarning kelishib olishi uchun 1 daqiqa vaqt ajratiladi. Guruhdan bittadan o'quvchi xattaxtaga misollarni yozadi va ularning gapdagi vazifasini aniqlab tagiga chizadi. Bu bilan ham yakka fikrlash, ham jamoa bo'lib harakat qilishga o'rgatiladi. O'quychiJarda mas'uliyat uyg'ongach, darsga e'tibor ortadi. 52-mashqni bajarish-da pardali xattaxtaga yozilgan jadvalni to'ldirish topshiriladi. Har bir guruh bittadan qatorni to'ldirib izohlaydi.

shaxs, son	birlik	ko'plik
I shaxs	<i>men</i>	<i>biz</i>
II shaxs	<i>sen</i>	<i>siz</i>
III shaxs	<i>u</i>	<i>ular</i>

53-mashqni bajarishda *men, sen* olmoshlariga *-ning, -ni, -ga, -da, -dan, -niki* qo'shimchalarini qo'shib yozish topshiriladi.

Men+ni=meni ($3+2=4$) nega tovushlar miqdori o'zgarayotganini guruh a'zolaridan biri izohlaydi: og'zaki nutqda bitta *n* tushiriladi va bu hoi yozuvda saqlanadi. 54-mashqni bajarishda ham guruhlar uchta komanda sifatida ishtirok etadi. Namuna: *Mening og'am ichinda, soqollari tashinda. Men* olmoshiga *-ning* qaratqich kelishigi qo'shimchasi qo'shilgan, bitta *n* tovushi tushirilib *mening* tarzida yozilgan (*men +ning=mening*). 55-mashqda berilgan she'rdagi olmoshlarningo'rnigaboshqasini almashtirib qo'llaydi. Namuna: *Shu on — bu on. Seni kutayotir ajib kelajak, U sening iqboling, sening baxtingdir. Sen ko'rmagan baxtni kimdir ko'rajak, Sen aytmagan so'zni aytajak kimdir.*

O'qituvchi har uchala guruh to'plagan ballni e'lon qiladi. Jami ball guruh a'zolari o'rtasida ishtirokiga qarab o'zaro bo'linadi. Ball bo'linishida guruh a'zolari fikri e'tiborga ohnadi. Bu bilan o'quvchilarni boshqalarning javobmi ham diqqat bilan eshitishga o'rgatiladi.

56-mashq uyga vazifa sifatida beriladi. O'quvchilarga uyda «**Maktabimizda gullar bayrami**» mavzusida matn tuzib kelish topshiriladi. Matnda kishilik olmoshlari qatnashishi shart.

16-dars

O'ZLIK OLMOSHI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — o'zlik olmoshi haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni kamtarlik ruhida tarbiyalash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarni hozirjavoblikka o'rgatish.

Darsning jihozi: ko'chma taxta, mavjud texnik vositalar. **Darsning rejasi:**

1. O'zlik olmoshi.
2. O'zlik olmoshining ma'nosi.
3. O'zlik olmoshining imlosi.
4. O'zlik olmoshining gapdagi vazifasi.

Dars 1-topshiriqni bajarish bilan boshlanadi. O'quvchilar berilgan gaplarni o'qib, **o'z** so'zining ma'nolarini aniqlaydilar. Namuna: *O'zga* — boshqa, *o'z yurti* — qarashlilik, egalik. *Biz o'z tuprog'imizni sevamiz* (ta'kid). *O'zimga o'zim* (ta'kid), *o'zingni* (ta'kid), *o'zgani* (boshqani ham, ta'kid), *o'zimizniki* (ta'kid). 2-topshiriqni bajarishda o'quvchilar o'zlik olmoshini ng qanday gap bo'lagi vazifasida kelayotganini topishadi. Namur.a: *Biz o'z tuprog'imizni ko'z qorachig'idek asraymiz*. Bu gapda *o'z* so'zi aniqllovchi vazifasida kelgan (*o'zimizning*). So'ng o'quvchilar kishilik olmoshlarini o'zlik olmoshiga bog'lab, birikma hosil qiladilar. Masalan, *mening o'zim*, *sening o'zing*. Ana shu misoliar vositasida nazariy ma'lumot bayon qilinadi. Kishilik olmoshlari bilan qo'llangan o'zlik olmoshi ta'kid ma'nosini ifodalashiga e'tibor qaratiladi. Buning uchun o'quvchilar **«Bilib oling!»** ruknida berilgan qoidani o'qib chiqishadi va yuqoridagi misoliar vositasida o'zlari izohlaydilar. O'qituvchi o'quvchilarning javobini to'ldirib tushuntiradi. Bu bilan o'quvchilar mustaqil xulosa chiqarishga o'rganadilar. Berilgan nazariy ma'lumot asosida chiqarilgan xulosa 57-mashq asosida mustahkamlanadi. Namuna: *Ikromjon xotinini qoldirib, o'zi idora tarafga qarab ketdi*. *O'zi* olmoshi *Ikromjon* so'zining (ega) ma'nosini ta'kidlayapti. O'zlik olmoshini kelishik qo'shimchalari bilan turlash mustaqil ish sifatida beriladi hamda quyidagi jadval asosida imlosi tushuntiriladi.

Namuna:

O'zlik olmoshi	☞	Egalik qo'shimchasi. - <i>im, -ing, -i</i>	☞	Kelishik qo'shimchasi <i>-ning,</i> <i>-ni, -ga, -da, -dan</i>
-------------------	---	--	---	--

58-mashqda o'quvchilar mustaqil gap tuzadilar va kishilik olmoshlari bilan o'zlik olmoshini almashtirib yozadilar.

Namuna: *O'zim kitob o'qidim* — *Men kitob o'qidim*. Iqtidorli o'quvchilardan har ikki gapning farqi so'raladi. *O'zim kitob o'qidim* gapida kitobni o'zi o'qigani (boshqa emas) ta'kidlaydi. *Men kitob o'qidim* gapida oddiy xabar ma'nosi bor, xolos. 59-mashq sharti asosida bajariladi. Namuna: *O'zi - bitta, ko'zi —mingta*.

Uyga vazifa: 60-mashq. Namuna: *O'zim (ega) ham hayronman*.

17-dars

SO'ROQ OLMOSHLARI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — o'quvchilarning so'roq olmoshlari haqidagi bilimlarini rivojlantirish;
- b) tarbiyaviy maqsad — muomala madaniyatini tarbiyalash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarni mustaqil fikrlashga

o'rgatish.

Darsning jihozi: so'roq olmoshlari yozilgan jadval, pardali xattaxta.

Darsning rejasi:

1. So'roq olmoshlari.

2. So'roq olmoshlarining ma'no turlari.

Dars o'quvchilarning xattaxtada ishlashi bilan boshlanadi. 1-toprishiqa berilgan gaplar xattaxtaga yozib qo'yiladi. Dars boshlangach, to'rt o'quvchi xattaxtadagi to'rtta gapdagi so'roq so'zlari o'rniga ularning javobini qo'yishadi. Namuna: *O'rtog'im shaxmat to'garagiga qatnashadi.*

2-topshiriqni iqtidorli o'quvchilar bajarishadi. Bunda so'roq ishtirok etgan gap bilan uning javobi berilgan gapning farqli tomonlari ochib beriladi: gapning maqsadiga ko'ra turi, intonatsiyasi va tinish belgilarning ishlatilishidagi farqi aniqlanadi. Namuna: *O'rtog'im shaxmat to'garagiga qatnashadi.* Darak gap oxiriga nuqta qo'yilgan, ohang gap oxirida pasayadi.

3-topshiriq o'rtancha o'zlashtiruvchi o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, ana shu topshiriq asosida nazariy qoida bayon qilinadi. 61-mashq asosida bayon qilingan nazariy ma'lumot mustahkamlanadi. Bunda quyidagi jadvalni to'ldirish topshiriladi.

So'roq turlari	Oimoshlar
Shaxs so'roqlari	<i>Kim?</i>
Narsa-hodisa so'roqlari	<i>Nima?</i>
Belgi-xususiyat so'roqlari	<i>Qanday?</i>
Miqdor so'roqlari	<i>Qancha?</i>
Sabab so'roqlari	<i>Nima uchun? Nimaga?</i>
Maqsad so'roqlari	<i>Nima maqsadda?</i>
O'rin-joy so'roqlari	<i>Qayer?</i>
Harakat-holat so'roqlari	<i>Nima qildi?</i>

62-mashq o'quvchilarning mustaqil fikrlash va yozma nutqini o'stirishga qaratiladi. 65-mashq grammatik o'yin-musobaqa tarzida bajariladi. Sinf ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh savol beradi, ikkinchi guruh javob beradi. So'ng birinchi guruh javobdan qoniqmasa, uslub yoki mazmuniga oid xato bor bo'lsa, savol beruvchi guruh to'g'rilaydi. Har bir yaxshi savol va javobga ball belgilanadi. So'ng guruhlar o'zni almashinadi. Agar guruhlariga nom berilib sinf taxtasidaball ko'rsatilsa, o'yin qiziqarli va jonli o'tadi. Namuna:

Qaldirg'och	Lochin

Ball qo'yishda savolning va javobning mazmuni hamda vaqt e'tiborga olinadi. Belgilangan vaqt ichida savol bera olmagan yoki javob bera olmagan guruh 0 ochko oladi. Guruhlarga ochko qo'yishda uchta hakam belgilanadi. Hakamlar o'yinni kuzatib boradi. 66-mashq uyga vazifa: so'roq olmoshlarini

ishtirokida «**Saxovatli kuz**» mavzusida matn tuzib kelish.

18-dars

BELGILASH OLMOSHLARI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — belgilash olmoshlari haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarda zukkolik, topqirlik tuyg'usini rivojlantirish.

Darsning jihozi: mavjud texnika vositalari, belgilash olmoshlari yozilgan plakat.

Darsning rejasi:

1. Belgilash olmoshlari.
2. Belgilash olmoshlarining ma'nosi.
3. Belgilash olmoshlarining imlosi.

Dars «**Zakovat**» o'yini tarzida tashkil qilinadi. Sinf o'quvchilari uchta komandaga bo'linadi. Komandalarga avvaldan tayyorlab qo'yilgan konvertlar beriladi. Konvertda 1-topshiriqda berilgan gaplar yozilgan bo'ladi. Konvertdagi topshiriqlarni bajarish uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. Komanda a'zolari maslahatlashgach, bir kishi javob beradi. *Harkim ekanini o'radi. Har so'zi kim so'roq olmoshiga qo'shilib, alohida bir shaxsni ko'rsatyapti. Oldindan tayyorlab qo'yilgan javob kodaskopdan ko'rsatiladi. Eng to'g'ri javob bergan komanda g'olib hisoblanadi. Agar kuchlar teng kelsa, g'olib komandani aniqlash uchun 4-, 5-gaplardan foydalaniladi. Yarim finalda 2-topshiriqda berilgan shartlar asosida kuch sinaladi. Bunda zakovatchilar konvertlarda tayyorlangan topshiriqlarni yuqoridagi usulda bajaradilar.*

O'yinning ikkinchi turi 67-mashqni bajarish bilan boshlanadi. Bunda ham komandalar 3 ta konvertni bittadan tanlab olishadi. Unda berilgan gaplardagi olmoshlarni aniqlab, tagiga chizadi, ustiga gapda qaysi bo'lak vazifasida kelganligini yozadilar, 1 kishi komanda fikrini jamlab javob beradi. Namuna: *Agar u guzardan hassasini do'qqillatib o'tib qolsa, hamma barobar qalqib, to o'tib ketguncha ta'zimda turadi. Hamma* — belgilash ohnoshi. Jamlash ma'nosini bildiriyapti. *U* — kishilik olmoshi. Javob berishda har gal bir kishi javob beryaptimi yoki boshqa komanda a'zosimi? Ball berishda bu narsa e'tiborga olinadi. 68-mashqni har bir guruh a'zosi bajaradi. Boshlovchi (o'qituvchi) o'yin natijalarini e'lon qilish bilan darsni yakunlaydi.

69-mashq uyga vazifa. Tarix yoki adabiyot darshgidan belgilash olmoshlari ishtirok etgan 4 ta gap yozib kelish.

19-dars

GUMON OLMOSHLARI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — gumon olmoshlari haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni milliy an'analar ruhida tarbiyalash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish.

Darsning jihozi: gumon olmoshlari tushirilgan jadval.

Darsning rejasi:

1. Gumon olmoshlari.
2. Gumon olmoshlarining ma'nosi.
3. Gumon olmoshlarining yozilishi.

O'tilgan darsni so'rash:

1. Belgilash olmoshlari deb qanday olmoshlarga aytiladi?
2. Belgilash olmoshlari qanday ma'nolarni anglatadi?
3. Belgilash olmoshlarining yozilishini tushuntiring.

Savollarga javob olingach, daftarlar uy vazifasini tekshirish uchun yig'ishtirib olinadi va tekshirilgan daftarlar tarqatiladi.

Qo'shimcha topshiriqli mustaqil ish.

1. Har bir o'quvchi daftariga so'roq olmoshlarini yozib, ma'-nosini izohlaydi. So'ng ana shu so'roq olmoshlariga alia- va -dir qo'shimchalarini qo'shib qayta yozishadi, hamda ma'nolarini tushuntiradi.

Alla +	<i>kim nima qachon qaysi qancha nechuk qanday</i>	+ -dir
---------------	---	---------------

Iqtidorli o'quvchilar uchun *allaqachon*, *qachondir* so'zlarini ajratadi. Ular har ikki so'zning ma'nosini izohlaydi. (Bu ikki so'zda gumon ma'nosi yo'qligi, *allaqachon* — payt ravishi, *qachondir* — olmoshida gumon ma'nosi emas, so'roq ma'nosi ifodalanadi.) So'ng o'qituvchi yuqoridagi chizma asosida nazariy ma'lumotni bayon qiladi.

70-mashq xattaxtada va daftarda bajariladi. Xattaxtada bajaigan o'quvchi xattaxtaga yozgan gapini daftariga yozishi shart emas. Namuna: *Pochchamdan dasturxonni olib qoqish uchun gilosning yonidan o'tarmanmi, allakim baloga turtinib ketdi.* 71-mashqni bajarishda o'quvchilar gumon olmoshini topib qanday hosil bo'lganini aytib beradilar. Namuna: *Kimdir qarshiso'z aytgan edi, muallim jerkib berdi.* *Kimdir* — *kim* so'roq olmoshiga *-dir* qo'shimchasi qo'shib hosil qilingan. 72-mashq mustaqil bajariladi. 73-mashq uyga vazifa qilib beriladi. O'quvchilar bu mashqni yozib, olmosh va olmosb o'rnida qo'llangan so'zlarning tagiga chizadilar (*hamma, har kirn, bir narsa, shunga, u, o'z, bir, bu, men, sen, biz, haligi*).

20-dars

BO'LISHSIZLIK OLMOSHLARI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad - bo'lishsizlik olmoshlari haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad — do'stlikni qadrlash tuyg'ularini tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad — so'zlarga izoh berish malakasini hosil qilish.

Darsning jihozi: mavjud texnika vositalari, plakat.

Darsning rejasi:

1. Bo'lishsizlik olmoshlari.
2. Bo'lishsizlik olmoshlarining imlosi.
3. Mashqlar bajarish.

O'qituvchi kodaskopda 1-topshiriqda berilgan gaplarni ko'rsatib, ajratilgan so'zlarning ma'nosini so'raydi. So'ng gapning kesimi tasdiq yoki inkor shaklida kelayotganini topish buyuriladi. O'quvchilar hech so'zini qaysi so'zlar bilan birikib kelayotganini aniqlaydilar. O'qituvchi o'quvchilarning fikrini to'ldirib, jadval asosida nazariy ma'lumotni bayon qiladi. Namuna:

Hech +	<i>kim nima qachon qaysi qancha bir qanday narsa qanaqa</i>
---------------	---

74-mashq o'quvchilarning bo'lishsizlik olmoshlari haqidagi tushunchasini mustahkamlash uchun berilgan bo'lib, o'quvchilar gaplarni ko'chirib yozadilar va bo'lishsizlik olmoshlarining tagiga chizadilar. Namuna: *Hech kimni shafe keltirmay turing, hali.* 75-mashqni bajarishda hech kim, hech narsa olmoshlariga egalik qo'shimchalarini qo'shib gap tuzadilar hamda gapning tasdiq yoki inkor ma'nosini ifodalayotganini topadilar. Namuna: *Uning hech kimi kelmadi.* Bu gapda inkor ma'nosi ifodalangan. 76-mashqni bajarishda o'quvchilar *hech nima* olmoshini kelishik qo'shimchalari bilan turlab, so'ng ikkita gap tuzadi. Namuna: — *Hech nimani unutmadingiarmi?* — *dedi o'qituvchi.* 77-mashq o'quvchilarniolmosh so'z turkumi bo'yicha o'tilgan mavzularni mustahkamlash uchun tanlangan. Bu mashq uyga vazifa qilib beriladi.

21-dars

OLMOSH O'RNIDA QO'LLANILADIGAN SO'ZLAR

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad— olmosh o'rnida qo'llaniladigan so'zlar haqida ma'lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni kamtarlik ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad — nutq madaniyatini puxta egallashga yo'llash.

Darsning jihozi: jadval, ko'chma xattaxta.

Darsning rejasi:

1. Olmosh o'rnida qo'llanadigan so'zlar.
2. Olmosh o'rnida boshqa so'z qo'llanadigan gaplarning kesimi.

Yangi mavzuni bayon qilish 1-topshiriqni bajarish bilan boshlanadi. Buning uchun o'quvchilar *kamina*, *faqir*, *bandayi ojiz* so'zlarini topadi hamda bu so'zlarni *men* kishilik olmoshlari o'rnida qo'llanganligini aytadilar. Iqtidorli o'quvchilar berilgan so'zlar o'rniga *men* olmoshini qo'yib, gaplarni qayta tuzishadi. Namuna: *Faqir sizning xizmatigingizga bel bog'lagan — Men sizning xizmatigingizga bel bog'laganman*. Gaplarni qayta tuzgach, kesimini topib, tagiga chizadilar va ustiga shaxsini yozib qo'yadi. O'qituvchi shunga asoslanib, darslikdagi nazariy materialni bayon qiladi.

faqir					
kamina				janoblari	siz
Bandai ojiz	☞	men		zoti oliylari	☞ u
qulingiz					

78-mashq og'zaki bajariladi. Bunda o'quvchilar kishilik olmoshlari qanday ma'no ifodalayotganini izohlaydi. Namuna: Faqir hozir taxmin qildimki, Movarounnahrda ko'chki bosgan buloq balki shu yerga kelib qayta ko'z ochgandir? Faqir so'zi men olmoshi o'roida qo'lianilib kamtarlik, kamsuqumlik ma'no-larini ifodalayapti.

Uyga vazifa: «**Mustagillik yillarida ona tilimiz rivoji**» mavzu-sida matn tuzing. Matnda olmosh o'rnida qo'llaniladigan so'zlardan foydalaning.

22-dars

OLMOSHIARNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — olmoshlarning tuzilishi haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad — tarixga muhabbat ruhida tarbiyalash; d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarni voqealarni tahlil qilishga o'rgatish.

Darsning jihozi: ohnoshlarni tuzilishiga ko'ra turlari tushirilgan jadval.

Darsning rejasi:

1. Sodda olmoshlar.
2. Qo'shma olmoshlar.
3. Juft olmoshlar.
4. Takroriy olmoshlar.

1-topshiriqda berilgan gaplarni o'qib, ohnoshlar topiladi. Namuna: *1. Men undan so'radim: Mehringni qo'yib, bunchaiar saralab gul terding kimga?* O'quvchilar ohnoshlarni topib, turini aytib beradi. So'ng o'qituvchi sodda olmoshlar bir asosdan, qo'shma olmoshlar ikki asosdan iborat bo'lishini, juft olmoshlar bir-biriga yaqin bo'lgan olmoshlar birikuvidan, takroriy olmoshlar esa bir olmoshning aynan yoki ayrim tovush o'zgarishi bilan takrorla-nishidan tashkil topishini aytadi.

Yangi mavzuni mustahkamlashda 81-mashq yozma bajariladi. O'quvchilar mashqni ko'chirib, olmoshlarning tagiga chizadilar va tepasiga uning tuzilishiga

ko'ra turlarini yozib qo'yishadi.

Namuna: *Shu-shu (takroriy) Otaqo'zi ochilib ketib o'rinli-o'rinsiz gaplarni ko'p gapirib yuboradi. Mana bu (qo'shma) manzarani qaranglar, qizlar, — dedi Manzura. Ishlab u-bu (juft) orttirish niyatim ham yo'q.*

82-mashq olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turini farqlash qobiliyatini rivojlantirishga mo'ljallangan bo'lib, bu mashqni bajarishda ular berilgan jadvalni to'ldiradilar.

Namuna:

Sodda olmoshlar	Qo'shma olmoshlar	Juft olmoshlar	Takroriy olmoshlar
<i>Men, u, kirn, qanday, kimdir, ega, qandaydir</i>	<i>Mana shu, hech kim, har bir, hech nima, ana shu</i>	<i>U-bu, siz-biz, sen-men</i>	<i>O'sha-o'sha, shu-shu</i>

83-mashq o'quvchilarning olmoshning tuzilishiga ko'ra turlarini gapda qo'llay bilish malakasini shakllantirishga mo'ljallangan. Bu mashqni bajarishda o'quvchilar berilgan olmoshlarni qatnashtirib gap tuzadilar. 84-mashqni bajarish uchun sinf to'it guruhga bo'linadi. Eng to'g'ri va mazmunli gap tuzgan guruh g'olib deb topiladi, qolgan guruhlarga ham o'rin berilganadi.

85-mashq. Uyga vazifa: “**Obodlik ko'gildan boshlanadi**” mavzu-sida matn tuzib, matnda qo'llangan qo'shma olmoshlarning tagiga chizib kelish topshiriladi.

23-dars

SODDA, QO'SHMA OLMOSHLAR VA ULARNING IMLOSI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — sodda va qo'shma olmoshlar haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarda milliy qadriyatlarga muhabbat tuyg'usini shakllantirish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — fikrni ixcham va ravon bayon qilish malakasini rivojlantirish.

Darsning jihozi: saylanma diktant. Olmoshlar imlosi yozilgan ko'rgazma.

Darsning rejasi:

1. Sodda olmoshlar va ularning imlosi.
2. Qo'shma olmoshlar va ularning imlosi.

Dars uyga berilgan vazifani o'qitib tekshirishdan boshlanadi. So'ng 1-topshiriq bajariladi. Berilgan gaplardan olmoshlar topiladi. Namuna: *Ulug' odam hech vaqt yolg'iz qolmaydi. Taqdir uni qanchalar do'stiaridan ayirmasin, oxir-oqibatda u yana o'ziga do'st topib ola beradi.* Olmoshlar: *hech, uni, u, o'ziga.* So'ng o'quvchilarning sodda va qo'shma olmoshlarni farqlay olish malakasi aniqlanadi. O'qituvchi sodda olmoshlar haqida nazariy ma'lumotni bayon qiladi: sodda olmoshlar bir asosdan iborat bo'ladi va ular ikkiga bo'linadi: sodda tub, sodda yasama bo'ladi. *Kim* olmoshi sodda tub olmosh hisoblanadi. *Kimdir* olmoshi sodda yasama sanaladi. Sodda yasama olmoshlar qo'shib yoziladi. Misol: *kimdir, hech kim, allaqanday* kabi.

Qo'shma olmoshlar ikki asosdan tashkil topadi va bunday olmoshlar ajratib yoziladi: *Hech kirn, ana shu* kabi. 86-mashqni

bajarish orqali o'quvchilarda sodda va qo'shma olmoshlar o'rtasidagi farqni yaxshi ajratish malakasi oshadi hamda bu olmoshlar imlosi haqidagi bilimlari mustahkamlanadi. Sodda olmoshlar: *meni, o'zi, ana*; qo'shma olmoshlar: *hech narsa, har bir (o'sha yerda so'zi qo'shma ravish)*. 88-mashq o'quvchilarning qo'shma olmoshlar hosil qilish va ularni gapda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga mo'ljallangan. O'quvchilar *hech, har, mana, ana* so'zlari yordamida qo'shma olmoshlar hosil qiladilar va ular ishtirokida gap tuzadilar. Namuna: *Haqiqat hech qachon sinmaydi*.

Uyga vazifa. 89-mashqni bajarish uyga vazifa qilib beriladi. O'quvchilar uyda *-dir* qo'shimchasi yordamida gumon ohnoshi hosil qilib, ular ishtirokida gap tuzadilar. Namuna: *Kimdir eshikni qattiq taqillatdi*.

24-dars

JUFT VA TAKRORIY OLMOSHLAR HAMDA ULARNING IMLOSI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — juft va takroriy olmoshlar hamda ularning imlosi haqidagi malakalarini rivojlantirish;
- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni dehqonchilikka mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — savodxonlikni o'stirish.

Darsning jihozi: mavjud texnika vositalari, tarqatma materiallar. Darsning rejasi:

1. Juft olmoshlar va ularning imlosi.
2. Takroriy olmoshlar va ularning imlosi.

Dars uyga berilgan 89-mashqni o'qitib tekshirishdan boshlanadi. So'ng 1-topshiriq bajariladi. Berilgan gaplardan olmoshlar aniqlanadi. Namuna: O'sha voqealarni eslasam, o'zimdan-o'zim xursand bo'lib ketaman. 2-topshiriqni bajarishda o'quvchilar olmoshlarning tarkibini aniqlaydi. *O'z + bilarmon, o'z + boshimcha* olmoshlarining tarkibi izohlanadi. So'ng o'qituvchi «Bilib oling!» ruknida berilgan nazariy ma'lumotni bayon qiladi. Bunda takroriy olmoshlar chiziqcha bilan yozilishiga, agar ular yuklamalar yordamida birikkan bo'lsa, chiziqcha tushirilib yozilishiga (*siz-u biz*) e'tiborni qaratadi. So'ng sinf ikki guruhga bo'linadi. 90-mashqni bajarishda 1-guruh takroriy olmoshlarni, 2-guruh juft olmoshlarni ko'chirib yozadi. Olmosh-larning tagiga chizib, yozilishini izohlaydilar.

92-mashq mustaqil ish sifatida bajariladi. O'quvchilar *o'z-boshimcha, o'zbilarmon, o'ziga kelmoq, o'zidan ketmoq, manman* kabi so'z va so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzishadi. So'ng o'qituvchi *o'zboshimcha, o'zbilarmon, manman, sensirama (nima qilmoq)* so'zlari qanday so'roqqa javob bo'lishini so'ragach, olmoshlar boshqa so'zlarning yasalishi uchun asos bo'lishi mumkinligi tushuntiriladi.

Uyga vazifa: 93-mashq. «**Mustaqil O'zbekiston ramzlari haqida o'ylar**» mavzusida matn tuzish.

25-dars

MUSTAHKAMLASH

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — olmosh yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash;
- b) tarbiyaviy maqsad - kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilishga o'rgatish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad - o'quvchilarning savodxonligini o'stirish.

Darsning jihozi: olmoshlar imlosi yozilgan ko'rgazma, mavjud texnik vositalar.

Darsning rejasi:

- 1. Mashqlar ishlash.
- 2. 4-, 6-topshiriqdagi matnlar ustida bahs-munozara o'tkazish.

O'quvchilar darslikda berilgan savollarga javob beradilar.

1-topshiriqni bajarishda o'quvchilar olmoshlarni topib ma'no guruhlariga ajratadilar. 2-topshiriq o'quvchilarning olmoshlarni nutqda qo'llay olish malakasini mustahkamlash uchun tanlangan. Bu topshiriqni bajarishda olmoshlarga egalik va kelishik qo'shimchalarini qo'shib ko'chiradilar va ularni izohlab beradilar. 2-topshiriq egalik qo'shimchalari qo'shilganda bo'ladigan tovush o'zgarishlari haqidagi bilimlarini mustahkamlash uchun tanlangan bo'lib, o'quvchilar berilgan gaplardagi tovush o'zgarishi bo'lgan so'zlarni izohlaydilar. 3-topshiriqni bajarishda grammatik o'yin tarzda bajariladi.

4-topshiriq uyda bajariladi. Matn tuzib, unda ishlatilgan olmoshlarni izohlab kelish topshiriladi.

26-dars**NAZORAT DIKTANTI****Darsning maqsadi:**

- a) ihniy maqsad — o'quvchilar bilimini sinash;
- b) tarbiyaviy maqsad - o'quvchilarga estetik tarbiya berish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad - o'quvchilarning savodxonligini o'stirish.

Darsning jihozi: diktant matni.

Darsning rejasi:

- 1. Diktant matni bilan tanishtirish.
- 2. Matn yuzasidan suhbat.
- 3. Diktant yozdirish.

QARZDORLIK HISSI

Bundan o'n ikki yil avval, mana shunday bahor kunlarida Chilonzor Oqtepasiga yaqin, Anhor yoqasida joylashgan yovvoyi bog'dagi xaroba kulbalarning birida ijarada turardim. Yoshligimning eng baxtiyor va go'zal kunlari shu bog'da o'tgani sababli, hali-hanuz yoz kelganda yerga to'kilib anqigan o'riklar hidi tutgan, kuzda ta'riflab bo'lmas ranglarga bo'yaladigan, qishda butun atrofni sukunat quchgan tashlandiq bog'da hukm surgan yolg'izlik adashgan ruhimga yo'l topib berdi, dardsiz ko'nglimga dard ato qildi.

Tungi daraxtlar bilan kechgan suhbatlar, jar tubida jildiragan ariqchaning siniq qo'shiqlari, kekse anhor rivoyatlari, kuzak yomg'irlarining tomdan sizib o'tib, kulba devorlarida qoldirgan izlaridagi iztirob, qish qorlaridagi ruhni sokinlikka chulg'aguvchi abadiyat kayfiyati — bularning barchasi uchun «bog'» degan juda qisqa so'z bilan atalgan mo'jiza qoshida boshimni egib, undan bir umr

qarzdorligimni tan olaman. (Xurshid Davron)

27-dars

DIKTANT TAHLILI

Darsning jihozi: diktant matni, kodaskop.

Darsning rejasi:

1. Imlo xato turlarini guruhlash.
2. Imloviy xatolar ustida ishlash.
3. Shakliy xatolar ustida ishlash.

Dastlab, o'quvchilarning imlo xatolarini guruhlab chiqadi.

- a) so'zlarning yozilishiga oid xatolar;
- b) qo'shimchalarning yozilishiga oid xatolar.
- d) tinish belgilariga oid xatolar.

Bu xatolarni izohlab, tegishli qoidalarni eslatadi. To'g'ri yozish uchun til qoidalarini yaxshi bilish va amalda qo'llay olish usullari haqida to'xtaladi. Xatolarga oid misollar yozdiriladi. Eng ko'p xato qilingan so'zlarni o'quvchilarga sinf taxtasiga aytib yozdiradi. Bu usul yodda saqlash imkoniyatini oshiradi. So'ng ishoraviy xatolar guruhlanadi. Bunda nuqta, vergul, so'roq va undov belgilariga oid xatolar ustida ishlanadi.

Uchinchi bo'lib grafik xatolar, ya'ni harflarni to'g'ri yozish haqida to'xtalib o'tiladi.

Lug'at diktant.

Ana shu, mana bu, manavi, unga, shundan, hamma, barcha, ban, butun, har qaysi, har bir, allaqachon, allaqayer, hech kim, hech narsa, an&vi, har xil, barcha, nimadir, kimdir, har nima, ana, mana, men, biz, siz, o'zimiz, o'sha, o'zi, bu, shu.

Olmoshlar aytib yozdirilgach, kodaskop orqali olmoshlarning yozilishi ko'rsatiladi. O'quvchilar o'z xatolarini tuzatadi. Shundan keyin olmoshlarni jadvalning tegishli katagiga joylash talab etiladi.

T/b	olmosh turlari	misollar
1	Kishilik olmoshlari	
2	O'zlik olmoshi	
3	Ko'rsatish olmoshi	
4	So'roq olmoshi	
5	Belgilash olmoshi	
6	Bo'lishsizlik olmoshi	
7	Gumon olmoshi	

28-dars

ISMLARNING MUNOSABAT SHAKLLARI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad— ismlarning munosabat shakllari haqida ma'lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni tarixga muhabbat ruhida tarbiyalash;

44

d) rivojlantiruvchi maqsad — qiyoslab xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirish.

Darsiung jihozi: mayjud texnika vositasi, ismlarning bo'linishi tushirilgan jadval.

Darsning rejasi:

1. Qadimgi Hindiston va arablarda so'zlarning guruhlarga ajratilishi.
2. Qadimgi Yunoniston va ruslarda so'zlarning guruhlarga ajratilishi.
3. Bizning ajdodlarimiz tomonidan so'zlarning guruhlarga ajratilishi.

Dars 1-topshiriqda berilgan matnni o'qish bilan boshlanadi. Kodaskop yordamida xattaxtada matn ko'rsatiladi. Bir o'quvchi ifodali o'qiydi. So'ng quyidagi savollarga javob olinadi:

1. Qadimda so'zlar qanday guruhlarga bo'lingan?
2. Rus tilshunoslari so'zlarni qanday guruhlarga bo'lgan?
3. Ismlar deyilganda qaysi so'z turkumlari tushuniladi?
4. Ismlarning o'ziga xos xususiyatlari nima?

Savollarga javob olingach, o'qituvchijavoblarniumumlashtiradi. So'ng 94-mashq bajariladi. Burring uchun dastlab jadval chiziladi va berilgan matndagi so'zlar kerakli xonalarga joylashtiriladi.

Namuna:

Narsaning nomi	Belgining nomi	Miqdorning nomi	Nomlar almashinib so'zlar	o'rnida keluvchi
xona, karavot, yoshlar, ayol, rangi, qoshlari	yorug', keng, oz, oqarinqiragan	biri, qirq bir	unga	

95-mashqni bajarishdan oldin o'quvchilarga avvalgi sinfda o'tilganlar bir qator eslatiladi. Bunda asosiy e'tibor egalik, kelishik shakllariga qaratiladi, so'ng 95-mashq bajariladi. O'quvchilar egalik va kelishik qo'shimchalarini topib, bu qo'shimchalar qanday so'zlarga qo'shilib kelayotganini aniqlashadi: Namuna: *osmonni* — bu so'zda *-i* 3-shaxs egalik qo'shimchasi hamda *-ni* tushum kelishigi qo'shimchasi mayjud bo'lib, narsaning nomini bildirib kelgan so'zga qo'shilib kelgan.

Uyga vazifa: 96-mashqda berilgan so'zlar so'z ekanini izohlaydilar.

Namuna: *Rasulullohdan* — bu so'z shaxsni bildirib, chiqish kelishigida qo'llangan.

29-dars

ISMLARNING LUG'AVIY VA MUNOSABAT SHAKLLARI

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — ismlarning lug'aviy va munosabat shakllari yuzasidan olgan bilimlarini rivojlantirish;

b) tarbiyaviy maqsad — Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish.

Darsning jihozi: ismlarning munosabat shakllari tushirilgan jadval.

Darsning rejasi:

1. Ismlarning lug'aviy shakli.
2. Ismlarning munosabat shakllari.

Dars so'zlarning lug'aviy va munosabat shakllari haqida 6-sinfda o'tilganlarni eslash bilan boshlanadi.

2-topshiriqda berilgan birikma va gaplardagi nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan qo'shimchalardan mosini qo'yib ko'chiriladi. Namuna: daftarning, varag'i kabi. So'ng o'quvchilar nuqtalar o'rniga qo'yilgan qo'shimchalar qanday vazifa bajarayotganini aniqlaydilar. Namuna: daftarning varag'i (daftar va varaq so'zlaridagi -ning, -i qo'shimchalari har ikki so'zni bog'lab so'z bi-rikmasini shakllantirmoqda). So'ng o'quvchilarga quyidagi jadval asosida nazariy ma'lumot beriladi.

egalik shakllari	kelishik shakllari	bog'lamalar
-i, (im)	-ning	-man, -san, -dir
-ng (-ing)	-ni	bo'moq, hisoblamoq, sanalmoq
-i (-si)	-ga, -ka, -qa, -ga	
-miz (-imiz)	-da	
-lari	-dan	

97-mashq mavzuni mustahkamlash uchun berilgan boiib, bu mashqda berilgan gaplarni ko'chirib, munosabat shakllarining ostiga chiziladi. Namuna: Jon do'sting jonidan kechsa ham, mol do'sting molidan kechmas. 99-mashq ham o'quvchilarning ismlarning munosabat shakllarini nutqda qo'llash malakasini o'stirish uchun mo'ljallangan bo'lib, nuqtalar o'rniga mos munosabat shakllari qo'yib ko'chiriladi. Namuna: Ra'noning koptogi.

Uyga vazifa: 100-mashq. Uyda «**Bog'da**» sarlavhali matn tuzish.

30-dars

EGALIK SHAKLLARI VA ULARNING IMLOSI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — egalik shakllari haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad — halollik, vijdonlilik tuyg'ularini tarbiyalash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarning savodxonligini o'stirish.

Darsning jihozi: jadval, mavjud texnik vositalar.

Darsning rejasi:

1. Egalik qo'shimchalari.
2. Egalik qo'shimchalarining imlosi.

Dars quyidagi jadvalda berilgan topshiriqni bajarish bilan boshlanadi.

men...

biz...

sen...	kitob...	siz...	kitob...
u...		ular...	

Berilgan jadvaldagi nuqtalar o'rniga mos qo'shimchalarni qo'shib birikma hosil qilinadi. So'ng o'quvchilar nima uchun yuqoridagi qo'shimchani qo'shganini izohlaydilar. Namuna; *Mening kitobim* (bu birikmada tobe qismga kelishik, hokim qismga egalik qo'shimchasi qo'shilgan). So'ng o'qituvchi jadvalda berilgan egalik qo'shimchalari asosida nazariy ma'lumotni bayon qiladi.

Unli bilan tugagan so'zlarga *-m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -lari* qo'shimchalari, undosh bilan tugagan so'zlarga *-im, -ing, -i; -imiz, -ingiz, -lari* qo'shimchalari qo'shilishi aytiladi va mustahkamlash uchun 101-mashqbajariladi. Namuna: onam, onang, onasi. 102-mashq kim to'g'ri izohlash bo'yicha o'yin o'tkaziladi. Buning uchun sinf o'quvchilari 3 ta guruhga bo'linadi. Har bir guruhga mashqda berilgan ikkita birikma beriladi. Guruh a'zolari «**Esda saqlang!**» ruknida berilgan qoidani o'qib, birikruani qanday izohlash kerakligini aniqlaydi va 1 ta vakil taxtaga birikmani yozib, izohlab beradi. Eng sodda, aniq, tushunarli izohlagan guruh g'olib sanaladi.

Namuna: **Toshkent shahri, viloyat, shahar, tuman, korxona, muassasa nomlarida egalik qo'shimchasi III shaxsga qarashlilikni bildirmaydi, balki xoslik, umundan ajralganlikni ifodalaydi.** Bunday birikmalarda *-ning* qaratqich kelishigi qo'shimchasi tushuriladi. 103-mashq ham shu o'yinning davomi sifatida bajariladi. Namuna: *Kechasi ishlaydi, kunduzi uxlaydi. Kechasi so'zidagi -si* egalik qo'shimchasi vazifasini yo'qotgan, shuning uchun qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan bog'lanmaydi. Agar birinchi o'quvchifiing javobidan jamoadoshlari qoniqmasa, ulardan bin javobni to'ldiradi. Boshqa guruh vakili to'ldirsa, to'ldiigan guruhga javobni tayyorlagan guruh balidan olib beriladi. 104-mashq ham haf bir guruhga 2 tadan boiib beriladi. Guruh a'zolari yozib bo'lgach, izohlab beradilar. Namuna: *Enabuvining xayoli allaqayoqlarga borib keldi.* 105-mashqda berilgan misollar kabi birikmalar topish hamda birikmalardagi egahk qo'shim-chalarining vazifasini izohlash talab etiladi.

Namuna: *Farg'ona viloyati, O'zbekiston Respublikasi, Mustaqillik maydoni.* Bu birikmalarda *-i* egalik qo'shimchasi qarashlilik ma'nosini emas, xoslik, umundan ajralganlik ma'nosini bildiriyapti. O'qituvchi o'quvchilarning izohini to'ldirib, darsni yakunlaydi. 106-mashq uyga vazifa sifatida beriladi. Namuna: *Olmanihg ikki pallasidek yarashgansizlar.*

31-dars

SIFATDOSH VA HARAKAT NOMLARIDAGI EGALIK QO'SHIMCHALARINING VAZIFASI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — sifatdosh va harakat nomlariga qo'shilgan egalik qo'shimchalarining vazifasi haqida;
- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarni jamoa bo'lib harakat qilish ruhida tarbiyalash.

Darsning jihozi: mavjud texnik vositalar.

Darsning rejasi:

1. Sifatdosh va harakat nomlari tarkibidagi egalik qo'shimchalarining vazifasi.
2. Egalik qo'shimchalarining imlosi.

Dars uyga vazifa sifatida berilgan 106-mashqni o'qitib tekshirish bilan boshlanadi. Bu usul orqali o'tgan mavzu eslanadi va yangi mavzuga bog'lab, davom ettiriladi. O'quvchilar 1-topshiriqni mustaqil bajaradilar. Namuna: *Bilganing naf keltirar*. So'ng o'quvchilar hosil bo'lgan gaplarni avvalgisiga qiyoslab, qanday o'zgarish bo'lganligini izohlaydilar. Bundan hosil bo'lgan gaplar aytish uchun qulayligi, xotirada qolishi bilan ajralib turishi aniq bo'ladi.

107-mashqni mustaqil yozishadi. Egalik qo'shimchalarining tagiga chizib, vazifasini tushuntirib berishadi. Namuna: *Bo'zchi bilganin to'qir, baxshi bilganin o'qir*. Bilgan sifatdoshidagi *-i* egalik qo'shimchasi sifatdoshning shaxs va sonini ko'rsatish uchun xizmat qilgan, shuning uchun qaratqich kelishigi qo'shimchasi ishlatilmagan. 108-mashqvositasida mavzu mustahkamlanadi. Bunda sifatdosh va harakat nomlariga qo'shilgan egalik qo'shimchalari shaxs va sonni ko'rsatgani uchun qaratqich kelishigini olgan shaxs bildiruvchi so'zning qo'llanishiga ehtiyoj yo'qligiga e'tibor qaratiladi. 109-mashqdan o'quvchilar egalik qo'shimchalarining vazifasini, nutqni ixcham, sodda qilishdagi o'rnini gaplarni qiyoslash orqali tushunadi. Namuna: — *Ko'raman kirmaganingni*, — *dedi Bo'taboy otlanayotib*. — *Ko'raman sening kirmaganingni*, — *dedi Bo'taboy otlanayotib*.

110-mashq uyga vazifa qilib beriladi. «**Mustaqillik yo'lida fido bo'lgan bobolarim**» mavzusida matn tuzish. Egalik qo'shimchalarining tagiga chizish.

32-dars

EGALIK QO'SHIMCHALI SO'ZLARNING IMLOSI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — egalik qo'shimchalarining imlosi haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad — milliy an'ana va qadriyatlar ruhini singdirish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarning savodxonligini o'stirish.

Darsning jihozi: egalik qo'shimchalari tushirilgan plakat, mavjud texnik vositalar.

Darsning rejasi:

1. Egalik qo'shimchali so'zlar imlosi.
2. Mashqlar ishlash.

O'quvchilar uyda yozib kelgan egalik qo'shimchalarini olgan sifatdosh va harakat nomi qatnashgan gaplarni o'qib, egalik qo'shimchalarining ma'nosini izohlab beradilar. Shundan so'ng 1-topshiriq bajariladi.

Yurak, bilak, idrok, qishloq ➞ **-im -ing -i** (yuragim, bilagim, idroki, qishlog'i)

O'quvchilar egalik qo'shimchalari qo'shilgandan so'ng asos qismida qanday o'zgarish bo'lganini topadilar. Shundan so'ng qoida bilan tanishadilar. Yuqoridagi berilgan so'zlardagi o'zgarishni qoida asosida izohlab beradilar. O'quvchilar har

ikki topshiriqni bajarishib bo'lgach, 111-mashqqa e'tibor qaratiladi. Berilgan so'zlarga egalik qo'shimchasini qo'shib asos qismda bo'lgan o'zgarishlarni tushuntirib beradilar. Namuna: *Ko'zoynagim* — *ko'zoynak* so'ziga *-im* egalik qo'shimchasi qo'shilgani uchun so'z oxiridagi **k** tovushi **g** tovushi bilan almashadi. 112-mashqni bajarishda ayrim ikkinchi bo'g'inida **i** unlisi ishtirok etgan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi **i** unlisi tushib qolishi haqidagi qoidani mustahkamlash uchun tanlangan bo'lib, berilgan so'zlarga 2-shaxs birlikdagi egalik qo'shimchalarini qo'yib ko'chirish va asosda bo'lgan tovush o'zgarishiga diqqat qilish so'raladi. Namuna: *Ko'ngil-ko'nglim*, *og'iz-og'zim*, *bo'yin-bo'ynim*, *qo'yin-qo'yni*. 113-mashq asosida o'quvchilarning olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llay olish malakasi mustahkamlanadi. Namuna: *Og'ziga kelgan gapni aytaverish ahmoqning ishidir*. 114-mashqni bajarish uyga vazifa sifatida beriladi. O'quvchilar so'zlarga egalik qo'shimchalarini qo'shib, gap tuzib keladilar. Namuna: *O'z xalqini unutmaganing kelajagi yo'q*.

33-dars

MUSTAHKAMLASH DARS

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — ismlarning munosabat shakllari haqida olgan bilimlarni mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad — kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilishga o'rgatish;

d) rivojlantiruvchi maqsad - o'quvchilarning savodxonligini o'stirish.

Darsning jihozi: ismlarning munosabat shakllari yozilgan ko'rgazma, mavjud texnik vositalar.

Darsning rejasi:

1. Egalik qoshimchali so'zlar yuzasidan mashqlar ishlash.
2. 4-, 6-topshiriqdagi matnlar ustida bahs-munozara o'tkazish.

O'quvchilar darslikda berilgan savollarga javob beradilar. O'quvchilar uyda yozib kelgan gaplarini o'qib, egalik qo'shimchalarining ma'nosi hamda imlosini izohlab beradilar:

1. Egalik qo'shimchalari deb nimaga aytiladi?
2. Nima uchun ular birlik va ko'plikda ishlatiladi?
3. Egalik qo'shimchalari otlarga qay taxlitda qo'shiladi?
4. Qo'sh, uka, singil so'zlariga egalik qo'shimchalarini qo'shing.

1-topshiriq o'quvchilarning egalik qo'shimchalarining shaxs va sonda to'g'ri qo'llay olish malakasini mustahkamlash uchun tanlangan. Bu topshiriqni bajarishda qavs ichidagi qo'shimchalardan mosini qo'yib ko'chiriladi va ularni izohlab beradilar. 2-topshiriq egalik qo'shimchalari qo'shilganda bo'ladigan tovush o'zgarishlari haqidagi bilimlarini mustahkamlash uchun tanlangan bo'lib, o'quvchilar berilgan gaplardagi tovush o'zgarishi bo'lgan so'zlarni izohlaydilar (*og'iz-og'zi*). Uyga vazifa. 3-topshiriq o'quvchilarning yozma nutq malakasini hamda ijodiy fikrlashini o'stirish uchun tanlangan bo'lib, o'quvchilar «**Kuch birlikda**» mavzusida matn yozadilar va unda ishlatilgan egalik qo'shimchalarini izohlab beradilar.

34-dars

KELISHIK SHAKLLARI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad - kelishik qo'shimchalari haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad - o'quvchilarni to'g'ri so'zlashga o'rgatish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad - ongli o'qish tushunchasini singdirish.

Darsning jihozi: rasmlı plakat, tarqatma materiallar.

Darsning rejasi:

1. Kelishik qo'shimchalari.
2. Kelishik qo'shimchalarining vazifalari. Darsning borishi:

O'quvchilar diqqati sarlavhaga qaratiladi.

Darslikdagi birinchi topshiriqni o'quvchilar o'zlari erkin bajara oladilar, nuqtalar o'rniga qavs ichidagi qo'shimchalardan mosini qo'yadilar. *Har o'g'loni bul Vatanning sultonlarga teng bo'lsin.* Ikkinchi topshiriqni bajarishda gapdagi -ning, -ga qo'shimchalari orqali so'zni so'zga bog'lash uchun munosabat yuzaga chiqqanligi tushuntiriladi.

3- topshiriqda *Vatani* so'zi qaysi so'zga, *sultonlarga* so'zi qaysi so'zga bog'langani so'ralgan, shu so'zlar qanday so'roqlarga javob bo'lishini aniqlash topshirilgan. Vatan ismlarni boshqa so'zlarga tobelantirish uchun -ning, -ga qo'llanganligi o'quvchilarga uqtirilishi lozim. Ismlarning so'roq olishi ismlarning grammatik xususiyatidir.

Ismlarga kelishik qo'shimchalari qo'shib, otga, sifatga, songa, fe'lga, ravishga tobelantirish uchun xizmat qilayotganligini tushuntirish.

Qoidadan kelishik qo'shimchasini olgan so'z doimo tobe so'z, birikmaning oxirgi so'zi hokim so'z deyilishi uqtiriladi.

116-mashqni bajarishda egalik, kelishik qo'shimchalarini turlovchi qo'shimchalar deb nomlanishiga e'tibor beriladi.

117-mashq. Namuna: *Barmog'idan chiqardi, noxunni chiqardi, Hovlida yo'q, shabada bilan o'ynashgan, daraxtlarning kuyi. Sado yo'q.* 118-mashqni mustaqil bajaradilar. 120-mashq uyga vazifa.

35-dars

BOSH KELISHIK SHAKLI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — o'quvchilarga bosh kelishik shaklini singdirish;
- b) tarbiyaviy maqsad - o'quvchilarni darslik va badiiy asarlarni asrab-avaylashga o'rgatish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — gaplarda bosh kelishik shaklini qo'llash malakalarini o'stirish.

Darsning jihozi: Amur Temur, Ulug'bek portreti, plakat. **Darsning rejasi:**

1. Bosh kelishik haqida ma'lumot.
2. Bosh kelishikdagi so'zlarning qo'llanishi.

Darsning borishi:

Uy vazifasida (120-mashq) matn mazmuniiga e'tibor berish ko'zda tutilgan. 1-topshiriq asosida «*Anvar, qorni och bo'lsa kerak, dasturxonni Muhayyoning qo'lidan blib, uni buzuv avtobusga boshladi*» gapi tahlil qilinadi. Bu gap ikki gapdan iborat: 1. *Anvar dasturxonni Muhayyoning qo'lidan olib, uni buzuv avtobusga boshladi*. 2. *Qorni och bo'lsa kerak*. Gaplardagi *Anvar* va *qorni* so'zlari bosh kelishikda bo'lib, ega vazifasini bajarayotgani bayon qilinadi. Demak, bosh kelishikdagi so'zlar kesimga bog'lansa, gapdagi vazifasi ega bo'lishi uqtiriladi.

Bilan ko'makchisi oldida kelgan bosh kelishikdagi *ijozati* so'zi ega bo'lmay, to'ldiruvchiga aylanishi tushuntiriladi. Bosh kelishikdagi so'z boshqa so'zga ko'makchilar (*bilan, sari, sayin, chog'li, uzra, bo'yicha, ichra, holda*) yordamida bog'langanda bosh kelishikdagi so'zning ko'fiiafkchi bilan birga to'ldiruvchi, hoi bo'lib qolishi aytiladi.

121-mashq *inson, nima, nom, axloqsizlik, xoinlik, javob* so'zlarining ko'rinishlari shaklan bosh kelishikdir. Bosh kelishikning ko'rsatkichi yo'qligi uchun ba'zan boshqa kelishiklar singari o'zidan keyingi so'zga ko'makchi yordamida birikishini, uni ko'makchi bilan birga sintaktik vazifa bajarishi mumkinligi eslatilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. *Inson uchun* birikmasida inson bosh kelishik shaklida bo'lsa ham, ega emas, ko'makchi bilan birga to'ldiruvchi bo'lishini tushuntirish, *javob berdi* birikmasidagi ikkala so'z sintaktik jihatdan bog'lanib (qo'shma fe'l) kesim bo'lib qolishini uqtirish, nom chiqarishdir ham kesim bo'lib qolishini aytish to'g'ri bo'ladi, chunki birinchi qismi ot bo'lgan qo'shma fe'llar tarkibidagi ot ham doimo bosh kelishikda bo'lishi eslatilmog'i lozim.

123-mashqdagi *maqto'v, aqling, bobojon, usta, mezbob, tayanch* so'zlariga *iqtidorlilar, va'da, donishmand, Mirzo Ulug'bek* so'zhriga «Biltmdon» guruhlari gap tuzib bajarishlari mumkin.

Uyga vazifa: 124-mashq.

36-dars

QARATQICH KELISHIGI SHAKLI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad - qaratqich kelishigi shaklini o'rganish;
- b) tarbiyaviy maqsad - milliy vatanparvarlik ruhini singdirish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — yozma nutqni shakllantirish. **Darsning jihozi:** ramziy chizmalar.

Darsning rejasi:

- 1. Qaratqich kelishigi shakllari.
- 2. Qaratqich kelishigi shaklining birikma tarkibida tushmaslik holatlari.
- 3. Qaratqich kelishigi qo'shimchasining tushish holatlari.

1- topshiriq shartiga ko'ra matndagi ajratib ko'rsatilgan so'zlar-ning qaysi kelishikda, qaysi so'z turkumida ekanligi aniqlanadi. Qaratqich kelishigi atoqli va turdosh otlarga, ot o'rnida qo'llangan olmosh va sifatdoshlarga qo'shilishi mumkin ekanligi ta'kidlanadi.

125-mashqda *berilgan bizning maktab, maktabimiz bog'i, Ahmadning akasi* birikmalari ustida ishlanadi. Qaratqich kelishigi shaklini olgan so'z qaratqich, qaratqich bog'lanib kelgan so'z qaralmish deyilishi uqtiriladi. *Bizning maktab,*

maktabimiz bog'i birikmalari tahlil qilinadi. Keltirilgan misollarning uch xildagi ko'rinishiga o'quvchilar diqqati jalb qilinadi.

Bizning maktabda egalikning, maktabimiz bog'ida qaratqich shaklining tushish holatlari, *Ahmadning akasida* qaratqich shakli va egalik qo'shimchasining borligi, birikmalarning shakl jihatdan farqlanishi bayon qilinadi. Har uchala holatda ham birinchi kelgan so'z qaratqich, ikkinchi kelgan so'z qaralmish sanalishi tushuntiriladi.

128-mashq asosida nazariy ma'lumotni to'ldiradi. *Bizning shahar, Sharifaning kitobi, buning ahamiyati* birikmalarida qaratqich va qaralmish yonma-yon kelganligi uchun -ning shakli tushsa ham ma'no o'zgarmaydi, bunday holat me'yor sanaladi. Ammo qaratqich bilan qaralmish o'rtasiga so'z kirib qolsa, qaralmish -ning shaklini talab qiladi: Maktabimizning ko'rkam bog'i. *Bizning shahar, bizning maktab* birikmalaridagi qaratqich shaklini tushirib o'qish tavsiya qilinadi. (Biz shahar, biz maktab). Ko'rinadiki, qarashlilik ma'nosi yo'qoladi. Demak, qaralmishda egalik qo'shimchasi qo'llanmaganda -ning qo'shimchasini tushirmasdan yozish o'z-o'zidan talab etiladi. (odatda, olmoshlarda kelishik qo'shimchalari tushurilmaydi.)

Mening qalarnim, *Sharifaning kitobi, o'qiganning obro'yi* birikmalarida ham -ning qo'shimchasini tushirib bo'lmaydi. *Men qalarnim* deyilsa ma'no yo'qoladi. Demak, atoqli ot, olmosh, sifat doshlarda -ning shakli doimo qo'llanadi.

Berilgan nazariy qoidalarini mustahkamlash.

1. Qaratqich shakli o'rnida tushum kelishigi qo'llansa ma'no nima bo'ladi?
2. Qaratqich va qaralmish yonma-yon kelganda ko'pincha qan-day hodisa yuz beradi?
3. Qaratqich va qaralmish o'rtasiga so'z kirib qolsa, qanday holat yuzaga keladi?
4. Qaysi holatlarda qaratqich shakli tushurilmaydi?
5. So'z birikmasida qaratqich va qaralmish qanday joylashadi?
6. Qaratqich va qaralmish bir-biridan nimasi bilan farqlanadi? 129-,130-mashqlar mustaqil bajariladi.

131-mashq uyga vazifa.

37-dars

TUSHUM KELISHIGI SHAKLI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — tushum kelishigi shaklini qo'llash malakasini o'quvchilar ongiga singdirish;
- b) tarbiyaviy maqsad — ajdodlar ma'naviyatidan bahramand bo'lishga undash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — muammoli vaziyatni yuzaga keltirish orqali o'quvchilarning fikrlashini o'stirish.

Darsning jihozi: ko'rgazmali vositalar, rasmiy plakat, ko'chma xattaxta.

Darsning rejasi:

1. Tushum kelishigining grammatik ma'nosi.
2. Tushum kelishigining qo'llanish o'rnini.

131-mashq shartiga ko'ra o'quvchilarning «*Mening orzum*» mavzusidagi kichik hikoya matni o'qitiladi. Mavzuning izchil yoritilishi kuzatiladi, gap

bo'laklari tartibiga e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, qaratqich shakli o'rnida qo'llanilgan tushum kelishigi shakli diqqat bilan tahlil qilinadi. Kichik hikoya yozilgan plakat ilinadi.

Nigora poini toza yuvdi. Salima oynani artdi. Kamola maktab hovlisini supurdi, suv sepdi. So'ngra hammamiz gullarni begona o'tlardan tozaladik. Sinf rahbarimiz xursand bo'ldilar.

Matn o'qiladi. Tarbiyaviy jihatida tahlil qilinadi. O'quvchilar tushum kelishigini olgan so'zni topib, o'zi bog'langan so'z bilan o'qiydi. Tushum kelishigini olgan so'zlar qaysi so'z turkumida ifodalangan, tushum kelishigini olgan ot qaysi so'z turkumiga bog'lanibdi (fe'lga) kabi savollarga javob olinadi. Ko'rinadiki, *-ni* shaklini olgan so'z doimo fe'lga bog'lanadi. Matematik formula singari qoida chiqarsa ham bo'ladi: *ot+fe'l=tushum kelishigi; qaratqich kelishigi* esa: *ot+ot=qaratqich kelishigi*.

Polni yuvdi, oynani artdi, hoynini supurdi, suv sepdi, gullarni tozaladik. Bog'langan fe'llarning hammasi qanday so'roqni talab qiladi? (nimani?).

1-topshiriq sharti asosida nuqtalar o'rniga tushum kelishigi qo'shimchasi qo'yiladi. Tushum kelishigini olgan ot bilan turdosh otlar yonma-yon kelsa, kelishik qo'shimchasi tushishi ham, tushmasligi ham mumkinligi tushuntiriladi. *Xatni chiroyli yozdim* gapida esa oraliqqa so'z kirib qolganligi uchun *-ni*, albatta, yozilishi bayon qilinadi.

2-topshiriqqa ham savol berish bilan o'timli fe'llar aniqlanadi. *Kitob o'qimoq* (nimani o'qimoq?).

Sifatdoshga kelishik shakli qo'shilsa, otlashib qoladi. Otlashgan so'zlarda, odatda, kelishik shakli tushirilmaydi.

132-mashqni ishlashdan avval egalik qo'shimchalari eslab olinadi. *Derazam... oldida* birikmasida *old* so'ziga izoh berish va unda *-i* egalik qo'shimchasi ekanligi eslatiladi. *Gul hidladi.* Ot va fe'l qanday joylashgan? (yonma-yon) ot bilan o'timli fe'l yonma-yon kelsa, *-ni* yoziladi. Shu tartibda mashq og-zaki ishlanadi.

133-mashq o'qiladi. Matn ustida suhbat o'tkaziladi. Ajdodlarimiz hayotidan, ularning jahon ilmiga qo'shgan hissalaridan g'ururlanish hissi uyg'otiladi. So'ng til jihatida ishlanadi. Namuna: *ta'lim oladi*-ot+fe'l...

134-mashq yozma bajariladi: 135-mashqning shartiga o'qituvchi yordamlashadi. Namuna: *Qiziqib kitob o'qimoq — kitobni qiziqib o'qimoq.*

136-mashq asosida 3—5 gap bilan matn tuziladi.

137-mashq uyga vazifa.

38-dars

JO'NALISH KELISHIGI SHAKLI

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — jo'nalish kelishigi shaklini o'rinli va ongli qo'llash malakasini shakllantirish;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni «*Non sehri*» matni asosida milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad — grammatik ma'nolarni anglash orqali tafakkurni rivojlantirish.

Darsning jihozi: saylanma diktant matni, imkoniyatiga ko'ra texnik

vositalar.

Darsning rejasi:

1. Jo'nalish kelishigi shaklining grammatik ma'nosi haqida.
2. Jo'nalish kelishigining og'zaki va yozma nutqda qo'llanilishi.

1-topshiriq sharti bo'yicha og'zaki bajariladi. Namuna: *Adolat sekin atrofga razjn soldi.*

2-topshiriqning shartiga ko'ra jo'nalish kelishigini olgan so'z o'zi bog'langan so'z bilan o'qiladi va gapdagi vazifasi aniqlanadi.

Namuna: *Atrofga razm soldi.* Qayerga so'rog'iga javob bo'lib, gapda o'rin holi vazifasini bajaradi.

1. Jo'nalish kelishigi qanday qo'shimchalarga ega? (-ga, -ka).
2. Jo'nalish kelishigini olgan so'z qanday so'roqqa javob bo'lib, qanday otlarga qo'shiladi? (Bu qo'shimcha o'rin-joy ismlariga qo'shib, qanday so'rog'iga javob bo'ladi.)
3. Payt otlariga -ga qo'shilganda qanday so'roqqa javob bo'lib, qanday gap bo'lagi bo'lib keladi?
4. Narsa-ismlariga qo'shilganda qanday so'roq oladi, gapda qanday vazifa bajaradi?

5. Sabab holi bo'lib kelishi o'qituvchi tomonidan misollar orqali tushuntiriladi, nima sababli? so'rog'ini olishi aytiladi.

138-mashq asosida asosk, q bilan tugagan bo'lsa, unga jo'nalish kelishigi shakli -ga, -ka tarzida talaffuz qilinishi va qanday talaffuz qilinsa, shunday yozilishi uqtiriladi: *terak+ga — terakka; yurak+ga — yurakka.* Ammo so'zning oxiri g'tovushi bilan tugasa, so'zlarga -ga shakli qo'shilganda aytilishidan qat'iy nazar -ga yozilishi ta'kidlanadi: *tog'+ga — tog'ga; bog'+ga — bog'ga.*

139-mashq orqali talaffuz va imlo ishlanadi. Matn tarkibidagi *o'yga cho'mdi, kelajakka qaratadi, hayratga soladi, ko'pchilikka ma'qul bo'ladi* birikmalari tahlil qilinadi. Tahlil davomida so'z oxiri jarangsiz undosh bilan tugallansa, jarangli g ning jarangsizlashib k ga o'zgarishi yana bir bor esga tushiriladi.

140-mashq. Mashqdagi *o'roq, qishloq, kurak, so'roq, ilik* so'zlariga qoida asosida qo'shimcha qo'shib yoziladi.

141-mashq uyga vazifa qilib beriladi. O'quvchilar uyda «**Suv-ning hayotimizdagi ahamiyati**» mavzusida kichik hikoya yozib keladilar.

39-dars

O'RIN-PAYT KELISHIGI SHAKLI

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — o'rin-payt kelishigi hamda o'rin-payt kelishigi shaklidagi so'zlarning gapdagi vazifasini o'rgatish;

a) tarbiyaviy maqsad— o'quvchilarga do'stga sadoqatli bo'lish ruhini singdirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad —grammatik ma'nolarni anglashni shakllantirish.

Darsning jihozi: mavjud texnika vositasi, plakat.

Darsning rejasi:

1. O'rin-payt kelishigi ma'nolari.

2. O'rin-payt kelishigidagi so'zlarning sintaktik vazifalari.

1-topshiriqda berilgan gaplarning qo'shimchasi qo'yilib o'qiladi.

1. *Novdalarni bezabg'unchalar, Tongda aytdi hayot otini.*

2. *Qadim zamonda, Chin mamlakatida ulug' podsho o'tgan ekan* (Ertakdari).

Siz nuqtalar o'rniga qaysi kelishik qo'shimchasini qo'ydingiz? (O'rin-payt kelishigi qo'shimchasini.) Chin mamlakati deganda bugun qaysi mamlakatni tushunasiz? (Xitoyni.)

Oldindan tayyorlangan ko'rgazma xattaxtaga ilinadi:

Tongda, qadim zamonda, Chin mamlakatida

Ikkinchi topshiriq shartiga ko'ra nima uchun *tong*, *zamon* so'zlari *-ni*, *-ning*, *ni* emas, aynan *-da* qo'shimchasini olganligi o'quvchilardan so'raladi. O'quvchilar *tongda* so'zi *aytdi* fe'liga bog'lanib qachon? so'rog'ini olganligi, fe'lning (hokim so'zning) talabiga ko'ra *-da* qo'llanganini aytishlari mumkin.

Izoh: *tong*, *zamon* otlariga o'rin-payt kelishigi *-da* hozir so'z yasovchi vazifasida qo'shilib ravish hosil qilib qo'yyapti. Ravishlarda (*tongda*, *zamonda*) payt ma'nosi saqlanadi.

Quyidagi gaplar kodaskop orqali sinf taxtasiga tushiriladi.

1. *Kollejda darslar maroqli o'tiladi.*

2. *Inson dunyoda do'stlar orttiradi.*

3. *O'g'il ham, qiz ham o'qishda, mehnatda, safarda yoqib qolgan kishi bilan do'stlashadi.*

Gaplar o'qilgach, kollej haqida tushuncha beriladi.

O'qituvchi *kollejda o'tiladi* birikmasidan hokim so'z, tobe so'zni tushuntiradi. Har bir birikmaning hokim, tobe so'zlari o'quvchilar tomonidan aniqlanadi.

142-mashq. Matn o'qiladi ma'rifiy tomoni bayon qilinadi. *O'qishida, mehnatda* so'zlari *nimada?* so'rog'ini olayotganga o'xshashi, bunday holda asosga payt so'zini qo'shib ko'rish lozimligi izohlanadi. Payt so'zini mehnat so'zi qabul qilsa, payt holi bo'ladi. Mehnat paytida *-da* o'rin-payt kelishigi otlarga qo'shilib o'zi bog'langan harakatning paytini bildiradi va gapda payt holi vazifasini bajaradi. Bosh kelishikdagi ot o'zi bilan payt ma'nosini bildiruvchi *paytda, vaqtda, davrda, zamonda* so'zlari bilan kelib payt holini ifodalaydi. *Bolalik paytda, yoshlik davrda* kabi.

Odamlar orasida, yoqib qolgan birikmasida hokim so'z *qayerda?* so'rog'ini oladi va gapda o'rin holi vazifasini bajaradi.

144-mashqni bajarishda o'rin-payt kelishigining ma'nolari izohlanadi.

O'rin	Payt	Shaxs-narsa
<i>O'rtada, pastda, orqada, maktabda</i>	<i>Tongda, kuzda, saharda, tushda, uyquda, peshinda, ishda</i>	<i>Mashinada, o'roqda, dastgohda</i>

Quyidagi savollar bilan o'quvchilar bilimi sinalladi.

1. O'rin-payt kelishigi shaklini qaysi otlar oladi? (O'rin, payt, shaxs, narsa ma'nolarini ifodalovchi otlar oladi.)

Birikmalar	Ma'nosi	So'rog'i	Gapdagi vazifasi
<i>Uzoqdan kelmoq</i>	<i>O'rin</i>	<i>Qayerdan?</i>	<i>O'rin holi</i>
<i>Sahardan boshlamoq</i>	<i>Payt</i>	<i>Qachondan?</i>	<i>Payt holi</i>
<i>Temirdan qattiq</i>	<i>Qiyoslash</i>	<i>Nimadan?</i>	<i>To'ldiruvchi</i>
<i>Harakatchanligidan muvaffaqiyat qozonmoq</i>	<i>Sabab</i>	<i>Nima sababli?</i>	<i>Sabab holi</i>

2. O'rin-payt kelishigi shaklini olgan otlar gapda qanday vazifa bajaradi? (O'rin holi, payt holi, to'ldiruvchi, kesim.)

3. O'rin-payt kelishigi qo'shimchalarini olgan otlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi? (qachon?, qayerda?, kimdan?, nimada?)

Uyga vazifa 145-mashq. O'quvchilar o'zlari yoqtirgan bagiiy asardan kichik matn ko'chirib yozib o'rin-payt kelishigi qoshim-chalarining tagiga chizib keladi.

40-dars

CHIQISH KELISHIGI SHAKLI

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — chiqish kelishigi shaklini to'g'ri qo'llash, uning sinonimlaridan yozma nutqda foydalanishni o'rgatish;

b) tarbiyaviy maqsad — ajdodlar timsolida milliy g'ururni shakllantirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — qiyoslash orqali tafakkurni shakllantirish.

Darsning jihozi: chiqish kelishigining vazifasi, so'rog'i, ma'nolari yozilgan jadval, mavjud texnik vositalar

Darsning rejasi:

1. Chiqish kelishigi haqida umumiiy ma'lumot.

2. Chiqish kelishigining ma'nosi, gapdagi vazifasi.

3. Chiqish kelishigi sinonimlari ustida ishlash.

1-topshiriq shartiga ko'ra nuqtalar o'rniga kerakli kelishik shakllari qo'yiladi. Birikmalarning hokim so'zdan tobe so'zga savol berish usuli bilan kelishik shakllari aniqlanadi. *Toshkentga ketmoq* — qayerga ketmoq? *Toshkentdan ketmoq* — qayerdan ketmoq?

Birinchisida *kirmoq*, ikkinchisida *chiqmoq* ma'nolari ifodalanyapti. Tobe so'z har ikkala qo'shimchani talab qilyapti. Qolgan birikmalar faqat *-dan* shaklini oladi. Ikkinchi topshiriq talabiga ko'ra shu birikmadagi tobe so'zlarning so'rog'i va gapdagi vazifalari aniqlanadi. Tobe so'zlar qayerdan?, qachondan?, nimadan?, nima sababli? so'roqlariga javob bo'lib, gapdagi vazifasi o'rin holi, to'ldiruvchi, payt holi, sabab holi sanaladi.

O'quvchilarga mavzu yuzasidan savollar beriladi. Chiqish kelishigini olgan so'zlar qanday so'roqqa javob bo'ladi? (Qayerdan?, qachon?, nimaga?, nima sababli?) Chiqish kelishigini olgan otlar gapda qanday vazifada keladi? (O'rin holi, payt holi, to'ldiruvchi, sabab holi). Tobe so'zlarning so'roqlari, gapdagi vazifalari sinf taxtasining chetiga yozib boriladi, so'ng jadval hosil bo'ladi. Ko'rgazma sifatida quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin. Chiqish kelishigini olgan so'zlar to'rt xil ma'no, to'rt xil so'roq, to'rt xil gap bo'lagi bo'lib kelishi uqtiriladi.

146-mashq shartiga ko'ra birikmalarning birida kelishik shakli tushirilgan holatida, tushirilmagan holatida, *-dan* shakliga *-ni* ning sinonim holatida qanday ma'no anglatishi qiyoslanadi.

Uzumni yedi birikmasida oldiga qo'yilgan uzumning hammasini *yedi* (butun), *uzumdan yedi* deyilganda, uzumdan ozgina (qisman) *yeganligi* anglashiladi. *Nonni yemoq, uzumni yemoq, choyni ichmoq* birikmalarida butun ma'nosi, uzumdan yemoq, nondan olmoq, suvdan ichmoq birikmalarida butundan qism ma'nosi aniq anglashilib turganligi bayon qilinadi.

148-mashq shartiga ko'ra gaplar ko'chiriladi, chiqish kelishigini olgan so'zlarga savol berib, gapdagi vazifasi aniqlanadi. *Kunlardan bir kun*. Hokim so'zdan qachon? so'rog'ini olib, gapda payt holi bo'ladi. Butundan qism anglashiladi. *Alpomishdan soradi* (kimdan?), to'ldiruvchi. *Unutganidan* (nima qilganidan?), sabab holi, *hurpaytirib olganidan* (nima uchun qo'l tekkizib bo'lmaydi?), sabab holi.

149-mashq uyga vazifa sifatida beriladi. Namuna: *Qo'lidan ushlamoq* — *qoiini ushlamoq*.

41-dars

ISMLARNI KESIMGA XOSLOVCHI SHAKLLAR

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — o'quvchilarda gap kesimlarini shakllantirish malakasini hosil qilish;
- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarga do'stlik, inoqlik ruhini singdirish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — kesim bilan eganing moslashuvi haqidagi bilimlarini o'stirish.

Darsning jihozi: mavjud texnika vositasi, jadval.

Darsning rejasi:

1. Kesimning ega bilan munosabati haqida.
2. Kesimni shakllantiruvchi vositalar haqida.
3. Kesimni shakllantiruvchi vosiia turlari.
4. Kesimning ega bilan moslashuvi.

1-topshiriq shartiga ko'ra main o'qiladi, O'qituvchi matn mazmunini izohlab, do'silikning fazilati haqida tushuncha beradi.

Birinchi gapning kcsimini topish. qaysi so'z turkumidan ifodalanganini aytish so'raladi. *Targ'ibotchi* — shaxs oti. Qolgan gaplardagi kesim harakat nonii. ot ekanligi aniqlanadi.

2-topshiriq shartiga ko'ra kcsimdagi qo'shimchalar nomi so'raladi. *-man, -dir* shaxs-son va kesimlik qo'shimchasi ekanligi aytiladi.

Harakat nomi ega bo'lganda ham, kesim bo'lganda ham egalik qo'shimchalarsiz boshqa so'zlar bilan shaxsda va sonda moslashmaydi. Shuning

uchun harakat nomi kesim bo'lib shakllanishi uchun avval egalikni olib, keyin kerak, lozim, darkor, shart, mumkin bog'lamalar bilan shakllana oladi. *Sen o'qishing kerak.* O'qish harakat nomida shaxs yo'qligi uchun shaxsni ifodalovchi egalikni (*-ing*) olish orqali ega bilan shaxsda moslashadi. *Sen o'qishing kerak.* Ot egalik olmasdan ham bog'lama bilan kesim bo'lib shakllanishi mumkin: *Men Qo'chqorga uka bo'laman.*

Sinf «**Bilimdon**» va «**Iqtidor**» guruhlariga bo'linadi. Har ikki guruhdan vakillar sinf taxtasi oldiga chiqadi. Topshiriq shunday: «**Iqtidor**» hech qanday qo'shimchasiz so'zlar bilan «**Bilimdon**»ga buyruq beradi. «**Bilimdon**» ham hech qanday qo'shimchasiz so'zlar bilan javob qaytaradi. Agar buyruq gapda yoki javobda qo'shimcha qo'llab yuborilsa, o'sha tomon yutqazgan bo'ladi. Yutgan yana o'yinni yangi vakil bilan davom ettiraveradi. O'qituvchi keltirilgan gaplarning kesimini sinf taxtasining chetiga yozib boradi.

Salim, beri kel. Xo'p

— *Salim, nima kerak?*

— *Hech narsa.*

Yuqoridagi o'yin asosida 150-mashq ishlanishi mumkin. Namuna: *Men o'qish kerak — men o'qishim shart.* 151-mashq sharti asosida bajariladi. Namuna: *Qorabotir erkasi, serkasi edi. Boy edi, yegani go'sht-moy edi* uyushgan kesimlar. *Qorabotir boy edi. Qorabotir III shaxs, edi III shaxs.* Ega va kesim shaxsda va sonda *edi* bog'lamasini orqali moslashgan. 152-mashq shartiga ko'ra gaplar ma'nosini ohang, talaffuz belgilaydi. Siz kimsiz? so'rog'ini olgan gap bog'lamasiz kelsa, hozirgi zamonni, bog'lama bilan kelsa, kelasi zamonni anglatadi. Men vrachman — men vrach bo'laman.

153-mashq uyga vazifa. Namuna: *Rivojlanish hayotning asosi hisoblanadi.* Hisoblanadi bog'lamasini ega bilan kesimni moslashtirmoqda.

42-dars

MUSTAHKAMLASH

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — o'quvchilarni ismlarning munosabat shakllari bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarning ihsan-fanga muhabbat tuyg'usini o'stirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarning fikrini yozma bayon qilish malakasini rivojlantirish. Qiyoslash orqali tafakkurni shakllantirish.

Darsning jihozi: mavjud texnika vositalari, tarqatma material.

Darsning rejasi:

1. Mashq ishlash.

2. 2—3-topshiriqda berilgan matn yuzasidan bahs o'tkazish.

Uy vazifasi o'qitib tekshiriladi. So'ngra 1-topshiriqda berilgan matndagi nuqtalar o'rniga mos kelishik qo'shimchalari qo'yib ko'chiriladi. Namuna: — Ehtimol, ustozfling ishlari ko'pdir, lekin nayga havasi tushib qoldi. 2-topshiriqda kelishiklar xato qo'llangan bo'lib, o'quvchilar ularni to'g'rilab, rivoyat yuzasidan bahs-munozara o'tkazadilar. Namuna: *Mening ona diyorum.* 3-topshiriqni bajarishda so'zlarga kelishik qo'shimchalaridan qo'yib ko'chiriladi. Namuna: *Aqllining suhbatidan jon olur so'z.* 4-topshiriq uyga vazifa sifatida beriladi.

O'quvchilar «**Mustaqillik madhi qo'shiqlarda**» mavzusida matn tuzib, kelishik qo'shimchalarining tagiga chizib keladilar.

43-dars

NAZORAT DIKTANTI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — o'quvchilar bilimini sinash;
- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarga istiqloлга sadoqat ruhini singdirish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarning savodxonligini o'stirish.

Darsning jihozi: diktant matni.

Darsning rejasi:

- 1. Diktant matni bilan tanishtirish.
- 2. Matn yuzasidan suhbat.
- 3. Diktant yozdirish.

ADOLAT TUYG'USI

Adabiyot, san'at — qalbning hunari, yurakning ishi. Shoir, yozuvchi — yuragining so'zi, qalbining amri bilan qo'lga qalam oladigan odam. Agar yozuvchi, shoir vijdon so'zini aytolmasa fojia yuz beradi. Adabiyot ahli hamma zamonlarda inson qalbining erki uchun kurashgan. Zamonlar bo'lganki, unda rost gapni aytish jasorat hisoblangan. Biz esa shunday jamiyatda yashayotirmizki, davlat, mamlakat manfaatlari bilan xalq manfaatlari o'rtasida ziddiyat yo'q. Butun jamiyat va shu jamiyatning intilishlari, orzu-maqсадlarining ifodachisi bo'lmish yozuvchilarning niyati bitta: xalqqa xizmat. Binobarin, shunday bir davrda rost gapni aytish jasorat sanalishi jo'yali hodisa emas. Lekin biz shunday davrni boshimizdan kechirdikki, jamiyatdagi ayrim nuqsonlarni ko'rsatish ba'zi yuqori lavozimdagi odamlar tomonidan jamiyatning ildiziga bolta urish, jamiyat bog'iga tosh otish, deb talqin etildi. Kamchiliklarimizni baralla aytishimiz, bu — uydagi gapni ko'chaga olib chiqish, tuzumimiz muxoliflari oldida o'zimizni kamsitish, deb baholandi. Bunday fikr hokim bo'lgan vaqtda yozuvchining ijod qilishi nihoyatda mushkul.

44-dars

DIKTANT TAHLILI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — o'quvchilar bilimini mustahkamlash;
- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarga istiqloлга sadoqat ruhini singdirish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarning savodxonligini o'stirish.

Darsning jihozi: diktant matni, kodaskop.

Darsning rejasi:

- 1. Imlo xatolari ustida ishlash.
- 2. Ishoraviy xatolar ustida ishlash.
- 3. Shakliy xatolar ustida ishlash.

Dastlab, o'quvchilarning imlo xatolarini guruhlab chiqadi.

- a) so'zlarning yozilishiga oid xatolar;

- b) qo'shimchalarning yozilishiga oid xatolar;
d) tinish belgilariga oid xatolar.

Bu xatolarni izohlab, tegishli qoidalarni eslatadi. To'g'ri yozish uchun til qoidalarini yaxshi bilish va amalda qo'llay olish usullari haqida to'xtaladi. Xatolarga oid misollar yozdiriladi. Eng ko'p xato qilingan so'zlariga o'xshash so'zlarni sinf taxtasiga aytib yozdiradi. Bu usul qoidani yodda saqlash imkoniyatini oshiradi. So'ng ishoraviy xatolar guruhlanadi. Bunda nuqta, vergul, so'roq, undov hamda imlo xato, chiziqcha (-) belgilariga oid xatolar ustida ishlanadi.

Uchinchi bo'lib grafik xatolar, ya'ni harflarni to'g'ri yozish haqida to'xtalib o'tiladi.

Lug'at diktant.

Mening, ana shu, ana shunga, sening, qishloqqa, idrokim, ishtirokining, maktabdan, shunda, o'qishim, o'zimning, boshiiga so'zlari aytib yozdirilgach, kodaskop orqali yozilishi ko'rsatiladi. O'quvchilar o'z xatolarini tuzatadi. Shuridan keyin jadvalning tegishli katagiga kelishik qo'shimchalarini joylash talab etiladi.

Uyga vazifa: Takrorlash

t.b	kelishiklar	qo'shimchalari
1	<i>bosh kelishik</i>	
2	<i>qaratqich kelishigi</i>	
3	<i>tushum kelishigi</i>	
4	<i>jo'nalishkelishigi</i>	
5	<i>o'rin-payt kelishigi</i>	
6	<i>chiqish kelishigi</i>	

45-dars

TESTLAR USTIDA ISHLASH

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad— o'quvchilar bilimini sinash;
b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish; d) rivojlantiruvchi maqsad — grammatik tushunchalarni anglash tuyg'usini rivojlantirish.

Darsning jihozi: test materiallari.

Darsning rejasi:

1. Test materiallarini tarqatish.
2. Test yechish.

Test ustida ishlash darslarida unga quyidagi jadval chizdiriladi.

O'qituvchi o'tilganlarni mustahkamlash va o'quvchilarning bilimini nazorat qilish uchun har bir yirik mavzular o'tilganidan so'ng testlar ustida ishlash darsini uyushtiradi.

Bu darsni uyushtirishda o'quvchi darslikning oxirida berilgan test savollarini namuna sifatida qabul qiladi. U boshqa testlardan ham foydalanishi mumkin.

testlar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
javob																			
ball																			

jami ball	
--------------	--

O'quvchilar «Javob» qatoriga 1-D, 2-B, 3-C kabi belgilab berishadi. To'g'ri javob uchun 1 ball, noto'g'ri javob uchun 0 ball beriladi. To'g'ri javoblar hisoblanib, jami ball chiqariladi.

Eslatma: Dars uchun testlar tuzish o'qituvchi zimmasiga yuklatiladi.

46-dars

YORDAMCHI SO'ZLAR

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — mustaqil va yordamchi so'zlarning grammatik ma'nolarini farqlash;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni bilimli, xush xulqli bo'lishga undash;

d) rivojlantiruvchi maqsad — mushohada qilish malakasini o'stirish.

Darsning jihozi: jadval.

Darsning rejasi:

1. Mustaqil so'z turkumlari izohi.

2. Yordamchi so'zlarning grammatik ma'nolari.

1-topshiriq bajariladi. Savollarga javob olinadi.

1. Qanday so'zlar mustaqil so'zlar deb nomlanadi?

2. Qanday so'zlar yordamchi so'zlar deb nomlanadi? 154-mashqdagi so'zlarni jadvalning tegishli katagiga joylash

topshiriladi. Namuna:

Mustaqil so'zlar	Yordamchi so'zlar
<i>Farzand, aqlli, farosatli...</i>	<i>va, -u, bilan</i>

155-mashq og'zaki bajariladi. O'quvchilarning ko'makchilar yordamida tuzgan gaplaridan saralab olib, tahlil qilinadi.

157-mashqda berilgan yordamchi so'zlarning ma'nosi izohlanadi. Namuna: *bilan* — ko'makchi, vosita ma'nosida.

Mavzu quyidagi savollarga javob olish bilan yakunlanadi.

1. Mustaqil so'z turkumlari qanday ma'nolarga ega?

2. So'zlar so'roq olmasa, nomlanmasa, gapda vazifa bajarmasa, lug'aviy ma'no ifodalamas, qanday so'z turkumi deyiladi?

3. Olmosh haqida nima deysiz?

4. Yordamchi so'z turkumlari qaysilar?

5. Yordamchi so'zlar gap tarkibida nima ish bajaradi?

6. Yordamchi so'zlar yakka holda ma'no bildiradimi?

158-mashq uyga vazifa.

47-dars

KO'MAKCHILAR

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — o'quvchilarga ko'makchi so'z turkumi haqida ma'lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilar ongida milliy istiqlol g'oyalarini shakllantirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — fikrlash orqali grammatik tushunchalarni tushunish qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning jihozi; tablitsalar.

Darsning rejasi:

1. Ko'makchi haqida tushuncha.

2. Sof ko'makchilar.

3. Ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi so'zlar.

4. Ko'makchilarning gapdagi vazifasi.

1. Ko'makchi yasalmaydi, turlanmaydi.

2. Ko'makchilar tushum, o'rin-payt kelishiklaridan so'ng qo'llanmaydi.

3. Ko'makchilar so'zni so'zga tobe qilib bog'laydi.

5-sinfda ko'makchi so'z turkumi haqida tushuncha berilganligi uchun eslab olinadi.

O'quvchilar diqqati 1-topshiriqqa qaratiladi. Birinchi gap o'qitiladi: Qaysi so'z ajratilibdi? (*ish*) Ikkinchi gapda-chi? (*baxf*) Ajratilgan so'zlar qaysi so'z bilan kelgani aniqlanadi.

Ikkinchi topshiriq shartida ko'makchilarning vazifasini izohlash talab qilingan. Birinchi gapdan ko'makchi tushirib o'qiladi. *Ish... o'vora bo'lib kunning o'tganini bilmay qolasan kishi.* Ko'makchi tushirilsa, so'zlar bir-biri bilan bog'lanmay qolishi tushuntiriladi.

1. Ko'makchi qaysi so'zlardan keyin keladi? (Ot, olmosh, harakat nomi, sifatdoshlardan keyin keladi.) 2. Qaysi so'zlar ko'makchi hisoblanadi?

159-mashq shartida mustaqil va yordamchi so'zlarni aniqlash ko'zda tutilgan. Birinchi gap o'qiladi. Har bir so'zga savol berib ko'riladi. Qachon? — *avval*, nima qil? - *o'yla*. Gapdagi hamma so'zlarning mustaqil so'z ekanligi aniqlandi. Ikkinchi gapning kesimidan o'zi bog'langan so'zlarga savol beriladi: Qachon mutolaaga tushgan? — *Qo'liga tushgandan keyin*. Birinchi gapda *avval*, *keyin* so'zlari kelishikli so'zdan keyin qo'llanmagani, yakka o'zi so'roqqa javob bo'lganligi uchun (*hoi*) gap bo'lagi ba'layotgani, ikkinchi gapda esa *keyin* so'zi chiqish kelishigini olgan sifatdoshdan so'ng, *avval* so'zi chiqish kelishigini olgan sifatdoshdan keyin kelib *qachon?* so'rog'iga javob bo'lganligi uchun 2-, 3-gapda ko'makchi bo'lib kelganligini isbotlash orqali tushuntiriladi.

160-mashqda sof va ko'makchi vazifasida kelgan so'zlarning aniqlanishi so'ralgan.

Sof ko'makchilar: *kabi, bilan*, vazifadosh ko'makchilar: *ustida, orqali*.

161-mashqda *avval, keyin (ravish), ost, ust, orqa, old (ot)* so'zlari ishtirokida gap tuziladi.

162-mashq uyga vazifa qilib beriladi.

48-dars

SOF KO'MAKCHILAR

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — o'quvchilarda ko'makchilarning vazifasi, talaffuzi,

ma'nosi haqida tushuncha hosil qilish;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarning san'atga xos tuyg'ularini uyg'otish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — og'zaki va yozma nutqda ko'makchilarni qo'llash orqali chiroyli nutqni shakllantirish.

Darsning jihozi: jadval, mayjud texnik vositalar.

Darsning rejasi:

1. Sof ko'makchilar.

2. Ko'makchilarning vazifasi va ma'nosi.

3. Ko'makchilar talaffuzi, urg'usi.

Dars 1-topshiriqni bajarishdan boshlanadi.

Yo'lchida Gulnor... ikki og'iz so'z eshitish orzusi kuchli edi. Siz gapdan qanday ma'no uqdingiz? (Hech qanday...) Endi *haqida* ko'makchisini qo'yib o'qitib, ma'nosi so'raladi. Shunda *haqida* ko'makchisining vazifasi ma'lum bo'ladi. *Gulnor haqida eshitish* birikmaning ma'noli qismga aylanganligini o'quvchilarga uqtiriladi.

163-mashqning maqsadi sof ko'makchilardan *bilan*, *uchun* so'zlarining she'riyatda qisqaigan shakli *-la*, *-chun* holatida yozilishi mumkinligi aytiladi. Qisqargan shaklning yetakchi so'zdan so'ng - (chiziqla) bilan yozilishi tushuntiriladi. 3-gapdagi bilan ko'makchisini *qalam ila oldi Alisher* deb qo'llash mumkin.

164-mashq og'zaki bajariladi.

165-mashq. Mashqda *tufayli*, *haqida*, *sari*, *kabi*, *uchun*, *qadar*, *sababli*, *singari* ko'makchilari bilan gap tuzish talab qilingan. Berilgan ko'makchilarning haqida so'zidan tashqari sof ko'makchilardir. O'quvchilar tuzgan gaplardan saralab jadval tuzish mumkin.

Ko'rgazmali jadval

Sof ko'makchilar	Misollar	Ma'nosi	Vazifasi
<i>Tufayli</i>	<i>Siz tufayli o'qishga kirdim.</i>	<i>Sabab</i>	<i>Tobelashtirib bog'lash</i>
<i>Sari</i>	<i>Halollik buyuklik sari dastlabki qadamdir.</i>	<i>Yo'nalish</i>	
<i>Kabi</i>	<i>Jiydalar oltin kabi tovlanadi.</i>	<i>O'xshatish</i>	
<i>Uchun</i>	<i>Onam uchun sovg'a oldim.</i>	<i>Atalganlik</i>	

166-mashq uyga vazifa. Ko'makchilardan foydalanib «**Mak-tabimiz kutubxonasida**» mavzusida hikoyacha yozib kelish.

49-dars

VAZIFADOSH KO'MAKCHILAR

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad-sof ko'makchilardan vazifadosh ko'-makchilarning

farqlarini tushuntirish;

a) tarbiyaviy maqsad- o'quvchilarda tabiiy hodisalar jilvasini tuyish orqali nafosat tarbiyasini o'stirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad - tafakkur kuchi bilan ko'makchilarni o'z o'mida qo'llab, chiroyli yozma nutq hosil qilish malakasini rivojlantirish.

Darsning jihozi: filmoskop, jadval.

Darsning rejasi:

1. Ayrim mustaqil so'zlarning ko'makchi vazifasida qo'llanilishi

2. Vazifadosh ko'makchilarning o'ziga xos xususiyatlari.

3. Vazifadosh ko'makchilarning qo'llanilishi.

1-topshiriq talabiga ko'ra ostiga ehizilgan ko'makchi va mustaqil so'zlar ustida ishlanadi. 1) *Gap futbol o'yini ustida ketardi.* 2) *Qoziq ustida qor tunnas. (Maqol).* Ikki marta qo'llangan *ustida* so'zini mustaqil so'z yoki ko'makchi ekanligini aniqlash kerak. Ust so'zi shu turishida shu gap tarkibida boshqa kelishik qo'shimchasini olsa mustaqil, olmasa ko'makchi so'z deb hukm chiqariladi.

167-mashqda berilgan so'zlarni avval ko'makchi vazifasida, so'ng mustaqil so'z vazifasida qo'llab gap tuziladi. Namuna: *uy ichida, bir oy ichida.*

168-mashqda berilgan so'zlar jadvalning tegishli katagiga yoziladi.

169-mashq mustaqil bajariladi. Savol va topshiriqlar asosida bugungi mavzu mustahkamlanadi.

170-mashq uyga vazifa qilib beriladi.

50-dars

KO'MAKCHILARNING MA'NO TURLARI

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — ko'makchilarning ma'no turlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchilarning yozma nutqini o'stirish;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni milliy qadriyat — keksaiarni qadrlash ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad — fikrlash orqali ko'makchilarni nutqda to'g'ri qo'llash va ulardan unumli foydalanish malakasini o'stirish.

Darsning jihozi: jadval, saylanma diktant maini,

Darsning rejasi:

3. Ko'makchilarning maqsad, atalganlik ma'nolari.

2. Ko'makchilarning yo'nalish, fikr mavzusi ma'nolari.

3. Ko'makchilarning o'xshatish, qiyoslash, chegara ma'nolari.

Ko'makchilar yuzasidan og'zaki savollar berilib, javoblar eshitiladi. Dars 1-topshiriqni bajarishdan boshlanadi. Birinchi gapda yetakchi so'z *dala* bosh kelishikdagi o'rin-joy otidir. Yetakchi so'z qaysi ko'makchini olishi uning ma'nosiga bog'liqdir. *Dala* so'zi o'rin-joy ma'nosini bildirganligi, u yuzaga, sathga egaligi harakatning sath bo'ylab yo'naltiruvchi ma'noli ko'makchilardan birini — mosini talab etadi. O'zak payt ma'nosini bildirganda ham shunday holat yuz beradi: *dala sari, dala tomon, gulzor sari.*

Ikkinchi gapda bosh so'z o'ziga tobe bo'lgan so'zni uchun ko'makchisi bilan kelishini talab qilgan. Yurt farovoniigi (sababli, to'g'risida, uchun) uchun qayg'uradi. Uchun ko'makchisi ko'pincha sabab, maqsad, atalganlik ma'nolarini

ifodalaydi.

Dars jarayonida quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin.

Ko'makchilar	Ma'nosi	Kelishik	Gapdagi vazifasi
<i>Bilan</i>	<i>Maqsad, payt, birlik vosita, sabab, o'rin</i>	<i>Bosh k. Qarat. k.</i>	<i>Kesim, maqsad holi, sabab holi, to'ldiruvchi, payt holi</i>
<i>Uchun</i>	<i>Maqsad, sabab, atalgan, evaz</i>	<i>Bosh k. Qarat. k.</i>	<i>To'l., maq, sabab holi</i>
<i>Sababli</i>	<i>Sabab</i>	<i>Bosh k.</i>	<i>Sabab holi</i>
<i>Tufayli</i>	<i>Sabab</i>	<i>Bosh k.</i>	<i>Sabab holi</i>
<i>Tomon</i>	<i>Payt, o'rin</i>	<i>Bosh k. Jo'nal. k.</i>	<i>To'l., payt, o'rin holi</i>
<i>Sari</i>	<i>O'rin, payt</i>	<i>Bosh k.</i>	<i>To'l., payt, o'rin holi</i>
<i>Haqida</i>	<i>Fikr mavzusi</i>	<i>Bosh k.</i>	<i>To'ldiruvchi</i>
<i>To'g'risida</i>	<i>Fikr mavzusi</i>	<i>Bosh k.</i>	<i>To'ldiruvchi</i>
<i>Kabi, singari</i>	<i>Chog'ishtirish, o'xshatish, qiyoslash</i>	<i>Bosh k. Qarat. k.</i>	<i>To'ldiruvchi Aniqlovchi, hoi</i>
<i>Qadar</i>	<i>Chegara</i>	<i>Bosh k. Jo'nal. k.</i>	<i>Payt, o'rin, ravish, dar. miq. hollari</i>

171-mashqda nuqtalar o'rniga mos ko'makchilarni qo'yib yozish talab qilingan. 1. *Uchun* — *sabab*. 2. *Haqida* — *fikr mavzusi*. 3. *Bilan* — *vosita*. 4. *Sari* — *yo'nalish*.

172-mashqda boshqotirma yechiladi. Savol va topshiriqlar bilan ishlanadi.

Uyga topshiriq: 173-mashq. Ko'makchilardan foydalanib, «**Mustaqillik va sport**» mavzusida matn tuzish.

51-dars

KO'MAKCHILAR VA QO'SHIMCHALAR MA'NODOSHLIGI

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad - ko'makchilar va qo'shimchalarning ma'nodoshligi haqida ma'lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad - milliy madaniyatimiz, ma'naviy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad - fikrlash orqali ma'nodosh so'z va qo'shimchalarni tanlay olish malakasini shakllantirish.

Darsning jihozi: niyjud texnik vositalar.

Darsning rejasi:

1. Ko'makchilarning kelishiklar bilan sinonimligi.

2. -day qo'shimchasining ravish tarkibida yaxlitlanishi.

3. Kelishik va ko'makchilar sinonimiyasi — uslubiyat asosi.

Uy vazifasi o'qiladi, yoi qo'yilgan kamchiliklar tahlil qilinadi.

1-topshiriq bajariladi. 1. *Dala tomon ketmoq*. 2. *Oy kabi ravshan* Berilgan misollardagi tomon, yanglig', qadar ko'makchilarining badiiy uslubga xosligi, ayniqsa, she'riyatda sezilib turadi. Keyingi gaplarda oy kabi ravshan birikmalarida qiyoslash ma'nosi ifodalangan.

-dek, -day qo'shimchalari, asosan, anglashilgan ma'noning o'xshashligini yoki qiyoslashni anglatadi. -dek, -day qo'shimchalari kabi, singari ko'makchilariga sinonim bo'ladi. Shuning uchun ko'makchilar bilan kelishik qo'shimchalarini ma'no mohiyatiga ko'ra almashtirishni puxta egallash talab qilinadi.

175-mashq yozma bajariladi. Namuna: *suv quygandek — suv quygan kabi, hovlining yarmiga qadar, it kabi charchaganman, yangi bozor qishlog'i tomon, Yangibozor tomon borishdi*.

Savol va topshiriqlar ustida ishlashda jadvaldan foydalanish mumkin.

Kelishiklar	Qo'shimchalalar	Ma'nodosh ko'makchilar	Ma'nosi
Jo'nalish kelishigi	-ga, -ka, -qa	Tomon, bo'ylab	Umumiy
O'rin-payt kelishigi	-da		
Chiqish kelishigi	-dan		
Ravish yasovchi	-cha	Qadar, dovur	Umumiy
O'xshatish	-dek, -day	Kabi, singari, yanglig'	Umumiy

176-mashq uyga vazifa. Namuna: *Chaylada yonboshlab yotgan bolalar magnitofonni ko'taribroq qo'ydi*. (Tag'ay Murod)

52-dars

VAZIFADOSH KO'MAKCHILAR BILAN BIRGA KELGAN SO'ZLARNING SHAKLLAR!

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — yetakchi so'zlarning qaysi kelishik shakllari bilan o'zgarishi haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad — tabiatdan huzurlanish ruhini sing-dirish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — qo'shimchalarni maqsadli qo'l-lash malakasini rivojlantirish.

Darsning jihozi: jadval, mavjud texnik vositalar.

Darsning rejasi:

1. Ismlarning kelishik qo'shimchalari bilan ko'makchilarga bog'lanishi.
2. Ko'makchilarning kelishik shakllari bilan qo'llanilishi.
3. Ko'makchilarning egalik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi.
- 1) Sof ko'makchilar qaysilar?
- 2) Sof ko'makchilar deyilganda nimani tasavvur qilasiz?
- 3) Ot ko'makchilar qaysi kelishiklar shaklida keladi?

1-topshiriq sharti o'qitiladi. Birikmalardagi yetakchi so'zlarning qaysi

kelishik shaklida kelganligi kuzatiladi: Boshjo'nalish, chiqish kelishiklarini olgan yetakchi so'zlar ko'makchi so'z bilan o'qiladi: *oy kabi, aytishiga ko'ra, o'qishdan so'ng*.

Topshiriq: istalgan ko'makchidan birini o'ylang, har biringiz o'ylagan ko'makchingiz oldidan bir so'z keltirib ko'ring deyilishi mumkin: *Uzra — osmon uzra; bo'ylab — anhor bo'ylab; tomon — uyga tomon; boshqa — bundan boshqa*.

«**Bilib oling!**» ruknini bir o'quvchi ovoz chiqarib o'qiydi. a) *bilan, kabi, singari, uchun, sari, sayin, chog'li, bo'ylab* kabi ko'makchilar o'zlari birikib kelgan so'zlarga hech qanday qo'shimchasiz qo'shiladi: *Kun sayin mehri ortib bordi*; b) ko'makchilar orasida ism ko'makchi tomon xarakterlidir. Jo'nalish kelishigi -ga qo'shimchasi yetakchi so'zga ham, ko'makchi so'zga ham qo'shilaveradi: *Uyga tomon kelyapti, uy tomonga kelyapti*. Kelishik qo'shimchalari o'rni o'zgarsa ham ma'no hech qanday o'zgarishsiz saqlandi.

177-mashqda nuqtalar o'rniga ko'makchilarning talabiga muvofiq kelishik qo'shimchalarini qo'yish topshiriladi.

Namuna: idoraga, Boyazidning, og'lining, haftadan.

Savol va topshiriqlar bajariladi. 180-mashq uyga vazifa. Berilgan ko'makchilar asosida bog'li matn tuzish va unga sarlavha qo'yish.

53-dars

MUSTAHKAMLASH

Darslikda berilgan savollarga javob olish bilan boshlanadi. So'ng 1-topshiriq bajariladi. Ko'makchilarni topib, ularning ishlatilish o'rniga e'tibor qaratiladi. Namuna: *To'g'ri so'z egasini najot sari yetaklaydi*. Sari sof ko'makchi, najot so'zini yetaklaydi so'ziga to-belashtirib bog'lamoqda. 2-topshiriq ko'makchilarni sof va vazifadosh ko'makchilarga ajratib, ular ishtirokida gaplar tuziladi. Namuna: Sof ko'makchilar: *qadar, kabi, singari, uchun, bilan*. Vazifadosh ko'makchilar: *yonida, ostida, qoshidan, qaraganda*. 3-topshiriqni bajarishda matnni ko'chirib, ko'makchilarni topib izohlaydilar. Uning g'oyasi haqida bahs-munozara o'tkaziladi. 4-topshiriqda berilgan vazifadosh ko'makchilarni ko'makchi va mustaqil so'z ma'nosida qo'llab gap tuzadilar. 5-topshiriqni bajarishda nuqtalar o'rniga berilgan ko'makchilardan mosini qo'yib ko'chiriladi. Namuna: *Aql inson uchun eng oily ne'matlardan biridir*.

Uyga vazifa. Ko'makchi ishtirok etgan 4 ta gap yozib kelish.

54-dars

RASM ASOSIDA BAYON

«QISH»

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — o'tilgan mavzular bo'yicha olingan nazariy ma'lumotlarni amaliy qo'llash;

b) tarbiyaviy maqsad— o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — og'zaki va yozma savodxonlikni o'stirish.

Darsning jihozi: qish tasviri tushirilgan rasm.

Darsning rejasi:

1. Rasm ustida suhbat o'tkazish.

2. Reja tuzish.
3. Bayon yozish.

55-dars

BAYONNING TAHLILI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — o'quvchilarni xatolar ustida ishlashga o'rgatish;
- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarda o'z harakatiga tanqidiy qarash tuyg'usini tarbiyalash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — og'zaki va yozma savodxonlikni o'stirish.

Darsning jihozi: qish tasviri tushirilgan rasm.

Darsning rejasi:

1. Imlo xatolar ustida ishlash.
2. Uslubiy xatolar ustida ishlash.
3. Ishoraviy xatolar ustida ishlash.

O'quvchilarga daftarlarni tarqatib, xatolari bilan tanishib chiqish topshiriladi. So'ng o'qituvchi avvaldan umumlashtirib qo'ygan tipik xatolarga oid lug'at diktant o'tkazadi. Lug'at diktantda o'quvchilarning bayonida uchragan imlo xatoga oid qoidalar mustahkamlanishi mumkin bo'lgan so'zlar tanlanadi. O'qituvchi matnni ko'chma taxtada avvaldan tayyorlab qo'yadi. O'quvchilar ana shu matnga qarab xatolarni tuzatadilar. Bu keyinchalik ana shunday imlo xatolarining takrorlanmasligiga asos bo'ladi.

Imlo xatolar ustida ishlab bo'lingach, o'quvchilar bayonida uchragan uslubiy xatolar va ularning sabablari o'quvchilarga tushuntiriladi. Tegishli nazariy qoidalar takrorlanadi.

Ishoraviy xatolar ustida ishlashda o'quvchilar qaysi ishoraga oid xato qilgan bo'lsa, o'sha ishoraning ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan nazariy qoidalar takrorlanadi.

Uyga vazifa. «Qishning bir kuni» mavzusida ijodiy matn tuzish.

56-dars

BOG'LOVCHILAR

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — bog'lovchilar haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni ziyrak, xushfe'l bo'lishga o'rgatish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarning lug'at boyligini o'stirish.

Darsning jihozi: bog'lovchilar yozilgan ko'rgazmali plakat, kodaskop, ko'chma taxta.

Darsning rejasi:

1. Bog'lovchilar haqida ma'lumot.
2. Ko'makchi va bog'lovchi vazifasida qo'llanuvchi so'z.

O'qituvchi o'quvchilarni darsga tayyorlash uchun o'tgan dars yuzasidan savol-javob o'tkazadi.

1. Ko'makchilar lug'aviy ma'no anglatadimi?

2. Ko'makchilar ma'lum so'roqqa javob bo'ladimi?

3. Ko'makchilar gap bo'lagi vazifasida kela oladimi? Savollarga javob olingach, bog'lovchilar ham lug'aviy ma'no anglatmasligi, so'roqqa javob bo'lmasligi, gap bo'lagi vazifasida kela olmasligi eslatiladi. So'ng ko'chma taxtaga yozilgan quyidagi gap bolalarga havola etiladi.

1. *Men... Pirimqul Qodirov, ...Said Ahmad asarlariga qiziqaman.* 2. *...Yomg'ir yog'ar, ...izg'irin shamol esardi.*

O'quvchilar nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan so'zlardan (*goh-goh, yo-yo, ba'zan-ba'zan, na... na..., bilan, va, ham-ham, bir-bir*) mosini ko'chiradi va nuqtalar o'rniga qo'yilgan so'zlar qanday vazifa bajarayotganini hamda gap ma'nosiga qanday ta'sir etayotganini topadilar. O'qituvchi darslikda «**Bilib oling!**» ruknida berilgan qoidani sharhlab o'qiydi.

Qo'shimcha topshiriqli izohli diktant.

1. *Daftar bilan qalam o'quv qurolidir.* 2. *Xolmat bilan suhbatlashgandan so'ng uning xayoli yana buzildi (Sh. R).* 3. *Suv bilan havo tabiatning bebaho ne'mati.* 4. *Tong otishi bilan yo'lga tushamiz.*

Ajratib ko'rsatilgan so'zni (*bilan*) **va** bog'lovchisiga almashtiring va ma'nosini izohlang. O'quvchilar qo'shimcha topshiriqli izohli diktant shartlarini bajarib bo'lgach, bilan yordamchisi ham bog'lovchi, ham ko'makchi vazifasida kelishi haqida xulosa chiqaradilar. U bog'lovchi vazifasida kelganda uni bog'lovchi bilan almashtirish mumkinligi aytiladi.

181-mashqni o'quvchilar mustaqil bajaradilar. Namuna: *O'rtoqlarim bilan men uloqning tezroq boshlanishini kutmoqdamiz.* 182-mashqda *bilan* yordamchisining bog'lovchi va ko'makchi vazifasidagi holatlarini ajrata olish malakasini oshirish uchun tanlangan bo'lib, o'quvchilar bilan bog'lovchi vazifasida kelgan gaplarni aniqlab ko'chiradilar. 183-mashq mustaqil bajariladi.

Darsni yakunlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Bog'lovchi qanday vazifa bajaradi?

2. Ham ko'makchi, ham bog'lovchi vazifasida qo'llanuvchi so'zni ayting.

3. Bilan yordamchisini bog'lovchi yoki ko'makchi vazifasida kelganini qanday aniqlash mumkin?

Uyga vazifa: 184-mashq. Bog'lovchilardan foydalanib «**Jahonga bo'y ko'rsatayotgan yoshlar**» mavzusida matn tuzish.

57-dars

BOG'LOVCHILARNING VAZIFASIGA KO'RA TURLARI

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra turlari haqida ma'lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarda ijobiy fazilatlarni rivojlantirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarda yaratuvchanlik fazilatlarini tarbiyalash.

Darsning jihozi: bog'lovchilar tushirilgan jadval.

Darsning rejasi:

1. Teng bog'lovchilar.
2. Ergashtiruvchi bog'lovchilar.

1-topshiriqda berilgan gaplarni o'quvchilar o'qib, bog'lovchilarni topadi. Ular nimalarni va qanday yo'l bilan bog'lab kelganini izohlab beradilar hamda bog'lovchilarni vazifasiga ko'ra guruhlariga bo'ladilar. Namuna: *boshlanadi ijod va turmush. Va bog'lovchi, uyushiq bo'laklarni teng yo'l bilan bog'lamoqda. Va - teng bog'lovchi, chunki — ergashtiruvchi bog'lovchi.*

185-mashqda berilgan gaplardagi bog'lovchilarning turiga qarab gaplarni jadvalning tegishli ustuniga joylaydilar. Namuna:

Teng bog'lovchili gaplar	Ergashtiruvchi bog'lovchili gaplar
1. O'zi to'rt tarafi ko'z ilg'amaydirgan darajada katta va sayhon bir yer ekan.	1. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir, chunki ilmsiz kishilar ota-onasiga, qarindosh-urug'iga, din va mUlatiga foyda yetkazmoq bir yoqda tursin, o'ziga loyiq bo'lgan toat-ibodatni ham joyiga qo'ya olmaydi.

186-mashqni o'qib, bog'lovchilar qanday vazifa bajarayotganini izohlaydilar. So'ng mashq mazmuni bo'yicha bahs o'tkaziladi. Savol va topshiriqlar bilan ishlash.

IJODIY DIKTANT

O'qituvchi gaplarni o'qiydi. O'quvchilar gaplardagi bog'lovchilarni ma'nodoshiga almashtirib yozadilar.

1. Shaharning ko'rki va (hamda) eng gavjum yerlaridan biri bo'lgan Ulug'bek madrasasi yarqirab turar edi. (Mirmuhsin). 2. Undan so'ng Zulfiqor qalam va (bilan) davotni olib, handasadan mashq qildi. 3. Dam (goh) jahlim chiqadi, dam (goh) kulgim keladi. 4. Qo'rboshining chap ko'zi yumuq, lekin (ammo) o'ng ko'zida allaqanday yomon o't yonib turardi. (H. G'ulom).

Uyga vazifa: 187-mashq. «**Mehnat qilsang, rohat ko'rasan**» mavzusida bog'lovchilarni qatnashtirib bog'liq matn tuzish.

58-dars

TENG BOG'LOVCHILAR

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — teng bog'lovchilarning mazmuniy-muno-sabat turlari haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarga estetik tarbiya berish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirish.

Darsning jihozi: teng bog'lovchilar haqida ko'rgazmali qurol, mavjud texnik vositalar.

Darsning rejasi:

1. Biriktiruv bog'lovchilari.
2. Zidlov bog'lovchilari.
3. Ayiruv bog'lovchilari.
4. Inkor bog'lovchisi.

Tashkiliy qism o'tgach, 1- va 2-topshiriqlar bajartiriladi, ya'ni o'quvchilar berilgan gaplar tarkibidagi bog'lovchilarning vazifasini aniqlaydilar hamda ular yoidamida bog'lanib kelayotgan bo'lak va gaplar o'rtasida qanday ma'no munosabat borligini topadilar.

Ko'rgazmali qurol vositasida nazariy ma'lumotlar beriladi. Nazariy ma'lumotlarni mustahkamlash uchun 188-mashq bajariladi. O'quvchilardan gaplarni o'qib bog'lovchilarni topish, ularning mazmuniy munosabatini aniqlash talab etiladi. Namuna: *Uning o'g'illari Bektosh va Hoshim maktabda o'qiydi. Gapdagi va bog'lovchisi biriktiruv munosabatini yuzaga chiqaryapti.*

189-mashq mustaqil bajariladi.

Savol va topshiriqlar bilan ishlanadi.

1. Teng bog'lovchilar mazmuniy munosabatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

2. Bog'lovchilarning har bir turiga misol keltirib, daftaringizga yozing.

190-mashq uyga vazifa sifatida beriladi. «**Birinchi o'qituvchim**» mavzusida hikoyacha tuzib kelish. Hikoyada teng bog'lovchilardan foydalanish zarur.

59-dars

SOF VA VAZIFADOSH BOG'LOVCHILAR

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad - sof va vazifadosh bog'lovchilar haqida ma'lumot berish;
- b) taibiyaviy maqsad — milliy davlatchiligimiz tarixiga ehtirom tuyg'usini o'stirish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad - yordamchi so'z turkumlari bo'yicha olgan bilimlarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: mavjud texnik vositalar, sof va vazifadosh bog'lovchilar aks ettirilgan plakat.

Darsning rejasi:

1. Sof bog'lovchilar.
2. Vazifadosh bog'lovchilar.

1—2 daqiqa kirish suhbat o'tkazilgach, o'quvchilarning uyda yozib kelgan «**Birinchi o'qituvchim**» mavzusidagi hikoyachalari o'qitilib tekshiriladi. Bunda bog'lovchilarning turlari va mazmuniy munosabatlari izohlanadi. So'ng o'quvchilar 1- va 2-topshiriqni bajaradilar. Bunda bog'lovchilarni topish uchun uni boshqa bog'lovchi bilan almashtirib qo'llash usulidan foydalanish mumkin. Namuna: *Sen ham, men ham shunga ishonibmiz-a!- Sen va men shunga ishonibmiz-a!*

191-mashqni bajarishda o'quvchilar gaplarni o'qib sof va vazifadosh bog'lovchilarga ajratadilar.

192-mashq mavzuni mustahkamlash uchun tanlangan bo'lib, 1-, 3-, 6-gaplarda sof bog'lovchilar, 2-, 4-, 5-gaplarda esa vazifadosh bog'lovchilar

berilgan.

SAYLANMA DIKTANT

O'qib berilgan gaplardan sof va vazifadosh bog'lovchilarni ajratib ikki guruh qilib yozadilar.

1. *Bu mening qo'lim bilan yaratilgan gul. (Elbek)* 2. *Bu yerlarda yashash va mehnat qilishning o'zga zavqi, o'zga gashti va o'zga latofati bor. (Shuhraf)* 3. *Balki, men qilolmagan ishni sen qilarsan. (O. Yoqubov)* 4. *Amu bilan Sirdan suv ichgan chavandozlar bordir bu elda. (H. Olimjon)* 5. *O'ktam o'z jamoa xo'jaligiga eltadigan yo'lda to'xtadi, biroq qayrilgisi kelmadi. (Oybek)* 6. *Ham qo'rqaman, ham bilgim keladi. (A. Muxtor)* 7. *Havo ochiq, lekin kun sovuq.*

Uyga vazifa: 193-mashq. Sof va vazifadosh bog'lovchilar ishtirokida matn tuzish. Unga sarlavha topish.

60-dars

BIRIKTIRUV BOG'LOVCHILARI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad - biriktiruv bog'lovchilari haqidagi bilimlarini kengaytirish;
- b) tarbiyaviy maqsad - jaholatga nafrat, ma'rifatga muhabbat tuyg'ularini singdirish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — mehnat ahlini hurmat qilishga o'rgatish.

Darsning jihozi: biriktiruv bog'lovchilari gaplar yozilgan plakat, mavjud texnik vositalar.

Darsning rejasi:

1. Biriktiruv bog'lovchilari.
2. Biriktiruv munosabatli vazifadosh bog'lovchilar.
3. Biriktiruv bog'lovchilari imlosi.

Dars uy vazifasini tekshirish bilan boshlanadi. Unga bog'liq holda sof va vazifadosh bog'lovchilar yuzasidan berilgan nazariy bilim ham sinab ko'riladi.

Sinf taxtasiga biriktiruv bog'lovchilari gaplar yozilgan plakat osib qo'yiladi.

Biriktiruv bog'lovchilari

1. *Otni soy bo'yiga bog'ladi va o'zi yuqoriga chiqib ketdi.*
2. *Otni soy bo'yiga bog'ladi hamda o'zi yuqoriga chiqib ketdi.*
3. *Otni soy bo'yiga bog'ladi-yu, o'zi yuqoriga chiqib ketdi.*
4. *Otni soy bo'yiga bog'ladi-da, o'zi yuqoriga chiqib ketdi.*

Savol: Berilgan gaplardagi bog'lovchi vositalar qanday umumiy ma'no ifodalayapti? O'quvchilarning javobini eshitgach, nazariy ma'lumot beriladi.

194-mashqdagi biriktiruv bog'lovchilari gaplar ko'chirib yoziladi. Namuna: *Yaxshixulq va adab sohibi qilib, Alloh taolaga muhabbat va e'tiqodimizni orttiradi.* Mashq yozilgach, «*Ha-yo'q*» o'yini o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi tez-tez savol beradi, o'quvchi «*Ha*» yoki «*Yo'q*» deb javob beriladi. Har bir to'g'ri javob uchun ma'lum ball qo'yiladi. O'yin tugagach «*Ha*» javoblar hisoblanadi. Bu bilan o'quvchilarning hozirjavobliligi rivojlan-tiriladi, xotirasi mustahkamlanadi hamda bog'lovchilarni yod plinishi osonlashadi.

1. *Va bog'lovchimi?*
2. *Va teng bog'lovchimi?*
3. *Va vazifadosh bog'lovchimi?*

4. Va sof bog'lovchimi?

Savollar shu tarzda tuzilishi mumkin.

195-mashq mustaqil bajariladi. Mashqda berilgan gaplarni qavs ichidagi mos bog'lovchini qo'yib ko'chiradilar. Namuna: *Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak.*

IZOHLI DIKTANT

O'qituvchi aytib turadi. O'quvchilar yozadilar. So'ng o'quvchilar bog'lovchilarning yozilishini izohlaydilar. Namuna: *Suvni ko'rdi-yu, tashnalik azobi yana zabtiga oldi.*

Savol: -yu yuklama-bog'lovchini qanday yozdingiz?

O'quvchilar -yu yuklama-bog'lovchi ekanligini, undan keyin vergul qo'yilishini, uyushiq bo'laklarni bog'laganda esa vergul qo'yilmasligini aytadi.

1. *Vazira bilan singlisi bir guruhda o'qiydi.* 2. *Olim Sharq xalqlarining madaniyati to'g'risida hurmat va iftixor bilan gapirdi.* 3. *Qishda va yozda bir xil kiyimda.* 4. *Oltin-u gavhar zanglamasligi va hech qachon aynimasligi bilan noyob-u qimmatbahodir. (Mirmuhsin)*

Uyga vazifa: 196-mashq. Biriktiruv bog'lovchilarni qatnashtirib «**Mening do'stim**» mavzusida bog'li matn tuzish.

61-dars

AYIRUV BOG'LOVCHILARI

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — o'quvchilarga ayiruv bog'lovchilar haqida ma'lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad - vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash; d) rivojlantiruvchi maqsad - o'quvchilarda ayiruv bog'lovchilarni to'g'ri qo'llash malakasini o'stirish.

Darsning jihozi: mavjud texnika vositalari.

Darsning rejasi:

1. Ayiruv bog'lovchilari.

2. Ayiruv bog'lovchilarining ma'nolari.

Darslikdagi 1-topshiriq og'zaki bajariladi. Namuna: *Goh quyosh yah etib ko'rinib qoladi, goh bulutlar ichiga berkinib oladi.*

2-topshiriq. yo-yo bog'lovchisi qo'llansa, voqealardan bin bo'lishini, *goh-goh, dam-dam* bog'lovchilari voqea-hodisalarni galma-gal bo'lishini anglatishi izohlanadi.

198-mashq mustaqil bajariladi.

199-mashqni guruhlarga bo'linib xattaxta hamda daftarda bir vaqtda bajarilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Namuna: *Sheriklaringiz ham bormidi? Yoki bir o'zingiz bajardingizmi?*

Mustaqil ish.

Badiiy adabiyotdan 2 tadan ayiruv bog'lovchili gap yozish.

Vazifa: 200-mashq. Darslikda berilgan rasm asosida matn tuzish. Unda ayiruv bog'lovchilarining vazifasini tushuntirish.

62-dars

ZIDLOV BOG'LOVCHILARI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad - o'quvchilarga zidlov bog'lovchilari haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad — nafosat tarbiyasini singdirish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — zidlov bog'lovchilarni nutqda to'g'ri qo'llash malakasini rivojlantirish.

Darsning jihozi: zidlov bog'lovchilari tushirilgan jadval. Darsning rejasi:

1. Zidlov bog'lovchilari haqida ma'lumot berish.
2. Zidlov bog'lovchilarining ma'nolari.
3. Zidlov bog'lovchilarining vazifasi.

Darslikda berilgan 1-topshiriqni o'qituvchi guruhlariga bo'lib, bog'lovchilarni almashtirib qo'llashni topshiradi, almashtirish bilan ma'noda o'zgarish bo'lmasligiga e'tibor qaratadi.

Bog'lovchi qo'shaloq qo'llanganda, bog'lovchilardan biri ma'noni kuchaytirishi eslatiladi.

Masalan: *Ammo lekin, mana shu ishni boplabsan.*

201-mashq sharti asosida bajariladi. Namuna: *Uturmushidan, o'tgan umridan rozi, lekin ana shu roziligini tushuntirib berolmas edi. Lekin* — zidlov bog'lovchisi.

202-mashqni bajarishda bog'lovchilarning vazifasi izohlanadi. Namuna: *Mamlakatimizda bayramlar ko'p, lekin Navro'zning tarovati, shukhi o'zgacha. Lekin* — zidlov bog'lovchisi gaplarni bir-biriga bog'lamoqda.

203-mashqni bajarishda balki so'zi bog'lovchi vazifasida kelgan gaplar ko'chirib yoziladi. Namuna: *Bo'rondan so'ng Olimjon brigadasidagi ishlar ozaymadi, balki yana ko'paydi.*

Savol va topshiriqlarni bajarish.

Uyga vazifa: 204-mashq. Namuna: *Qo'y ko'zlari hayrat va taajjub bilan por-por yonadi. Va* — biriktiruv bog'lovchisi.

63-dars

INKOR BOG'LOVCHISI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad - inkor bog'lovchi-yuklamasi haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad — Vatanga muhabbat ruhida taibiyalash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — inkor bog'lovchi-yuklamasini nutqda to'g'ri qo'llashga o'rgatish.

Darsning jihozi: inkor bog'lovchi-yuklamalari tushirilgan jadval.

Darsning rejasi:

1. Inkor bog'lovchisi haqida ma'lumot.
2. Inkor bog'lovchisining ma'nolari.
3. Inkor bog'lovchisining vazifasi.

O'quvchilarning uy vazifalari tekshiriladi. So'ngra birinchi topshiriq ishlanadi. Berilgan gapdagi *na...na* yordamchisini tushirib o'qish buyuriladi.

Dilbar na o'qidi, na yozdi — Dilbar o'qidi. Har ikki gapning ma'nosi qiyoslanadi. 1-topshiriq bilan ishlashda *na-na* yordamchisining vazifasini aniqlash so'raladi (uyushiq bo'laklarni bog'lab kelmoqda). Ana shu amaliy ishdan so'ng o'quvchilar qoida chiqaradilar va darslikdagi nazariy material bilan qiyoslaydilar. 205-mashq bajariladi. 206-mashq o'quvchilarni inkor bog'lovchisini qo'llash malakasini o'stirish uchun mo'ljallangan. Namuna: *Bu qo'shiqda na nolish bor, na azob, unda yashash ishtiyoqi, pok muhabbat, bitmas-tuganmas orzuva qudrat bor edi.*

Savol va topshiriqlar bilan ishlash.

1. *Na...na* bog'lovchisining vazifasini tushuntirib bering.
2. *Na...na* qanday xususiyatlarga egaligini misollar bilan izphlang.

207-mashq: uyga vazifa. Namuna: *Sharifning haqiqat ufurib turgan gaplariga qarshi na Nozima birnarsa deya oldi, na Nabijon.*

64-dars

YAKKA VA TAKROR BOG'LOVCHILAR

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — yakka va takror holda qo'llanuvchi biriktiruv bog'lovchilari haqida ma'lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarga ekologik tarbiya berish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarning savodxonligini o'stirish.

Darsning jihozi: yakka va takror holda qo'llanuvchi bog'lovchili gaplar yozilgan plakat.

Darsning rejasi:

1. Yakka bog'lovchilar.
2. Takror holda qo'llanuvchi bog'lovchilar.

Dars uy vazifasini tekshirish bilan boshlanadi. So'ng 1-topshiriq bajariladi: *Voleybol, futbol to'garaklariga qatnashaman.* Gapdagi ajratib ko'rsatilgan uyushiq bo'laklarni *va, yo-yo, dam-dam* bog'lovchilari yordmida bog'laydilar. Qaysi bog'lovchilar yakka holda, qaysilari takror holda qo'llanishini aytadilar. Plakat asosida nazariy material bayon qilinadi.

1. *Buning uchun eski bir gapni eslash va unga amal qilish kerak. (O. Sharafiddinov)*

2. *Yomg'ir dam yog'adi, dam tinadi.*

3. *Yo siz keling, yo men boray. (Qo'shiqdan)*

208-mashq mustaqil bajariladi.

209-mashq o'quvchilarda bog'lovchilarning ma'nosiga ko'ra turlarini farqlash malakasini o'stirish uchun mo'ljallangan.

QO'SHIMCHA TOPSHIMQLI SAYLANMA DIKTANT

O'quvchilar berilgan gaplardan faqat bog'lovchilarni ajratib yozadilar va ularni ma'no, vazifa va qo'llanishiga ko'ra guruhlariga ajratadilar.

1. *Bulardan ikkisi tadbirkor va ehtiyotkor, biri esa xom va tajribasiz edi. («Kalila va Dimna»dan)* 2. *Bola kamolga yetibdi, lekin u ulg'aygan sayin ziqna*

bo'laveribdi. («Ertaklar guldastasi» kitobidari) 3. Hozir aziz yurtimizda qaysi to'y yoki boshqa tantanaga bormang, albatta, «Andijon polkasi» kuyi yangrab, unga ko'pchilik zavq-u shavq bilan o'ynaganligiga guvoh bo'lasiz. («Andijon-noma»dan)

Uyga vazifa: 211-mashq. Namuna: *Ishqilib, yo ilmli, yo hunarli bo'lish payida bo'linglar. Yo ma'nosiga ko'ra ayiruv, qo'llanishiga ko'ra takror bog'lovchi.*

65-dars

ERGASHTIRUVCHI BOG'LOVCHILAR

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — ergashtiruvchi bog'lovchilar haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni qonunni hurmat qilish ruhida tarbiyalash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilar tafakkuri va nutqini o'stirish.

Darsning jihozi: ergashtiruvchi bog'lovchilar tasnifi berilgan jadval, mavjud texnik vositalar.

Darsning rejasi:

- 1. Ergashtiruvchi bog'lovchilar.
- 2. Ergashtiruvchi bog'lovchilarning ma'no-munosabat turlari.

1-topshiriq bajariladi. O'quvchilardan darslikda berilgan gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlar (*chunki, agarda*) ning vazifasi va ma'nosini tushuntirib berish talab etiladi. 212-mashqdagi jadval asosida nazariy material bayon qilinadi hamda bog'lovchilar tasnifi so'raladi.

213-mashqda berilgan so'zlar ichidan bog'lovchilar (*ammo, chunki, ya'ni, shu sababli, hamda*) ajratib olinadi va ular ishtirokida gap tuzadilar. 215-mashq o'quvchilarning yozma nutqda bog'lovchilarni qo'llay ohsh malakasini o'stirishga qaratilgan bo'lib, mashqni bajarishda nuqtalar o'rniga zarur bog'lovchilar (*chunki, garchi, agar*) qo'yib ko'chiradilar.

Uyga vazifa: 216-mashq. «**Tilga e'tibor — elga e'tibor**» mavzusida ergashtiruvchi bog'lovchilardan foydalanib matn tuzish.

66-dars

SABAB BOG'LOVCHILARI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad - sabab bog'lovchilari haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — yozma savodxonlikni o'stirish.

Darsning jihozi: sabab bog'lovchilari yozilgan plakat, tarqatma materiallar, mavjud texnik vosita.

Darsning rejasi:

- 1. Sabab bog'lovchilari.
- 2. Sabab bog'lovchilarining imlosi.

Sinf taxtasiga 1-topshiriqda berilgan gaplar yozilgan plakat osib qo'yiladi. O'quvchilar nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan bog'lovchilardan mosini

qo'yib ko'chiradilar. Nuqtalar o'rniga tanlangan bog'lovchilar (*chunki, negaki*) ning qo'yilish sababini aytish talab etiladi.

217—218 mashqlar mustaqil bajariladi.

219-mashq belgilangan vaqt ichida bajariladi. Sharti: faqat sabab bog'lovchilar qatnashgan gaplar yoziladi.

Savol va topshiriqlar bilan ishlashda 4 ta konvert tayyorlanadi. Har bir konvertida bitta savol bo'ladi. Guruh vakili konvertdan birini tortadi. 1 daqiqa guruh a'zolari tayyorlanadi va bir kishi savolga javob beradi.

O'qituvchi hakam sifatida javoblar uchun ball qo'yib boradi. Dars oxirida o'yin yakunlanadi.

Uyga vazifa: 220-mashq. O'zingiz sevgan asardan sabab bog'lovchili 6 ta gap yozib kelish.

67-dars

ANIQLOV BOG'LOVCHILARI

Darsning maqsadi:

- ilmiy maqsad — aniqlov bog'lovchilari haqida ma'lumot berish;
- tarbiyaviy maqsad — ona tabiatga ehtirom tuyg'ularini tarbiyalash;
- rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

Darsning jihozi: tarqatma material, aniqlov bog'lovchilari yozilgan plakat, mavjud texnik vositalar.

Darsning rejasi:

- Aniqlov bog'lovchilari.
- Aniqlov bog'lovchilarida tinish belgilarining ishlatilishi.

1-topshiriqda berilgan gaplar yozilgan plakat osib qo'yiladi. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni izohlash talab etiladi. So'ng *ya'ni*, -ki bog'lovchilarining qaysi o'rinda qo'llanganini, ularda qanday tinish belgisi ishlatilganini aniqlash topshiriladi. 221-mashq o'quvchilarning mustaqil fikrlashga o'rgatish uchun tanlangan. 222-mashqda berilgan gaplar yozilib, bog'lovchilarning tagiga chiziladi. Namuna: *Bu holda mazkur so'zlar adabiy ilmlarni, y'ani til va adabiyot bilan bog'liq ilmlarni anglatadi.*

IZOHLI DIKTANT

1. *Mana, bir necha yilki, poytaxt ham Hirotga ko'chgan.* 2. *Sui-qasd tufayli Hirot qamal qilingandek tahlika va qo'rquv ichida qoldi. (Mirmuhsin)* 3. *Kapponda, rastalarda savdo-sotiq davom etardi-yu, ammo ortiqcha baqiriqlar, yugurib-yelishlar, yosh-yalanglar to'dasidagi gurunlar yo'q...* (Mirmuhsin)

223-mashq: uyga vazifa. «**Non qadri**» mavzusida hikoyacha yozish. Matndagi aniqlov bog'lovchilarining tagiga chizish.

68-dars

SHART BOG'LOVCHILARI

Darsning maqsadi:

- ilmiy maqsad — shart bog'lovchilari haqida ma'lumot berish;
- tarbiyaviy maqsad — kamtarlik, xushmuomalalik xislatlarini rivojlantirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — fikrlash doirasini kengaytirish, o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

Darsning jihozi: shart bog'lovchili gaplar yozilgan plakat, mavjud texnik vositalar, tarqatma material.

Darsning rejasi:

1. Shart bog'lovchilari.
2. Shart bog'lovchilarining vazifasi.
3. Shart bog'lovchilarida tinish belgilarining ishlatilishi.

O'quvchilarga nuqtalar o'rniga qavs ichidagi so'zlardan mosini qo'yib ko'chirish topshiriladi.

Shart bog'lovchilari

1... *ko'klam qo'ldan berilsa, (chunki, shuning uchun, agar) oqibati nima bo'lishini aytdi. (A. Qahhor)*

2... *barchamizga taqdir hukmron, ... teng qoshida chinorlar, xasdir. (A. Oripov)*

Topshiriq bajarilgach, nima uchun aynan shu bog'lovchi-larning qo'yilish sababini izohlash talab etiladi. O'qituvchi berilgan gaplar asosida nazariy materialni tushuntiradi. O'quvchilarning bog'lovchilarni farqlash malakasini rivojlantirish uchun 224-mashqdan foydalaniladi. Bunda gaplardagi bog'lovchilarni jadval-gajoylashtiradilar. Namuna:

Sabab bog'lovchilari	Aniqlov bog'lovchilari	Shart bog'lovchilari
-chun, chunki...	-ki	Agar

225-mashq o'quvchilarda shart bog'lovchilarini qo'llay olish malakasini rivojlantirish uchun mo'ljallangan. Bu mashqni bajarishda nuqtalar o'rniga zarur bog'lovchini qo'yib ko'chirishadi. Namuna: *Lek hozircha borman, omonman, Men yashayman garchi yomonman. (E. Vohidov)*

226-mashqni bajarishda shart bog'lovchilari topiladi (*garchi, basharti, agar*) hamda gap tuziladi. Namuna: *Agar seni aldasa hayot, sen noumid bo'Ima hech qachon.*

Uyga vazifa: 227-mashq. Shart bog'lovchilarini qatnashtirib, «**Buyuk va muqadassan, mustaqil Vatan!**» mavzusida hikoya yozish. Shart bog'lovchilarining tagiga chizish.

69-dars

MUSTAHKAMLASH

O'quvchilar uyda yozib kelgan hikoyalarini o'qib, shart bog'lovchilarini topadi. So'ng mustahkamlash uchun berilgan savollargajavob olinadi:

1. Bog'lovchilar deb nimaga aytiladi?
2. Sof va vazifadosh bog'lovchilarga misol ayting.
3. Biriktiruv bog'lovchilari qaysilar?
4. Zidlov bog'lovchilari ishtirokida gaplar tuzing.
5. Sabab bog'lovchilarini qatnashtirib gaplar hosil qiling.
6. Aniqlov bog'lovchisi deb nimaga aytiladi?

7. Shart bog'lovchilari qaysilar?

1-topshiriqni bajarishda nuqtalar o'rniga berilgan bog'lov-chilardan mosi qo'yib ko'chiriladi. Namuna: *Sobirjonning yoshi oltida, ammo yosniga nisbatan bo'yi past.*

2-topshiriqda bog'lovchilar izohlanadi.

3-topshiriq uyga vazifa sifatida beriladi. O'quvchilar gaplarni ko'chirib bog'lovchilarni izohlab keladilar. Namuna: *Mol va boylikning umri qisqa, tezda zavol topadi, ammo yaxshi nom uzoq asrlar davomida o'lmaydi. Va - biriktiruv bog'lovchi, uyushiq bo'laklarni bog'lab kelgan. Ammo - zidlov bog'lovchisi, gaplarni o'zaro zidlab bog'layapti.*

70-dars

YUKLAMA HAQIDA MA'LUMOT

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad - o'quvchilarga yuklama haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad - o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad - yuklamalar ma'nosini farqlash malakasini o'stirish.

Darsning jihozi: Darsga doir plakat, sxemalar.

Darsning rejasi:

- 1. Yuklama so'z turkumi haqida tushimcha.
- 2. Yuklamalarning ma'no turlari.
- 3. Mashqlar ishlash.

5-sinfda o'rganilgan «Yuklama» mavzusini esga olish.

1. Yuklamalar lug'aviy ma'noga egami? 2. Yuklamalar gapda bosh bo'lak, ikkinchi darajali bo'lak bo'la oladimi? 3. Yuklamalar so'z va gaplarga qanday ma'no yuklaydi?

1-topshiriq o'qitiladi: 1) *Dalalarda boshlanadi ish -Dalalarda ish boshlanadimi?* Ikkala gapni shaklan qiyoslash topshiriladi. 2. Birinchi gapda qanday maqsad, fikr aytilgan? (xabar). 3. Ikkinchi gapda-chi? (So'roq) 2) *Dalalarda ish boshlandi-ku. -Axir dalalarda ish boshlandi.* Bu gaplar ham shakl jihatdan qiyoslanadi. *Axir, -ku* yuklamalarining ma'nolari izohlanadi.

229-mashq talabiga ko'ra -u, (-yu), -da, na-na yordamchilarining bir o'rinda bog'lovchi, bir o'rinda yuklama vazifasida kelishi tushuntiriladi.

230-mashq talabida yuklamalarning ma'no turini aniqlash. Belgilangan mashqni bajarishda jadval tuzish mumkin. Namuna:

t/b	Yuklamalar	Ma'nolari
1	Nahotki	Kuchaytiruv
2	Naq	O'xshatish-qiyoslash
3	Faqat	Chegaralash
4	Na-na	Inkor

Uyga vazifa: 231-mashq. «Mustaqillik va Navro'z» mavzusida matn

tuzish. Matn tuzish uchun tayanch so'zlar: *Mustaqillik, Navro'z, tinchlik, bahor, sayl, sumalak, boychechak, istiqlol, demokratiya.*

71-dars

SO'F VA VAZIFADOSH YUKLAMALAR

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — yozma nutq madaniyatini shakllantirishda yuklamalardan foydalanishni o'rgatish;

b) tarbiyaviy maqsad — 334-mashq tahlilida «**Onalar bor — olam munavvar**» ma'nosini tushuntirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilar yozma nutqini o'stirish.

Darsning jihozi: rasm-plakat.

Darsning rejasi:

1. Sof yuklamalar.
2. Vazifadosh yuklamalar.
3. Mashqlar ishlash.

Darsning borishi:

Uy vazifasini tekshirib, yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlanadi va tushuntiriladi.

1-topshiriq *-u(-yu), -da* yordamchilarining qaysi o'rinda bog'lovchi, qaysi o'rinda yuklama vazifasida kelayotganini aniqlash topshirilgan.

2-topshiriq bajariladi.

232-mashqda berilgan gaplardan yuklama ishtirok etganini tanlab yoziladi.

233-mashq mustaqil bajariladi.

234-mashq. Yuklamalarni toping va ma'no guruhlariga ajrating.

Ma'nolari	Yuklamalar
<i>So'roq yuklamasi</i>	<i>-mi, -chi, -a, -ya</i>
<i>Ayiruv-chegaralov</i>	<i>faqat</i>
<i>Kuchaytiruv, ta'kid</i>	<i>-ku, hatto, ham, nahot, -da, -yu</i>

Uyga vazifa: 235-mashq.

72-dars

SO'ROQ-TAAJJUB YUKLAMALARI

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — so'roq-taajjub yuklamalari orqali gap va so'zlarning nozik ma'nolarini anglashni o'rgatish;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad — nutqning nozik ma'nolarini anglash, payqash, izohlashga o'rgatish.

Darsning jihozi: jadval, rasmlar.

Darsning rejasi:

1. So'roq-taajjub yuklamalari shakllari, ma'nosi.
2. So'roq-taajjub yuklamalarining imlosi.

1-topshiriqda nuqtalar o'rniga mos yuklamalarni qo'yib, so'roq gaplar hosil qilish topshirilgan. «*Shu maktabda o'qiysiz*» gapning maqsadiga ko'ra qaysi turiga kiradi? (Darak va buyruq gapga kirishi mumkin). Shu darak gapga qavs ichidagi qaysi yuklamani qo'yish mumkin? (-mi, -a). Qanday gap hosil boiadi? (So'roq gap). Shu usul bilan ikkinchi gap ham tahlil qilinib, -chi yuklamasining so'roq ma'nosiga egaligi aniqlanadi.

2-topshiriq bajariladi.

236-mashqni bajarishda so'roq yuklamalarini qatnashtirib, bog'li matn tuziladi, sarlavha qo'yiladi. Namuna: «*Bunyodkor xalq*», «*Baliq ovida*», «*Gulzorda*» mavzularida matn tuzish mumkin.

237-mashqni bajarishda yuklamalarning tagiga chizib, so'roq yuklamalari ajratiladi.

Savol va topshiriqlar asosida yangi mavzu mustahkamlanadi.

Uyga vazifa: 238-mashq. Namuna: *Sizlar o'zi kimsizlar, o'quvchimi? -mi* — so'roq yuklamasi.

73-dars

AYIRUV-CHEGARALOV YUKLAMALARI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — ayiruv-chegaralov yuklamalari haqidagi bilimlarini kengaytirish;
- b) tarbiyaviy maqsad — urushga nafrat hissini uyg'otish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — fikrlash orqali nozik ma'nolarni snglashga o'rgatish.

Darsning jihozi: Mavjud o'quv vositalari, ko'rgazmalar. Darsning rejasi:

1. Ayiruv-chegaralov yuklamalari.
2. Ayiruv-chegaralov yuklamalarining ma'nolari.

Yangi mavzuni tushuntirishda 1—2-topshiriqlardagi *faqat*, *-gina* yuklamalarining vazifasi va ma'nosini aniqlash topshiriladi. *Faqat daraxtlar, ariqlar, ko'priklargina tanish* gapidagi *faqat*, *-gina* yuklamalarining vazifasi aniqlanadi. Ko'rinadiki, bu atrofda ariqlar, daraxtlar, ko'priklardan tashqari, boshqa narsalar ham bor.

3-topshiriqda *faqat*, *-gina* yuklamalarini qatnashtirib, gap tuzish topshirilgan. Namuna: *Dadamlarning shinamgina kutubxonalari bor. Kutubxonaga faqat bizlarga emas, adabiyot muxlislarini ham kirishlariga ruxsat beradilar.*

240-mashqda yuklamalarning ma'nosi izohlanadi.

241-mashqda berilgan yuklamalarni qatnashtirib gap tuziladi. 242-mashqda nuqtalar o'rniga mos yuklamalar qo'yib gaplar ko'chiriladi. Namuna: *U faqat shoirgina emas, balki adabiy tanqidchi ham edi.*

Uyga vazifa: 243-mashq.

Namuna: *Darsga Ahmadgina kelmadi* — *Bolaginam ko'zimning oq-u qorasi.*

74-dars

KUCHAYTIRUV-TA'KID YUKLAMALARI

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad - kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari va uning ma'nolari haqida ma'lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad — qanoatlilik va rostgo'ylik fazilatlarini tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarning fikrlashini rivojlantirish.

Darsning jihozi: mavjud texnik vosita, jadval.

Darsning rejasi:

1. Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari.

2. Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalarining ma'nolari.

3. Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari imlosi.

Birinchi topshiriqda yuklamali gap va yuklamasiz gaplarning ma'no farqiso'ralgan. Yuklamatushirib o'qiladi. *O'shanda dadam frontda edilar.* Gapning bu holatida umumiy hoi, oddiy xabar ifodalangan. O'shanda dadam ham frontda edilar gapi yuklamali bo'lganda, frontda hammaning ichida uning dadasi ham borligi ta'kidlangan. Uchinchi gapdagi *-da* yuklamasi go'zaldan ham go'zalroq, hozirgidan ham o'ta farovon bo'lish ma'nolari ta'kidlanadi.

244-mashqda hozirgacha o'rganilgan yuklamaning turlarini aniqlash talab qilingan.

1-gapda *-da*, 2-gapda *-yu*, 3-gapda *-mi*, 4-gapda *-a*, 5-gapda *faqat*, 6-gapda *-a* 7-gapda *-ya* yuklamalari qo'llangan.

246-mashqda ham yuklamalarning ma'no turini aniqlash, she'rning mazmunini so'zlab berish talab qilingan. She'rda *-chi*, *-mi* so'roq, *ham*, *-ku*, *hatto* ta'kid yuklamalari berilgan.

247-mashq. Uyga vazifa. «**Mustaqillik va milliy urf-odatlar**» mavzusida matn tuzib kelish topshiriladi.

75-dars

O'XSHATISH-QIYOSLASH YUKLAMASI

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — o'xshatish-qiyoslash yuklamalari va ularning ma'nolari haqida ma'lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad — o'zbek tiliga muhabbat tuyg'usini shakllantirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — fikrlash orqali nozik ma'nolarni anglab yetish, dunyoqarashini boyitish.

Darsning jihozi: jadval, kodaskop.

Darsning rejasi:

1. O'xshatish-qiyoslash yuklama shakllari.

2. O'xshatish-qiyoslash yuklamalarining ma'nolari.

Lug'at diktanti o'tkaziladi: *senariy*, *pechak*, *handalak*, *tariq*, *uchta*, *labgardon*. Tushunarsiz so'zlar ma'nosi va imlosi ishlanadi. Gaplar tuziladi.

1-topshiriqda gapdan yuklamalarni tushirib o'qish, gapning ma'nosini

	Bog'lovchi	Ko'makchi	Yuklama
izohlash, yuklamali gap	va...	orqali...	Ham...

ma'nosiga taqqoslab, ma'no farqini tushuntirish talab qilingan.

Otasining xuddi o'zi — *Otasining o'zi*. Birikma tarkibiga *xuddi* yuklamasi qo'shilganda o'xshashlik ma'nosi yanada ortadi.

Sharpa o'tganday bo'ldi gapiga *go'yo* so'zi qo'shilganda sharpaning sezilmas lahzada lip etib o'tishi — harakatning tez bajarilishi, *go'yo* va *-day* qo'shimchasi orqali ifodalangan.

2-topshiriq grammatik o'yin tarzida bajariladi.

248-mashqda gaplarai yozib, yuklamalarning tagiga chizib, ularni aniqlab, vazifasini tushuntirish talab qilinadi.

249-mashqda nuqtalar o'rniga berilgan yuklamalarning mosini qo'yib, vazifasi va ma'nosini aniqlash so'ralgan. Birinchi gapga *мф* ikkinchi gapga *go'yo*, uchinchi gapga *faqat*, to'rtinchi gapga *nahotki* yuklamalarini qo'yish mumkin.

250-mashq. Mustaqil bajariladi. 251-mashq uyga vazifa qilib beriladi.

76-dars

GUMON YUKLAMASI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — o'quvchilarga gumon yuklamasi haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarga ekologik tarbiya berish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — nozik ma'nolarni fahmlash ko'nikmasini o'stirish.

Darsning jihozi: jadval, mavjud texnik vositalar.

Darsning rejasi:

1. Gumon yuklamasi shakli va uning ma'nosi.
2. *-dir* yuklamasining shakldoshligi.

1-topshiriq. U musobaqa g'olibidir gapida *-dir* gumon yuklamasiga shakldosh bo'lib, kesimlik qo'shimchasidir. Bu o'rinda *-dir* kesimni shakllantirishga xizmat qilgan. Sizjni yo'qlab kelgandir gapida *-dir* gumon yuklamasi sifatoshga qo'shilgan.

2-topshiriq mustaqil bajariladi.

252-mashqda *-dir* yuklamasini farqlash va gumon yuklamali gaplarni ko'chirib yozish talab qilingan. 1-, 4-gaplarda kesimlik, 2-, 3-gaplarda *-dir*gumon ma'nolarini ifodalaganligini o'quvchilar yordamida savol-javob orqali aniqlanadi.

253-mashq mustaqil bajariladi.

254-mashqda *-dir* yuklamali so'zlar topish, u so'zlar ishtirokida gap tuzish talab qilingan. — *Kimdir, yaxshidir, senidir, yurgandir, bergandir, kattadir, uxlayotgandir. Kimdir koringanday bo'ldi. Akangning rejalari yaxshidir.*

255-mashq uyga vazifa. Yordamchi so'zlarni aniqlash top-shirilgan. Ularjadvalgajoylansa, yanada tushunarli bo'ladi.

Yordamchi so'zlar

77-dars

NAZORAT DIKTANTI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — o'quvchilar bilimini sinash;
- b) tarbiyaviy maqsad — estetik tarbiya berish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarning savodxonligini o'stirish.

Darsning jihozi: diktant matni.

Darsning rejasi:

- 1. Diktant matni bilan tanishtirish.
- 2. Matn yuzasidan suhbat.
- 3. Diktant yozdirish.

RUHIY NE'MAT

Biz bilarnizki, she'riyatning onasi qadim-qadimgi mehnat qo'shiqlaridir. Ibtidoiy odam qo'shiq bilan hayot zahmatini yengillashtirgan. Qo'shiq nafaqat inson umri — insoniyat umriga yo'ldosh deyish mumkin. Axir, Odam atoga kuy bilan jon baxsh etilgan deb bekorga rivoyat qilmaganlar.

Qo'shiqning joni kuy bo'lsa, vujudi she'rdir. So'z va kuy jism-u jon kabi bir butun bo'lgan joyda haqiqiy qo'shiq paydo bo'ladi va bunday qo'shiqning umri boqiy bo'ladi. Shunday kuyni yaratgan ham, shunday she'rni yozgan ham dunyoga kelganidan rozi bo'lsa haqli. Chunki olamda eng mushkul va murakkab ish — odamlar ko'ngliga yo'l topishdir.

Mamnuniyat bilan aytish mumkinki, bizning ana shunday qo'shiqlarimiz bor. Mehnatkash, tanti, zukko xalqimiz didiga munosib qo'shiqlarimiz bor. Birinchi navbatda klassik merosimiz bilan faxrlansak arziydi. Zamonaviy bastakorlarimiz ham chiroyli asarlar bilan elni xushnud qilmoqda. Endi istagimiz - ko'pchilik jam bo'lib aytadigan qo'shiqlarni ko'proq yaratish, davralarda, yo'llarda jaranglatib kuylaydigan ashulalar yaralishi kerak. Umuman, bizda negadir bazm-u yig'inlarda, safarda ko'pchilik bo'lib ashula aytish uncha rasm bo'lmagan. Qo'shiq aytish - xonandaning, artistning ishi deb bilarniz, ko'proq eshitib maza qilishni afzal ko'ramiz. Aslida, qo'shiq aytishning shukuhi o'zgacha. Kishi ruhan yengil tortadi.

78-dars

DIKTANTNING TAHLILI

Darsning jihozi: diktant matni, kodaskop.

Darsning rejasi:

- 1. Imlo xato turlarini guruhlash.
- 2. Ishoraviy xatolar ustida ishlash.
- 3. Shakliy xatolar ustida ishlash.

Dastlab, o'quvchilarning imlo xatolari guruhlanadi.

- a) so'zlarning yozilishiga oid xatolar;
- b) qo'shimchalarning yozilishiga oid xatolar;
- d) tinish belgilariga oid xatolar.

Bu xatolarni izohlab, tegishli qoidalarni eslatiladi. To'g'ri yozish uchun til

qoidalarini yaxshi bilish va amalda qo'llay olish usullari haqida to'xtalinadi. Xatolarga oid misollar yozdiriladi. Eng ko'p xato qilingan so'zlarni sinf taxtasiga aytib yozdiriladi. Bu usul qoidani yodda saqlash imkoniyatini oshiradi. So'ng ishoraviy xatolar guruhlanadi. Bunda nuqta, vergul, so'roq va undov belgilariga oid xatolar ustida ishlanadi.

Uchinchi bo'lib grafik xatolar, ya'ni harflarni to'g'ri yozish haqida to'xtalib o'tiladi.

Saylanma diktant

1. *Musofir bo'l, ammo Vatan ichra bo'l. (Alisher Navoiy)* 2. *Menga Pushkin bir jahon-u, Menga Bayron bir jahon, Lek Navoiydek bobom bor, Ko'ksim osmon, o'zbekim! (E. Vohidov)* 3. *Quyosh charaqlab turgan bo'lsa ham, ammo sovuq izzilatar edi.* 4. *Namoz bilan Hamdamboyning nigohlari duch kelib qoldi.* 5. *Yomon til yo jonga urar, yo iymonga.* 6. *Na ko'kning fonari o'chmasdan, na yulduz sayr etib ko'chmasdan... burun turar edi bizning Jontemir. (Uyg'un)*

Bog'lovchilarning turiga qarab jadvalga joylang.

Bog'lovchi turlari	Bog'lovchilar
Teng bog'lovchilar	ammo, yo-yo, lek
Ergashtiruvchi bog'lovchilar	
Vazifadosh bog'lovchilar	bilan, na-na

Uyga vazifa: Takrorlash.

79-dars

TESTLAR USTIDA ISHLASH

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad— o'quvchilar bilimini sinash;
- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — grammatik tushunchalarni anglash tuyg'usini rivojlantirish.

Darsning jihozi: test materiallari.

Darsning rejasi:

- 1. Test materiallarini tarqatish.
- 2. Test yechish.

O'quvchilarga yil boshida testlar ustida ishlash daftari tuttiriladi. Test ustida ishlash darslarida unga quyidagi jadval chizdiriladi.

O'qituvchi o'tilganlarni mustahkamlash va o'quvchilarning bilimini nazorat qilish uchun har bir yirik mavzular o'tilganidan so'ng testlar ustida ishlash darsini uyushtiradi.

Bu darsni uyushtirishda o'quvchi darsHkning oxirida berilgan test savollarini namuna sifatida qabul qiladi. U boshqa testlardan ham foydalanishi mumkin.

Testlar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
Javob																			
Ball																			
jami ball																			

O'quvchilar «Javob» qatoriga 1-D, 2-B, 3-S kabi belgilab berishadi. To'g'ri javob uchun 1 ball, noto'g'ri javob uchun 0 ball beriladi. To'g'ri javoblar hisoblanib, jami ball chiqariladi.

Eslatma: Dars uchun testlar tuzish o'qituvchi zimmasiga yuklatiladi.

80-dars

UNDOV SO'ZLAR

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — undov so'zlar va ularning ma'nosi haqida ma'lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarga jonivorlarga nisbatan mehr-shafqat tuyg'usini singdirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — intizom tuyg'ularini rivojlan-tirish.

Darsning jihozi: uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar rasmlari, tabiat tasviri.

Darsning rejasi:

1. Undov so'zlar.

2. Undovlarning ma'no turlari.

Dars o'quvchilarning quyi sinflarda olgan bilimlarini eslashi bilan boshlanadi:

1. Undov deb qanday so'zlarga aytiladi?

2. Undov so'zlar ma'nosiga ko'ra necha xil bo'ladi? O'quvchilar 5-sinfda undov so'zlar haqida dastlabki ma'lumotni olganlar. Shunga asoslanib savollarga javob beradi. So'ng 1-topshiriqni mustaqil o'qib chiqish topshiriladi va o'quvchilardan biri 1-2 minut oralig'ida tayyorlanadi. Hamda har bir gapni bir o'quvchi izohlab beradi. Qolgan o'quvchilar javoblarni to'ldiradi.

Ijodiy ishlash. O'qituvchi sinf xattaxtasiga uy va yovvoyi hayvonlar rasmini ilib qo'yadi. O'quvchilar rasm asosida undov so'zlar ishtirok etkazib gap tuzadilar.

256-mashqda berilgan gaplardagi undov so'zlarning ma'nosi izohlanadi.

257-mashq mustaqil bajariladi. O'quvchilar *chu, o'h-ho', labbay, ey* undovlari ishtirokida gaplar tuzadilar. Namuna: *O'h-ho'-o', - dedi Badia, - gap ta'sir qilmasligini bilardig-u qo'lti-g'ingizda tumor borligini bilmas ekanmiz.* (Mirmuhsin) 258-mashq o'yin tarzida tashkil qilinadi. Bunda uchta ko'prik rasmi chizilgan plakat (yoki kodaskopda tushiriladi) taxtaga ilinadi. Faqat undovlardan iborat ko'prik mustahkamligi aytiladi. O'quvchilar ko'prikni to'g'ri tanlasa, suvga tushmay, u qirg'oqqa o'tishi aytiladi. O'quvchilar mustahkam ko'prikni topishadi.

Uyga vazifa: 259-mashq. «**O'zbek xalq ertaklari**» kitobidan undov so'zlar qatnashgan gaplarni yozib, ma'no turlarini ajratish topshiriladi.

81-dars

HIS-HAYAJON UNDOVLARI

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad - his-hayajon undovlari va ularning vazifasi haqida ma'lumot berish;

a) tarbiyaviy maqsad- o'quvchilarni hamdardlik, boshqalarga mehribonlik ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad - undov so'zlar bo'yicha olgan bilimlarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: his-hayajon undovlari yozilgan jadval, mavjud texnik vositalar.

101

Darsning rejasi:

1. His-hayajon undovlari.
2. His-hayajon undovlarining ifoda turlari.
3. His-hayajon undovlarining vazifasi.

Dars uy vazifani tekshirishdan boshlanadi. 1 -topshiriqda berilgan gaplardagi undovlar qanday hayajonni ifodalayotganini aniqlash talab etiladi: 1. *Oh* (rohatlanish), *qanday go'zal bu olam!* 2. *Oh* (norozilik), *falak, yiqil boshimga.* 3. *Uff!.. — dedi Xatira xola jilmayib* (zorlanish). 4. *Iye... Butun boshliq birodam tirilib keladi-yu, ovoragarchilik bormi?* (xursandchilik). 5. *Voyey, bolam boyaqish-ey* (achinish). So'ng jadval asosida nazariy bilim beriladi,

His-hayajon undovlari

Quvonch	Erkalash- erkalanish	Rohatlanish	Hayron qolish	Norozilik	G'azab -nafrat	Og'riq
Voy, ehe, o'h-ho', hay-hay, o, ha-ya	Ho, o, eh-a, ha...	Oh-oh, hay- hay	Iya, iyi	Voyey, uf	E, eh- he, obbo	Voy- voy, uh

260-mashqda berilgan gaplarni o'qib, undov so'zlar qanday hissiyotni ifodalayotganligi aniqlanadi. Namuna: *Voy-bo'*, — *deb yubordi-yu. — Yerimiz muncha chiroyli! Voy-bo'* — hayratlanish hissiyotini ifodalamoqda. 262-mashqni bajarishda undovlar ishtirok etgan gaplaryoziladi. Namuna:

1. *Boshoq tortmasdan bug'doy, Yeb qo'yibdi qo'y, ey-voy.*
2. «*Voy, to'ymagur, berib yubording, o'z ko'nglingda sen ham uloqchisanda!*».
3. *O', ma'lumotli ekansiz-ku!*

Uyga vazifa. 263-mashqni bajarishda *Uf, oh, voy, ie, o'h-ho', bay-bay* undovlarini qatnashtirib gaplar yoziladi. Bular qanday undovlar ekanligini topadilar. Namuna:

- *O'h-ho'-o' - dedi Badia.* (Mirmuhsin) - (*o'h-ho'- his-hayajon undovi, hayrat ifodalayapti.*)

82-dars

BUYRUQ-XITOB UNDOVLARNI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad - buyruq-xitob undovlari haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad - jonivorlarga mehr-shafqat ruhida tarbiyalash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad - o'quvchilar nutqini rivojlantirish hamda savodxonligini oshirish.

Darsning jihozi: mayjud texnik vositalar, jadval.

Darsning rejasi:

1. Buyruq-xitob undovlari.
2. Buyruq-xitob undovlarida tinish belgilarining qo'llanilishi.

Uy vazifa o'qitib tekshiriladi. So'ng 1-topshiriqda berilgan undovlarni ajratib (*hey, tiss, chu, ho'sh*), ularning kishilarga (*hey, tiss*) yoki jonivorlarga (*chu*) qaratilganligi aniqlanadi. So'ng o'quvchilar hayvon va parrandalarni haydash-chaqirish uchun ishlatiladigan undovlarni yozish topshiriladi (*chu, kisht, pisht, mah-mah, beh-beh, qurey-qurey*), so'ng jadval asosida nazariy ma'lumot beriladi.

264-mashqni bajarishda gaplarni ko'chirib, undovlarning tagiga chizib, ularning ma'nosi tushuntiriladi. Namuna: *Ey, qotil nega shunday katta azim terakni nobud qilding?* *Ey* — buyruq-xitob undovi bo'lib, tinglovchining diqqatini tortish uchun ishlatilgan.

265-mashq mustaqil ish tarzida bajariladi. O'quvchilar buyruq-xitob undovlari qatnashgan 6 ta gap yozadilar va undovlarning qanday ma'no anglatayotganini topadilar. Namuna: *Vuy, juda qo'rquyapman.* (Mirmuhsin) *Vuy* - undov, his-hayajon undovi, qo'rquv tuyg'usini ifodalayapti.

266-mashqda berilgan undovlar ma'no guruhlariga ajratiladi va jadvallarga joylashtiriladi.

Buyruq-xitob undovlari	His-hayajon undovlari
<i>Hey, tiss, chu, chi-chi, ho'sh, labbay, kisht, ish-ish, xormang, hoy</i>	<i>Oh, uh, e, o'h-ho', oy, voh, iya</i>

Savol va topshiriqlar bilan ishlanadi. Uyga vazifa: 267-mashq. «**Hayvonot bog'ida**» mavzusida matn tuzish.

83-dars**TAQLID SO'ZLAR****Darsning maqsadi:**

- a) ilmiy maqsad — o'quvchilarning taqlid so'zlar haqidagi bilimlarini kengaytirish;
- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni halollik ruhida tarbiyalash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarga ekologik tarbiyani singdirish.

Darsning jihozi: uy hayvonlari hamda yovvoyi hayvonlarning rasmi, tabiat tasviri, taqlid so'zlar ishtirok etgan gaplar yozilgan plakat.

Darsning rejasi:

1. Taqlid so'zlar.

2. Tovushga taqlid so'zlar.
3. Holatga taqlid so'zlar.

Dars boshida taqlid so'zlar yozilgan plakatni sinf xattaxtasiga ilib, taqlid so'zlarni topish buyuriladi. O'quvchilar taqlid so'zlar haqida 5-sinfda ma'lumot olgan bo'lib, o'sha asosida taqlid so'zlarni topadilar hamda ajratilgan taqlid so'zlar nimaga taqlid qilina-yotganini aytib beradilar.

Taqlid so'zlar

1. *Dupur-dupur ot keldi, ko'chani qarang kim keldi. (qo'shiq)*
2. *Chiroq lip-lip etdi.*

O'quvchilar berilgan topshiriqni bajargach, 5-sinfda o'tilgan qoida eslatiladi: narsalarning tovushiga va holatiga taqlidni bildirgan so'zlar taqlid so'zlar deyiladi.

O'qituvchi taqlid so'zlar nimaga taqlid bildirishiga ko'ra ikkiga bo'linishini tushuntiradi.

Yangi mavzuni mustahkamlash. 268-mashqni bajarishda gaplarni ko'chirib, taqlid so'zlarning tagiga chiziladi va ma'no turi aniqlanadi. Namuna: *Namoz... g'azabi oshib dag'-dag' qaltiray boshladi, — o'zi bo'g'ilib o'lgan u muttaham! Dag'-dag'* — taqlid so'z, holatga taqlidni bildirmoqda. 269-mashq «**Intervyu olish**» o'yini tarzida bajariladi. Sinf dan bir o'quvchi «**Jurnalist**» rolini bajaradi. U sinfdagi o'quvchilardan «*intervyu*» oladi.

MUSTAQIL ISH

270-mashqda berilgan *qars-qurs, lip-lip, tars, yilt-yilt, ship, yarq, g'a-g'a, giyq* so'zlari ma'noviy guruhlariga ajratiladi:

Tovushga taqlid: *qars-qurs, tars, ship, g'a-g'a, giyq.*

Holatga taqlid: *lip-lip, yilt-yilt, yarq.*

So'ng sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi: «**Lochinlar**» va «**Burgutlar**» har bir guruh taqlid so'zlarning bir ma'noviy guruhiga gap tuzadi.

Uyga vazifa. 271-mashq. «**Bolalar bog'ida**» sarlavhali hikoya yozish hamda hikoyada taqlid so'zlardan foydalanish zarurligi aytiladi. Taqlid so'zlarning tagiga chizib, ma'no guruhini aniqlash topshiriladi.

84-dars

TAQLID SO'ZLARNING TUZILISHI VA IMLOSI

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — taqlid so'zlarining tuzilishi va imlosi haqida ma'lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarga estetik tarbiya berish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarning savodxonligini rivojlantirish.

Darsning jihozi: Taqlid so'zlar yozilgan jadval, mavjud texnikvositalari.

Darsning rejasi:

1. Sodda taqlid so'zlar.

2. Takror taqlid so'zlar.

1-topshiriqda berilgan taqlid so'zlarni jadvalga joylashtirish talab etiladi:

Sodda taqlid so'zlar	Takror taqlid so'zlar
-----------------------------	------------------------------

<i>Ship, tars, qirs</i>	<i>Gumbur-gumbur, chars-churs, shitir-shitir, taq-tuq, yarq-yurq, yilt-yilt, qiy-chuv, duk-duk.</i>
-------------------------	---

Takror taqlid so'zlar qanday yozilganiga e'tibor qaratish so'raladi. So'ng o'qituvchi qismning aynan takrorlanishidan yoki ayrim tovush o'zgarishi bilan takrorlanishidan hosil bo'lgan taqlid so'zlar takror taqlid so'zlar deb yuritilishini bayon qiladi va takror taqlid so'zlar chiziqcha bilan yozilishiga urg'u beradi. Sinf taxtasiga taqlid so'zlar yozilgan jadvalni ilib, sodda va takror taqlid so'zlar o'rtasidagi ma'no farqlanishini izohlash talab etiladi.

Sodda taqlid so'zlar	Takror taqlid so'zlar
<i>Ship, yarq, yilt, tars</i>	<i>ship-ship, yarq-yurq, yilt-yilt, tars-turs</i>

Bunda sodda taqlid so'zlarning bir martaligiga, takror taqlid so'zlar taqlidning davomiyligi yoki holatning kuchliligini bildirishiga e'tibor qaratiladi.

272-mashqni bajarishda sodda va takror so'zlarning farqini ajratish malakasi mustahkamlanadi.

273-mashqda berilgan gaplar ichidagi taqlid so'zlarning tuzilishiga ko'ra turi va yozilishi izohlanadi. Namuna: *Shunday bo'lsa ham, vujudini tutgan qalt-qalt titroqni bosib, hazilomuz qichqirdi. Qalt-qalt* takror taqlid so'z bo'lib, chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

274-mashqni bajarishda quyidagi jadvaldan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Taqlid so'zlarning ma'noviy guruhi	Sodda taqlid so'zlar	Takror taqlid so'zlar
Tovushga taqlid so'zlar	<i>g'iyq, miyov, mo'</i>	<i>shildir-shildir, qah-qah, piq-piq</i>
Holatga taqlid so'zlar	<i>lip</i>	<i>lip- lip</i>

Taqlid so'zlar jadvalga joylashtirilgach, ular ishtirokida gap tuzish topshiriladi. Namuna: Tulki lip etib ko'zdanyo'qoldi.

O'tilgan mavzuni yakunlashda savol va topshiriqlardan foydalaniladi.

275-mashq uyda bajariladi. Mashqni ko'chirib, taqlid so'zlarning tagiga chizish topshiriladi. Namuna: *Baka-baka-bum* takror taqlid so'z. Tovushga taqlidni bildiradi.

85-dars

MODAL SO'ZLAR

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — modal so'zlar haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni qarindosh-urug'lariga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarda mehr-oqibat tuyg'usini rivojlantirish.

Darsning jiliozi: mavjud texnika vositalari.

Darsning rejasi:

1. Modal so'zlar.
2. Modal so'zlarda tinish belgilarining ishlatilishi.

Yangi mavzu «tarmoqlar» metodi asosida olib boriladi. Buning uchun sinf ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh «**Topqirlar**», ikkinchi guruh «**Chaqqonlar**» deb nomlanishi mumkin. Har ikki guruhga alohida topshiriq beriladi. «**Topqirlar**» guruhi «Modal so'zlar» mavzusida «**Chaqqonlar**» guruhi «Modal so'zlarda tinish belgilarining ishlatilishi» mavzusida ma'ruza tayyorlaydi. Buning uchun 2-3 daqiqa vaqt ajratiladi. Ma'ruza tayyorlashda darslikdagi 1-, 2-topshiriq hamda nazariy materialdan foydalaniladi. Guruh o'z a'zolari ichidan bitta asosiy ma'ruzachi, bitta qo'shimcha ma'ruzachi tanlaydi. Bu ma'ruzachilar guruhga berilgan mavzu bo'yicha darsni bayon qiladi. 1-ma'ruzachining kamchiligini qo'shimcha ma'ruzachi to'ldiradi. Ikkinchi guruh savollar bilan murojaat qilishi mumkin. 276-mashqni bajarishda «**Topqirlar**» bajaruvchi, bitta opponent bo'ladi. Bunda modal so'zlarning tagiga chizish topshiriladi. Namuna: *To'g'ri, qishloq tomonga bir-ikki qadam bosdim.* 277-mashqni bajarishda ma'ruzachi «**Chaqqonlar**» bajaruvchi «**Topqirlar**» opponent bo'ladi. 278-mashqni bajarishda berilgan so'zlar ichidan modal so'zlarni ajratib olib, ular ishtirokida gaplar tuziladi. O'qituvchi guruh a'zolarining ishtirokini baholab beradi.

279-mashq uyda bajariladi. X.To'xtaboyevning «Sariq devni minib» asaridan modal so'zlar qatnashgan o'nta gap yozib kelish topshiriladi. Namuna: *Aytgandek, esimdan chiqib qolayozibdi, Orif bilan birga o'qiymiz, bir partada o'iiramiz.* (X. To'xtaboyev)

86-dars

MODAL SO'ZLARNING MA'NO GURUHLARI

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — modal so'zlarning ma'naviy guruhlari haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilar tafakkuri va nutqini o'stirish.

Darsning jihozi: modal so'zlarning ma'naviy guruhlari yozilganjadval.

Darsning rejasi:

1. Modal so'zlarning ma'naviy guruhlari.
2. Mashqlar ishlash.

O'quvchilar uyda yozib kelgan gaplarini o'qib, modal so'zlarni ajratib ko'rsatadi. So'ng 1-topshiriq bajariladi. *albatta, afsuski, darhaqiqat, ehtimol,*

shekilli so'zlari ishtirokida gap tuzadilar. Namuna: — *Ha, albatta,* — dedi sipolik bilan Me'mor. (Mirmuhsin)

Tuzgan gaplaridagi modal so'zlarning bayon qilingan fikrga so'zlovchining qanday munosabatini ifodalayotganini aniqlash topshiriladi. O'quvchilarning javobi to'ldirilib, umum-lashtiriladi hamda o'quvchilar yozgan misollar tahlili davomida modal so'zlarning ishonch, gumon, tasdiq, fikrni xulosalash, fikrning tartibi, fikrning dalillari kabi ma'noviy guruhlariga bo'linishi bayon qilinadi. Yangi mavzuni mustahkamlashda 280-mashqda berilgan jadvaming misollar uchun ajratilgan qismi to'ldiriladi.

Namuna:

Modal so'zlarning ma'noviy guruhlari	Modal so'zlar	Misol
Ishonch munosabati	<i>Albatta, shaksiz, shubhasiz</i>	<i>Shubhasiz, adolat g'olib keladi.</i>
Gumon munosabati	<i>Ehtimol, balki, chamasi, shekilli, aftidan</i>	<i>Ehtimol, tongga yaqin shamol tinib qolar.</i>
Tasdiq munosabati	<i>Darhaqiqat, haqiqatan</i>	<i>Darhaqiqat, pulsiz hech ish qilib bo'lmaydi. (Mirmuhsin)</i>
Fikrni xulosalash munosabati	<i>Xullas, demak, xullasi kalom, umuman</i>	<i>Xullas, hayot oqimi to'xtamaydi.</i>
Fikrning tartibi	<i>Avvalo, avvalambor</i>	<i>— Avvalambor,— dedi Me'mor ularga, — sizlarni xudo yarlaqasin. (Mirmuhsin)</i>
Fikrning dalillari	<i>Masalan, jumladan</i>	<i>Jumladan, suv tarkibida ham vodorod mavjud.</i>

281-mashqda berilgan gaplarni yozish, modal so'zlarni topib, ular anglatgan ma'noni tushuntirish talab etiladi. Namuna: *Xullas, biz ulug'odamlarningfarzandlarimiz. Xullas* — modal so'z, fikrni xulosalash munosabatini ifodalayapti.

282-mashqda berilgan gaplarni ko'chirib, modal so'zlarning ma'nosi aniqlanadi.

Yangi mavzuni yakunlashda savol va topshiriqlar bilan ishlanadi.

Uyga vazifa. 283-mashq. Modal so'zlardan foydalanib «**Mustaqillik — millat ravnaqi**» mavzusida matn tuzish. Matn tuzish uchun tayanch so'zlar: *istiqlol, demokratiya, tarraqqiyot, bunyodkorlik, c'g'lom avlod.*

87-dars

SOF VA VAZIFADOSH MODAL SO'ZLAR

Darsning maqsadi:

- ilmiy maqsad — sof va vazifadosh modal so'zlar haqida bilim berish;
- tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad — intizom tuyg'usini rivojlantirish.

Darsning jihozi: sof va vazifadosh modal so'zlar ishtirok etgan gaplar yozilgan plakat.

Darsning rejasi:

1. Sof modal so'zlar.
2. Vazifadosh modal so'zlar.
3. Vazifadosh modal so'zlarning qo'llanishi.

1. **Shubhasiz**, biz g'olib chiqamiz. — Bizning g'olib chiqishimiz **shubhasiz**.

2. **Aftidan**, u yolg'on gapiryapti. — Uning yolg'on gapirayotgani **aftidan** bilinib turibdi.

3. **Balki**, siz haqdirsiz. — Siz emas, **balki** u haqdir.

O'quvchilarga ajratib ko'rsatilgan so'zlar qanday ma'no ifodalayotganini aniqlash topshiriladi. So'ng o'qituvchi berilgan jadval asosida modal so'zlarning sof va vazifadosh modal so'zlarga bo'linishini tushuntiradi. Ayrim so'zlar faqat modal ma'no ifodalash uchun xoslanganligini, bunday so'zlar sof modal so'zlar deyilishini aytadi. Lekin ayrim so'zlar mustaqil so'zlardan hosil bo'lgan bo'iib, ular modal ma'nodan boshqa ma'nolarda ham qo'llanishiga e'tibor qaratadi.

Sof modal so'zlar	Vazifadosh modal so'zlar
Haqiqatan, darhaqiqat, afsuski, attang, albatta, shekilli, avvalo, avvalambor, xullas, masalan, umuman, taxminan	Aftidan, chamasi, balki, ehtimol, shubhasiz

O'qituvchi mavzuni bayon qilgach, «Ha-yo'q» o'yini asosida 284-mashq bajariladi. Mashqda vazifadosh modal so'zlarning har ikki vazifada kelish holatiga misollar berilgan bo'iib, bu mashq guruh asosida emas, o'quvchilar bilan individual ishlanadi. O'quvchilar 1—2 daqiqada o'qib tanishib chiqishadi. So'ng o'qituvchi umumiy savol beradi: Bu gapdagi ajratilgan so'z modal so'zmi yoki boshqa ma'noda qo'llanganmi? So'ng u gapni tez o'qiydi, o'quvchi modal so'z bo'lsa, «Ha» deb boshqa vazifada kelgan bo'lsa «Yo'q» deb javob beradi. Namuna: **Qizim, bo'ron bo'lishi ehtimol — Yo'q. Ehtimol, bu onasidan yagona esdalik. — Ha.**

285-mashq o'quvchilarning sof va vazifadosh modal so'zlarni farqlash malakasini o'stirish uchun mo'ljallangan bo'iib, avval sof (1-, 2-, 3-, 5-gaplar) modal so'zlar, so'ng vazifadosh modal so'zlar (4-gap) qatnashgan gaplarni ko'chirib yozish topshiriladi. 286-mashq ham «Ha-yo'q» o'yini tarzida bajariladi. Savol va topshiriqlar bilan ishlash.

Uyga vazifa. 287-mashqda berilgan *aftidan, chamasi, ehtimol, shubhasiz, balki* so'zlarini avval modal so'z ma'nosida, so'ng o'z ma'nosida qo'llab gaplar tuzib, ularning farqini aniqlash topshiriladi. Namuna: *Shubhasiz, biz rejani bajaramiz - Bizning rejani bajarishimiz shubhasiz.*

88-dars

TASDIQ VA INKOR SO'ZLAR

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — tasdiq va inkor so'zlar haqida ma'lumot berish;
 b) tarbiyaviy maqsad — tabiatga muhabbat ruhini singdirish; d) rivojlantiruvchi maqsad — og'zaki va yozma nutqni o'stirish.

110

Darsning jihozi: tasdiq va inkor so'zlar yozilgan jadval, mavjud texnik vositalar.

Darsning rejasi:

1. Tasdiq so'zlar.
2. Inkor so'zlar.
3. Mashqlar ustida ishlash.

Uy vazifa o'qitib tekshiriladi. Daftarlarni tekshirish uchun yig'ishtirib olinadi. So'ng o'qituvchi 1-topshiriqni o'qishni buyuradi. O'quvchilar matnni mustaqil o'qib, ajratib ko'rsatilgan so'zlarni quyidagi jadvalga joylashtiradilar hamda ular ifodalagan ma'noni izohlaydilar.

Tasdiq so'zlar	Inkor so'zlar
<i>Ha, mayli, xo'p</i>	<i>Yo'q</i>

Jadval asosida o'qituvchi *ha, xo'p, mayli* singari so'zlar tasdiq so'zlar ekanligini, *yo'q, mutlaqo, aslo* singari so'zlar esa inkor so'z hisoblanishini, bunday so'zlar dialogik nutqda *-mi* so'roq yuklamasi orqali ifodalangan so'roq gaplarning javobi bo'lib kelishi tushuntiriladi.

288-mashqni bajarishda berilgan so'zlardan (*yo'q, aslo, yo'q-yo'q, xo'p-xo'p, mayli*) mosini nuqtalar o'rniga qo'yib ko'chirish topshiriladi. Namuna: — *Sizlarga uy topib bersam, qiroatxona ochmaysizlarmi?* — *Mayli, ochamiz. Lekin kitoblarni qayerdan olarniz.* 289-mashqda berilgan gaplarni yozib, tagiga chizilgan so'zlarning ma'nosini tushuntirish va turini aytish so'raladi. Namuna: *Ayting-chi, siz shu gaplarga ishonasizmi?* — *Mutlaqo* inkor so'z bo'lib, inkor ma'nosini bildiriyapti.

Yangi mavzuni yakunlash uchun savol va topshiriqlar bilan ishlanadi.

O'qituvchi o'quvchilarning javobini umumlashtirib, to'ldirib, darsni yakunlaydi.

Uyga vazifa'. 290-mashq. Uyda «**Otam bilan suhbat**» mavzusida dialog tuzish, dialogda tasdiq va inkor ifodasidan foydalanish hamda ularning tagiga chizib, ma'nosini tushuntirish topshiriladi.

89-dars**MUSTAHKAMLASH****Darsning maqsadi:**

- a) ilmiy maqsad — o'quvchilarning yuklamalar bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash;
 b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarda ijobiy xislatlarni rivojlantirish;
 d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish.

Darsning jihozi: mavjud texnik vositalar.

Darsning rejasi:

1. Savol va topshiriqlar ustida ishlash.
2. Mashqlar bajarish.

O'quvchilarni test javoblari bilan tanishtirib, qilgan xatolari izohlab beriladi. Shundan so'ng takrorlash uchun berilgan savollar ustida ishlanadi. Savollar asosan yuklama, undov, taqlid, modal, tasdiq va inkor so'zlar bo'yicha olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilar savollarga javob bergach, o'qituvchi umumlashtirib, to'ldirib yakunlaydi.

1-topshiriqda berilgan gaplarni yozishda imlo qoidalariga rioya qilish talab etiladi. Bunda yuklamalarning yozilishi bo'yicha olgan bilimlari mustahkamlanadi. Namuna: Kimsan akam birpas qarab turdi-da, indamay chiqib ketdi.

2-topshiriqni bajarishda berilgan so'zlar jadvalga joylanadi va ular ishtirokida gaplar tuziladi. Namuna:

Undov so'zlar	Taqlid so'zlar	Yuklamalar
oh, ey, iye, eh-he, voy, beh-beh, kisht, obbo	milt-milt, sharaq- shuruq, tiq, dag'- dag'	nahotki, ham, hattoki

Nahotki, yerimiz chappa aylanib, Nahotki, datyolar oqar teskari. (G'afur G'ulom)

Uyga vazifa: 4-topshiriqni bajarish.

90-dars

IJODIY BAYON

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — o'tilgan mavzular bo'yicha olingan nazariy ma'lumotlarni amaliy qo'llash;
- b) ta'biyaviy maqsad — o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — og'zaki va yozma savodxonlikni o'stirish.

Darsning jihozi: bayon matni.

Darsning rejasi:

1. Bayon matni bilan tanishish.
2. Bayon matni ustida suhbat o'tkazish.
3. Reja tuzish.
4. Bayon yozish.

O'qituvchi bayon matnini o'qib beradi. So'ng o'quvchilar bilan matn sujeti yuzasidan suhbat o'tkaziladi. O'quvchilar reja tuzadilar. Reja asosida bir-ikki o'quvchi bayon mazmunini so'zlab beradi. Shundan keyin o'quvchilar bayonni yozishadi hamda ijodiy davom ettirishadi.

HAQQUSH

Do'stlarim: «Juda siqilib ketdingiz, aylanib kelarniz», deb toqqa sudrashdi. Alla-pallagacha o'tgan-ketgandan gaplashib o'tirdik. Qiziq, har gal bosh ustiga bosib tushgudek mag'rur qad kerib turgan tog'larni, ulkan novvot parchasidek qirrador qoyalarni ko'rganda hayot abadiy emasligini o'ylayman. Qorong'i

osmonda yana ham qoraroq soyadek qilt etmay turgan bu qoyalar bizga o'xshaganlarning necha-nechasini ko'rdi ekan?.. Faqat ularning tili yo'q...

Kechasi tunagan joyimiz sovuq edi. Anchagacha uxlay olmadim. Tashqarida teraklar shitirlaydi. Qayerdadir, yaqin jbyda daryo shovillaydi. Bir mahal qulog'imga dilni orziqtiruvchi mungh' tovush chalindi: «Haq-qu, haq-qu...» Bir zum sukunat tushdi-da, ancha ohsdan yana o'sha tovush takrorlandi: «Haq-qu, haq-qu...»

Bola edim, go'dak edim. Onam aka-ukalar haqida g'alati bir cho'pchak aytib bergan edi. Emishki, bir zamonlar ikki aka-uka yashagan ekan. Birining oti Ilhaq, ikkinchisidiki Is'hoq ekan. Ikkalasi bir-birini ko'rarga ko'zi yo'q, juda noahil ekan. Ularning ko'nglini olaman, deb ikki o'rtada onalari adoyi tamom bo'пти. Shunda qodir tabiatning qahri kelibdi-yu, ikkovining ham ko'zini ko'r qilib, qushga aylantirib qo'yibdi. Shundagina aka-uka bir-birini ko'rmasa turolmasligini, bir-biriga kerak ekanligini tushunibdi. O'shandan beri ikkalasi kechalari bo'zlab bir-birini chaqirib chiqarmish-u, topolmas emish...

Tashqarida hamon terak baiglari shitirlaydi. Daryo shovillaydi. Mana shu shovillagan sukunat ichida dilni titratadigan iztirobli nido yangraydi: «Il-haq! Il-haq!...»

Bechora onam! O'sha iztirobli afsonani aytayotganingda inidan mo'ralagan qaldirg'och bolasidek ko'rpadan bosh chiqarib yotgan besh bolang bir-biri bilan inoq boiishini shunchalik xohla-maganmiding!

...Onalar farzandlarini hamisha birga bo'lishini istaydilar. Qismat esa, ularni qanot chiqarishi bilan har yoqqa uchirib ketadi. Hayot loaqal shu masalada ham onalarga shafqat qilmaydi.

(O'tkir Hoshimov)

91-dars

BAYONNING TAHLILI

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad - o'quvchilarni yozma nutq malakasini o'stirish;
a) tarbiyaviy maqsad- o'quvchilarda o'z harakatiga tanqidiy qarash tuyg'usini tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad - og'zaki va yozma savodxonlikni o'stirish.

Darsning jihozi: bayon matni.

Darsning rejasi:

1. Imloviy xatolar ustida ishlash.
2. Uslubiy xatolar ustida ishlash.
3. Ishoraviy xatolar ustida ishlash.

O'quvchilarga daftarlarni tarqatib, xatolari bilan tanishib chiqish topshiriladi. So'ng o'qituvchi avvaldan umumlashtirib qo'ygan tipik xatolarga oid lug'at diktant o'tkazadi. Lug'at diktantda o'quvchilarning bayonida uchragan imlo xatoga oid qoidalar mustahkamlanishi mumkin bo'lgan so'zlar tanlanadi. O'qituvchi matnni ko'chma taxtada avvaldan tayyorlab qo'yadi. O'quvchilar ana

shu matnga qarab xatolarni tuzatadilar. Bu keyinchalik ana shunday imlo xatolarini takrorlanmasligiga asos bo'ladi.

Imlo xatolar ustida ishlab bo'lingach, o'quvchilar bayonida uchragan uslubiy xatolar va ularning sabablari o'quvchilarga tushuntiriladi. Tegishli nazariy qoidalar takrorlanadi.

Ishoraviy xatolar ustida ishlashda o'quvchilarning qaysi ishoraga oid xato qilgan bo'lsa, o'sha ishoraning ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan nazariy qoidalar takrorlanadi.

Uyga vazifa: «**Mening onam**» mavzusida ijodiy matn tuzish.

92-dars

TESTLAR USTIDA ISHLASH

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — o'quvchilar bilimini sinash;
- b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad — grammatik tushunchalarni anglash tuyg'usini rivojlantirish.

Darsning jihozi: test materiallari.

Darsning rejasi:

1. Test materiallarini tarqatish.
2. Test yechish.

O'quvchilarga yil boshida testlar ustida ishlash daftari tuttiriladi. Test ustida ishlash darslarida unga quyidagi jadval chizdiriladi.

O'qituvchi o'tilganlarni mustahkamlash va o'quvchilarning bilimini nazorat qilish uchun har bir yirik mavzular o'tilganidan so'ng testlar ustida ishlash darsini uyushtiradi.

Bu darsni uyushtirishda o'quvchi darslikning oxirida berilgan test savollarini namuna sifatida qabul qiladi. U boshqa testlardan ham foydalanishi mumkin.

Testlar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
Javob																			
Ball																			
jami ball																			

O'quvchilar «Javob» qatoriga 1-D, 2-B, 3-C kabi belgilab berishadi. To'g'ri javob uchun 1 ball, noto'g'ri javob uchun 0 ball beriladi. To'g'ri javoblar hisoblanib, jami ball chiqariladi.

Eslatma: Dars uchun testlar tuzish o'qituvchi zimmasiga yuklatiladi.

93-dars

OLMOSH YUZASIDAN O'TILGANLARNI TAKRORLASH

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — o'quvchilarning olmosh bo'yicha olgan bilimlarini

mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarga ona zaminga muhabbat tuyg'usini singdirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarni savodxonligini o'stirish.

Darsning jihozi: mavjud texnik vositalar, olmoshlar tushirilgan jadval.

Darsning rejasi:

1. Savol va topshiriqlar ustida ishlash.
2. Mashq ishlash.

Darsning tashkiliy qismi o'tgach, o'quvchilarga takrorlash uchun berilgan savollar bilan murojaat qilinadi. Savollarga javob olingach o'qituvchi umumlashtirib, to'ldirib yakunlaydi. 291-mashqda berilgan matnni o'qib, unda ishtirok etgan olmoshlar izohlanadi. (*Sizni, siziarga, menga, hech qachon*). *Namuna: Sizga ta 'zim, onajon! Sizga kishilik ohnoshi bo'lib, ikkinchi shaxs birlikni bildiradi.* 292-mashq o'quvchilarni ohnoshlarda egalik qo'shimchalarining ishlatilishi bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash uchun tanlangan bo'lib, bu mashq og'zaki bajariladi. *Namuna: Yuring-lar, — dedi kampir o'rnidan turib. Keyin mening yelkamga qoqdi: - Sen ham yur, shirin bola. Men olmoshiga - ravvgqaratqich kelishigi qo'shilganda bitta n tovushi tushirib qoldiriladi.* 293-mashq o'quvchilarning mavzu bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash-ga qaratilgan. *Namuna: Belingni bog'la, g'ayrat birla mehnatga muhabbat qil, o'zingni, mehnatingni o'zga yalqovlarga ibrat qil. O'zingni -to'ldiruvchi, o'zga - aniqlovchi.*

Uyga vazifa: 294-mashq. Berilgan maqol asosida uyda matn tuzib kelish topshiriladi.

Sen o'zingni maqtama, birov seni maqtasin.

94-95-dars

EGALIK SHAKLLARI VA KELISHIK SHAKLLARI YUZASIDAN O'TILGANLARNI TAKRORLASH

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — egalik shakllari va kelishik shakllari bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad - ona tabiatga muhabbat tuyg'usini singdirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarni yozma nutq malakasini rivojlantirish.

Darsning jihozi: mavjud texnik vositalar, egalik shakllari va kelishik shakllari tushirilgan jadval.

Darsning rejasi:

1. Savol va topshiriqlar ustida ishlash.
2. Mashq ishlash.

Dars o'quvchilarning uyda yozib kelgan matnini tahlil qilish bilan boshlanadi. So'ngra takrorlash uchun berilgan savollar ustida ishlanadi. Savollarga javob olingach o'qituvchi umumlashtirib, to'ldirib yakunlaydi. 295-mashqni bajarishda o'quvchilar matnni o'qib, egalik va kelishik qo'shimchalarining ishlatilishi va imlosini tushuntirib beradilar. *Namuna: Ona tiliga doir hamma*

yozuvlarni chiroyli yozadigan, bu darsdan hamisha a 'lo baho oladigan bo'Idim. Ona tiliga –i egalik, -ga jo'nalish kelishigining qo'shimchasi. 296-mashqni bajarishda berilgan so'zlarga kelishik qo'shimchalarini qo'shib, ularning qaysi birida tovush o'zgarishi bo'layotganini izohlab berishadi. Namuna: *Unga - u olmoshiga -ga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda, o'rtada bitta n tovushi ortadi.* 297-mashq. Bu mashqni bajarishda, o'quvchilar matnni ko'chirib, kelishik va egalik qo'shimchalarining tagiga chizishadi hamda izohlaydilar. Namuna: *Tabiatning donoligiga tan bermay ilojing yo'q.* 298-mashqda berilgan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda asosda tovush o'zgarishi ro'y beradiganlarini aniqlab, ular ishtirokida gap tuziladi. Namuna: *O'sha kun yuragim bir hovliqdi, — dedi Oynisa.* 299-mashqda nuqtalar o'rniga egalik qo'shimchalarining mosi qo'yib ko'chiriladi. Namuna: *Bobur qilichni og'liga ikki qo'llab uzatdi.*

Uyga vazifa 300-mashq. «**Ajdodlarimiz ruhi hamisha bizga yor**» mavzusida matn tuzib, unda ishlatilgan egalik qo'shimchalarini izohlab kelish.

96-dars

YORDAMCHI SO'ZLAR YUZASIDAN O'TILGANLARNI TAKRORLASH

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad - yordamchi so'zlar bo'yicha olingan bilimlarni mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad - milliy o'yinlarga muhabbat tuyg'usini tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad - o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish.

Darsning jihozi: mavjud texnik vositalar, yordamchi so'zlar tushirilgan jadval.

Darsning rejasi:

1. Savol va topshiriqlar ustida ishlash.
2. Mashq ishlash.

Darsning tashkiliy qismi o'tkazilgach, o'quvchilarning uyda yozib kelgan matni tahlil qilinadi. So'ngra takrorlash uchun berilgan savollar ustida ishlanadi. 301-mashq o'quvchilarning yordamchi so'zlarni qo'llash malakasini o'stirish uchun tanlangan bo'lib, qavs ichida berilgan yordamchi so'zlardan mosini qo'yib matn ko'chiriladi va yordamchi so'zlar izohlanadi. Namuna: *Ma'nan boy, ruhan komil insonlargina ozod va obod Vatanni qurishga qodirdirlar.* Mazkur gapda va teng bog'lovchisi *ozod va obod* uyushiq bo'laklarini bogiash uchun xizmat qilgan. 302-mashqda berilgan yordamchi so'zlar izohlanadi. Namuna: *Ham vazifasiga ko'ra teng, ishlatilishiga ko'ra takror qo'llanuvchi, ma'nosiga ko'ra ayiruv bogiovchi hisoblanadi.* 303-mashq o'quvchilarni yozmanutq malakasini o'stirish uchun tanlangan. Mashqni bajarishda gaplarni ko'chirib yordamchi so'zlarning ma'nolarini tushuntirish talab etiladi. Namuna: *Komil bosh irg'adi: - Havo ochilyapti-ku! -Ochilishga ochilgan-u, ammo lekin ayoz. -ku ta'kid yuklamasi ta'kidlash ma'nosini ifodalayapti; -u ta'kid yuklamasi bo'lib, bu o'rinda zidlash ma'nosini ifodalamoqda; ammo, lekin zidlov bog'lovchilari bo'lib, zidlash-ta'kidlash ma'nolarida qo'llangan.*

Uyga vazifa. 304-mashqda berilgan jadval to'ldirilib, ular ishtirokidagaplartuziladi. Namuna:

Ko'makchilar	Bog'tovchilar	Yuklamaier
<i>Qarab, muvofiq</i>	<i>Shuning uchun, ba'zan-ba'zan, yoki...</i>	<i>-gina, -chi.....</i> ...

97-dars

UNDOV, TAQLID VA MODAL SO'ZLAR YUZASIDAN O'TILGANLARNI TAKRORLASH

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — undov, taqlid va modal so'zlar bo'yicha olgan bilimlarni mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad — tabiatga muhabbat tuyg'usini tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish.

Darsning jihozi: mavjud texnik vositalar, undov, taqlid va modal so'zlar tushirilgan jadval.

Darsning rejasi:

1. Savol va topshiriqlar ustida ishlash.
2. Mashq ishlash.

Darsning tashkiliy qismi o'tkazilgach, o'quvchilarning uyda yozib kelgan vazifalari tahlil qilinadi. So'ngra takrorlash uchun berilgan savollar ustida ishlanadi. O'qituvchi javoblarni to'ldirib umumlashtiradi. Sinf uchta guruhga bo'linadi. «**Topqirlar**», «**Zukkolar**», «**Bilimdonlar**». Har bitta guruh bittadan mavzuga tayyorlanib, sinf oldida ma'ruza o'qiydi. So'ngra 305-mashqda berilgan gaplar har bir guruhga bo'lib beriladi. Ularning javoblariga qarab ball qo'yiladi. 306-mashq ham ana shu guruhlarga bo'lib beriladi. Har bir guruh o'ziga ajratilgan gapdagi modal so'zlarni topib ma'nosini izohlaydi. Grammatik o'yin: «Kim birinchi?» o'yini tarzida bajariladi. Holatga taqlid so'zlar to'g'ri tutashtirilsa, manzilga o'sha yetib boradi. 307-mashq mustaqil bajariladi.

e voh	gumbir	taraq-turuq	<i>jimir-jimir></i>
<i>lip-lip></i>	eh	<i>yalt-yult></i>	<i>dag'-dag'</i>
jarang	<i>milt-milt></i>	dod-voy	balli

Uyga vazifa. 308-mashqda berilgan taqlid so'zlarning ma'nolari izohlanadi.

98-dars

TESTLAR USTIDA ISHLASH

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — o'quvchilar bilimini sinash;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish; d) rivojlantiruvchi maqsad — grammatik tushunchalarni anglash tuyg'usini rivojlantirish.

Darsning jihozi: test materiallari.

Darsning rejasi:

1. Test materiallarini tarqatish.
2. Test yechish.

Test ustida ishlash darslarida daftarga quyidagi jadval chizdiiiladi.

O'qituvchi o'tilganlarm mustahkamlash va o'quvchilarning bilimini nazorat qilish uchun har bir yirik mavzular o'tilganidan so'ng testlar ustida ishlash darsini uyushtiradi.

Bu darsni uyushtirishda o'quvchi darslikning oxirida berilgan test savollarini namuna sifatida qabul qiladi. U boshqa testlardan ham foydalanishi mumkin.

Testlar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
Javob																			
Ball																			
jami ball																			

O'quvchilar «Javob» qatoriga 1-D, 2-B, 3-C kabi belgilab berishadi. To'g'ri javob uchun 1 ball, noto'g'ri javob uchun 0 ball beriladi. To'g'ri javoblar hisoblanib, jami ball chiqariladi.

Eslatma: Dars uchun testlar tuzish o'qituvchi zimmasiga yuklatiladi.

99-dars

ATAMALAR USTIDA ISHLASH

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad — o'quvchilarda ilmiy atamalarni tushunish malakasini hosil qilish;

b) tarbiyaviy mqqsad — ilm-fanga sadoqat tuyg'usini singdirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad - o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish.

Darsning jihozi: mavjud texnik vositalar.

Darsning rejasi:

1. Atamalar bilan tanishish.

2. Atamalar ma'nosini izohlash.

Uy vazifasi tekshiriladi. Shundan so'ng darslik oxirida berilgan asosiy atamalarning izohini mustaqil o'qib tushuntirib berish so'raladi. Uyga vazifa. Takrorlash.

100-dars

ISH QOG'OZLARI

Darsning maqsadi:

a) ilmiy maqsad - o'quvchilarga ilmiy uslub haqida ma'lumot berish;

b) tarbiyaviy maqsad — qonunga hurmat tuyg'usini singdirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad - o'quvchilarning ish qog'ozlarini yozish bo'yicha malakasini o'stirish.

Darsning jihozi: ish qog'ozlaridan namunalar yozilgan plakat, mavjud texnika vositalari.

Darsning rejasi:

1. Ish qog'ozlari haqida ma'lumot berish.
2. Ariza, tavsifnoma, ishonchnoma, ma'lumotnoma yozish.

O'quvchilarga rasmiy uslub haqida ma'lumot beriladi. Bunda rasmiy uslubga xos bo'lgan ibora va atamalar, ma'lum qolipning mavjudligi, so'zlarning bo'yoqsiz bo'lishi kabilarga e'tibor qaratiladi. So'ngra rasmiy uslubdan namunalar sinf taxtasiga ilib ko'rsatiladi.

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod
tumanidagi 19-umumta'lim maktabi direktori
Sh. Doniyorovga 9-sinf o'quvchisi Odiljon
Karimovdan

ARIZA

Ota-onam bilan birga Dehqonobod tumanidagi Mingchinor qishlog'iga doimiy yashash uchun ko'chib kelganimiz sababli, meni 19-umumta'lim maktabning 9-sinfiga o'qishga qabul qilishingizni so'rayman.

2011-yil 20-avgust
(imzo)
O. Karimov

Xorasm viloyati Xonqa tumanidagi 20-
umumta'lim maktabning 9-sinf o'quvchisi,
1996-yilda tug'ilgan, o'zbek Irodaxon
Niyozovaga

TAVSIFNOMA

Irodaxon Niyozova Xorasm viloyati Xonqa tumanidagi 20- umumta'lim maktabning 9-sinf o'qiydi. U intizomli, ziyrak, zukko va tirishqoq o'quvchi sifatida o'zini ko'rsatdi. Bilimlarni qunt bilan o'rganishga harakat qildi. Ona tili va adabiyoti, tarix, ingliz tili fanlariga qiziqadi. U 2010-yilning mart oyida bo'lib o'tgan umumta'lim maktabi o'quvchilarining Respublika ilmiy-nazariy anjumanida ma'ruza bilan qatnashdi. Ma'ruzasi anjumanning faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi.

Irodaxon Niyozova jamoat ishlarida faol qatnashadi, "Yosh tilshunos" devoriy gazetasiga muharrirlik qiladi.

U kamtarin va to'g'ri so'zligi, do'stlariga mehribonligi sababli hurmatga sazovor bo'lgan.

Tavsifnoma Xonqa kasb-hunar kollejiga taqdim etish uchun berildi.

Xonqa tumanidagi 20- umumta'lim
maktabi direktori:

M. Hakimov

Sinf rahbari:
(sana, muhr)

I. Yo'ldoshev

ISHONCHNOMA

Men Farg'ona shahar, Sohibqiron Amir Temur ko'chasi, 37-«a» uy, 8-xonada yashovchi Sayyora Xolboyeva singlim Xolida Xolboyevaga shahardagi 7-aloqa bo'limidan mening nomimga kelgan pochta jo'natmasini olish uchun ishnochi bildiraman.

(imzo) S. Xolboyeva

2011-yil 15-fevral

S. Xolboyeva imzosini tasdiqlayman.

Mahalla fuqarolar yig'ini raisi: (imzo) H. Jo'rayev

2011-yil 16-fevral
(muhr)

MA'LUMOTNOMA

Ushbu ma'lumotnomani ko'rsatuvchi Sohiba Oripova haqiqatan ham Namangan shahar Istiqlol ko'chasi, 13-uy 37-xonadonda yashaydi.

Ma'lumotnoma Namangan san'at kollejiga taqdim etish uchun berildi.

«Istiqlol» mahalla fuqarolar yig'ini

raisi:

(imzo) I. Abdullayev

Kotibi:

(imzo) A. Qurbonov

(muhr)

O'quvchilarga berilgan namunalar asosida sinfdoshlariga ariza, tavsifnoma, ishonchnoma, ma'lumotnoma yozish topshiriladi. Uyga vazifa. Oila a'zolaridan biriga tavsifnoma yozib kelish.

101-dars

YAKUNIY MAVZU

Darsning maqsadi:

a) ihtiyot maqsad — o'quvchilarning olgan bilimlarini amalda qo'llash malakasini rivojlantirish;

b) tarbiyaviy maqsad — o'quvchilarda topqirlik, zukkolik xislatlarini tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad — o'quvchilarning jamoatchilik bilan ishlash

tuyg'usini rivojlantirish.

Darsning jihozi: tarqatma material, Tohir Malikning «Chorrahada qolgan odamlar» asari

Darsning rejasi:

1. Grammatik o'yin o'tkazish.

2. Mashq ishlash.

Oxirgi dars «Til bog'iga sayohat» deb nomlanadi. O'qituvchi sinfni besh guruhga bo'ladi. Har bir guruhdan bittadan o'quvchi ajratib, ularni «*Kirish*», «*Ot o'yin*», «*Charxpalak*», «*Sirg'anish*» va «*Halinchak*» maydonlari uchun mas'ul etib tayinlaydi. Har bir mas'ul qo'lida beshtadan savollar to'plarni bo'lib, guruhlar navbatma-navbat ularga javob topadi. Savolga to'g'ri javob topgan guruh maydonchaga kirish huquqiga ega bo'ladi.

I. «*Kirish*» uchun savollar. Quyidagi gaplar ichidan olmoshlarni toping va ularga izoh bering.

I. Shu aziz Vatan barchamizniki. 2. O'z uyingni o'zing asra. 3. Sen ham, siz ham bir og'izdan chiqadi. 4. Do'stlikni hech qanday g'anim buza olmaydi. 5. Biz qanday go'zal yurtda yashayapmiz, qarang.

II. «*Ot o'yin*» maydonchasiga o'tish uchun savollar.


Tohir Malikning «Chorrahada qolgan odamlar» asaridan olingan gaplar tarkibida kelayotgan ko'makchilarni toping va ularga izoh bering

1. Xuddi shu onda Yer kurrasi atrofida yo'ldosh kabi aylanayotgan yassi kema sayyoradan uzoqlashib, Somon yo'li tomon uchdi. 2. Bizga faqat bir narsa — yuksalish uchun ishlash, ishlash uchun yuksalish kerak. 3. Donishmand ikir-chikirlar bilan emas, ilm bilan mashg'ul bo'lishi kerak. 4. Yerdagi bulo-larni esladi. Quloqlari ostida suvning shildirashi eshitilib, entikdi. 5. O'zbekning donishmand allomalari bu qadar ko'p deb sira o'ylamagandim.

III. «*Charxpalak*» maydonchasiga kirish uchun savollar.

Quyida berilgan so'zlar ichidan 1-guruh bog'lovchi, 2-guruh yuklama, 3-guruh ko'makchi, 4-guruh undov so'z, 5-guruh taqlid so'zlarni charxpalakka tortib joylashtirsin.

So'zlar: *keyin, biroq, toki, oh, taq-tuq, hamda, qoshida, iye, shivir-shivir, hatto, uchun, qaraganda, -him, eh, singari, obbo, shu sababli, voy, milt-milt, -mi, qars, faqat, -qina, g'iyq, nahotki.*



IV «*Sirg'anish*» maydonchasiga o'tish uchun savollar. X. To'x-taboyevning «Besh bolali yigitcha» asaridan olingan gaplarni o'qing. Nuqtalar o'rniga yuklamalardan mosini qo'yib ko'chiring.

*1. Iye, bu doktor-..! Maktabga kelib hammamizni emlab ketadigan doktor-..!
2. Yig'lama, qani yoshingni art-.., artding..? 3. Qarang-.., dadasi — dedi To'xta*

xola. 4. Afanding ham o'zingga o'xshagan soddagina ekan..., a? 5. E, qo'qonlik, qo'qonliklar... qani o'tiringlar...

V. «Halinchak» maydoniga o'tish uchun topshiriq. Tagiga chizilgan so'zlarning nimaga nisbatan taqlid qilinayotganligini toping va o'sha narsaning nomini nuqtalar o'rniga qo'ying.

1. Yaqinda shahardan Sobirning tog'alari keldi. Oq «...» da. Sobir rulga o'tirib olib, «bib-bib»latdi. (S. Mardiyev) 2. Ko'kka chiqdi..., Tun yuzini yoritib. Misoli tosh chiroqdek, Yonardi ular lip-lip.(S.Ochilov) 3....yeldek uchib borar, har zamonda: «u-u-uuu», — deb qichqirib ham qo'yyapti. (X. To'xtaboyev) 4.... dumini likillatdi-da, hurdi: «Vovo-vov! Vovvov!» (/ Xolliyeva) 5. ... «duv» etib qochadi-yu, ko'p o'tmay yana uchib kelishadi. (P. Qodirov)

O'qituvchi darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholaydi. 7-sinfda o'tilganlarni umumlashtirib, darsga yakun yasaydi.

102-dars

YOZGI TA'TIL UCHUN TOPSHIRIQLAR

Darsning maqsadi:

- a) ilmiy maqsad — o'quvchilarning ijodiy fikrlashini o'stirish;
- b) tarbiyaviy maqsad — Vatanga muhabbat tuyg'usini tarbiyalash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad - o'quvchilarni izchil fikrlashga o'rgatish.

Darsning jihozi: mavjud texnika vositalari, tarqatma material. **Darsning rejasi:**

- 1. Grammatik o'yin.
- 2. Ta'tilda bajarish uchun topshiriqlar.

Dars kirish suhbat bilan boshlanadi. So'ngra o'quvchilar «intervyu olish» o'yini o'tkazadilar. Bunda bir o'quvchi telejurnahst vazifasini bajaradi. U yil davomida o'tilgan mavzular yuzasidan intervyu oladi. Namuna: — *Mustaqil so'zlar bilan yordamchi so'zlar o'rtasidagi eng muhimfarq nimada ko'rinadi?*— Qaysi kelishikning maxsus ko'rsatkichi yo'q ?

Grammatik o'yinni o'qituvchi yakunlaydi. Shundan so'ng «Kim birinchi» o'yini o'tkaziladi. Buning uchun sinf taxtasiga so'zlar yozilgan plakat osib qo'yiladi. Sinf o'quvchilari uch guruhga bo'hnadi. Guruhlarga nom beriladi. Sinf taxtasibo'linadi.

Mustaqil so'zlar	Yordamchi so'zlar	Vazifadosh yordamchi so'zlar

Har bir guruh vakili taxtaga chiqib plakatdagi so'zlardan o'ziga tegishlisini topib sinf taxtasiga yozadi. Qaysi guruh birinchi yozib bo'lsa, o'sha guruh g'olib hisoblanadi. Bu o'yinni «So'zlarning munosabat shakllari», «Yordamchi so'zlar» kabi katta mavzular hamda har bir mavzu bo'yicha ham o'tkazish mumkin.

Darsning ikkinchi yarmida yozgi ta'tilda bajarish uchun topshiriqlar beriladi.

1. Ta'til davomida o'qilgan badiiy asarlardan yordamchi so'zlarga misol yozish.

2. Ona tiliga bag'ishlangan she'r yod olish.

3. «Yozgi ta'tilda» mavzusida insho yozish.
4. «Mustaqillik mening taqdirimda» mavzusida insho yozish.
5. 7-sinfda o'tilgan biror mavzu yuzasidan referat tayyorlash.

O'qituvchi topshiriqlarni qanday bajarishni batafsil tushun-tiradi.
Xayrlashish.

O'TILGANLARNI TAKRORLASH UCHUN TEST NAMUNALARI

1. Bitta cho'pon: «Arg'amchisi bor ekan, ko'p chirilladi, — degandi. Gapdagi arg'amchi qaysi so'z o'rnida qo'langan?

- A. Ayiq.
- B. Ilon.
- C. Jonivor.
- D. Arqon.

2. Hosil bo'ish usuliga ko'ra undoshlar qanday nomlanadi?

- A. Bo'g'iz, til o'rta.
- B. Jarangli, jarangsiz.
- C. Portlovchi. sirg'aluvchi.
- D. Qorishiq.

3. Bulbulning maqomlari, kuylari to'qqiz yuz to'qson to'qqiz emish. Berilgan gapda nechta jarangli undosh tovushi bor?

- A. 14.
- B. 17.
- C. 13.
- D. 19.

4. Imlo xatosi bor javobni aniqlang.

- A. Haqiq, paykal.
- B. Qovun, bosvoldi.
- C. Mahliyo, iztirob.
- D. Odamzod, huzur, navqiron.

5. Qaysi gapda qo'shimchalar noto'g'ri qo'llangan?

- A. Shamollar mayin, yoqimli esadi.
- B. Quyoshni issig'i kuydirmaydi.
- C. Bulutlar asta kezadi.
- D. Kuch mardlikda emas, birlikda.

6. Ko'chma ma'noli so'z berilgan gapni belgilang.

- A. Yaxshining gapi qaymoq.
- B. Turmushning sirlarini maktab o'rgatadi.
- C. Odob bilan ilm — tirnoq bilan et.
- D. Kemtik oy cho'qqilar orasidan mo'ralaydi.

7. Qo'shma fe'ini aniqlang.

- A. Ekin ekmoq.
- B. O'ylab turdi.
- C. Olib chiqdi.
- D. Jiddiylashmoq.

8. Asliy va nisbiy sifat berilgan gapni toping.

- A. Keng o'tloqdan yoqimli hid ko'tarildi.

B. Ota-bobolarimiz saxovatli bo'lishgan.

C. Olimjon 6-sinfni «a'lo»ga bitirgan.

D. Yorug' yulduz tikkaga kelib qoldi.

9. Hisob so'zi bilan kelgan sonni belgilang.

A. Ekspeditsiya 265 kishidan iborat.

B. Bir qultum suv — jon ozig'i bo'lishi mumkin.

C. Sayyohlarning o'n sakkiztasigina qaytdi.

D. Davlat bayrog'i qaysi sanada qabul qilingan.

10. Ravish berilmagan javobni belgilang.

A. Ezgulik aslo qarimaydi.

B. Ahyon-ahyonda eshitilar edi.

C. Al-Xorazmiy Xorazmda tug'ilgan.

D. Ot arava elas-elas ko'rinadi.

11. Qaysi gapda olmosh qo'llangan?

A. Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar.

B. Bobom saxovatli inson bo'lganlar.

C. Magellan Yer kurrasini aylanib chiqqan.

D. Istagim shuki, doimo tinchlik bo'lsin.

12. Qaysi qoida olmoshga tegishli?

A. Atash ma'nosiga ega bo'lmaydi.

B. Shakl-ko'rinish ma'nosini bildiradi.

C. Otga bog'lanib keladi.

D. Nisbat qo'shimchalarini oladi.

13. Ko'rsatish olmoshi berilgan javobni belgilang.

A. O'zimiz, ular, mana shu.

B. Necha, har xil, hech qaysi.

C. O'zingiz, mana bu, qanaqa?

D. Anovi, o'sha, shu.

14. Ko'rsatish va belgilash olmoshi berilgan gapni toping.

A. U kishi sizni o'yladilar.

B. Shamollar mayin, yoqimli esadi.

C. Aziz unga juda-juda achindi.

D. Bu cholni butun yurt izzat qilardi.

15. Nima? so'roq olmoshi qanday ma'noni bildiradi?

A. O'rin-joy.

B. Belgi-xususiyat.

C. Harakat-holat.

D. Narsa-hodisa.

16. Berilgan gapda olmoshning qaysi ma'no turlari qo'llangan? Hamma qayerdan keladi?

A. Gumon, kishilik.

B. Ko'rsatish, belgilash.

C. So'roq, bo'lishsizlik.

D. Belgilash, so'roq.

17. Ta'kid ma'nosini ifodalagan olmoshni belgilang.

A. Men sizni olib ketgani keldim, aylanay! — dedi (Cho'lpon).

B. Sizning bir yaxshi odatingiz: kulib gapirasiz.

C. Amaki, tanimadingizmi?

D. Unchalik yomon bola emasman.

18. Olmosh o'rnida qo'llanadigan so'zlar qaysilar?

A. Hech kim?, hech nima?

B. Bandayi ojizingiz, faqir.

C. Allakim, nimadir.

D. Amirzodam, janob.

19. Shaxs ohnoshlarini aniqlang.

A. Aka, tog'a, jiyan.

B. Shahzodam, amirim.

C. Qulingiz, sodiq qulingiz.

D. Siz, men, u.

20. Tuzilishiga ko'ra qo'shma olmoshni aniqlang.

A. Allakim, 2-guruh.

B. Qandaydir, boshqa.

C. O'sha-o'sha, u-bu.

D. Hech narsa, har kim.

21. Haqida, to'g'risidako'makchilariqanday ma'nobildiradi?

A. Chegara.

B. Fikr mavzusi.

C. Maqsad.

D. O'xshatish.

22. Tasdiq, inkor, hayratlanish, o'xshatish ma'nolarini qaysi yordamchi so'z turkumi ifodalay oladi?

A. Ot.

B. Undov.

C. Bog'lovchi.

D. Yuklama.

23. Ko'makchilar qaysi kelishiklardan keyin qo'llanmaydi?

A. O'rin-payt kelishigi.

B. Chiqish kelishigi.

C. Qaratqich kelishigi.

D. Tushum kelishigi.

24. Ko'makchilar qaysi so'z turkumlaridan keyin qo'llanmaydi?

A. Ravish, ot.

B. Olmosh, sifat.

C. Sifat, ravish.

D. Ot.

25. Hokim so'z berilgan javobni belgilang.

A. Shunga ko'ra.

B. Anhor bo'ylab ketdi.

C. Akam to'g'risida.

D. Tushdan keyin.

26. Faqat vazifdosh ko'makchilar berilgan javobni belgilang.

A. Tomon, tufayli, bo'ylab.

B. Old, ich, o'rta, lekin.

C. Tufayli, qadar, singari.

D. O'rta, tashqari, boshida.-

27. Sababli, tufayli, uchun ko'makchilari harakat nomidan keyin

qo'llansa, qanday ma'no ifodalaydi?

- A. Maqsad.
- B. Atash.
- C. Fikr mavzusi.
- D. O'xshatish.

28. Qaysi ko'makchi maqsad, sabab, atash ma'nolarini ifodalaydi?

- A. Kabi.
- B. Haqida.
- C. Uchun.
- D. Bilan.

29. Lug'aviy ma'no bildirmasa, so'roqqa javob bo'lmasa, atash ma'nosiga ega bo'lmasa qanday so'zlar deyiladi?

- A. Mustaqil so'zlar.
- B. Yordamchi so'zlar.
- C. Ko'makchi.
- D. Bog'lovchi.

30. Qaysi javobda vazifadosh ko'makchi qo'llangan?

- A. Keyin so'yla.
- B. Ichida o'qimoq.
- C. Ustidan quymoq.
- D. Hafta ichi.

31. Inkori, o'xshatish ma'nolarini qaysi so'z turkumi ifodalay oladi?

- A. Ot.
- B. Son.
- C. Bog'lovchi.
- D. Ko'makchi.

32. Berilgan gapda na-na shakli qanday vazifa bajaradi? Men-ku yolg'iz edim, na otam, na onam, na oilam. (E. Vohidov)

- A. Bog'lovchi.
- B. Yuklama.
- C. Son.
- D. Ko'makchi.

33. Na-na vazifadosh bog'lovchi bo'lib kelgan gapni belgilang.

A. «Menda na bol tayyorlamoq mashaqqati va na uya solmoq kulfati bor», — dedi Pashsha.

B. Na so'ngiga yetoldi ishning, Na dunyoni anglab ulgurdi. (E. Vohidov)

C. Ajab makon hech kim boqmas, Na shaharmas, na qishloqmas. (E. Vohidov)

D. Avvalo shuki, kovush tikishga na charm bor, na siroch, na mix, na lok. (G'. G'ulom)

34. Berilgan yordamchi so'zlarning qaysi birlari vazifadosh bog'lovchi?

- A. Na-na, lekin.
- B. Ammo, biroq.
- C. Hamda, biroq.
- D. Balki, ham.

TESTLARNING JAVOBLARI

1	2	3	4	5	6	7	8	9
---	---	---	---	---	---	---	---	---

<i>B</i>	<i>c</i>	<i>D</i>	<i>d</i>	<i>b</i>	<i>d</i>	<i>c</i>	<i>a</i>	<i>b</i>
10	11	12	13	14	15	16	17	18
<i>C</i>	<i>d</i>	<i>A</i>	<i>d</i>	<i>D</i>	<i>d</i>	<i>d</i>	<i>a</i>	<i>b</i>
19	20	21	22	23	24	25	26	27
<i>D</i>	<i>d</i>	<i>B</i>	<i>d</i>	<i>d</i>	<i>c</i>	<i>b</i>	<i>d</i>	<i>a</i>
28	29	30	31	32	33	34		
<i>C</i>	<i>b</i>	<i>D</i>	<i>d</i>	<i>B</i>	<i>c</i>	<i>d</i>		

QO'SHIMCHA FOYDALANISH UCHUN TESTLAR

1. *Mendan rozi bo'linglar, men ham sizlardan roziman.* Ushbu gapda olmoshlarning qaysi turi ishtirok etgani?

A) belgilash olmoshi

B) kishilik olmoshi

C) so'roq olmoshi

D) gumon olmoshi

2. Olmoshlar qaysi so'z turkumlarining o'rnida kela oladi?

A) ot

B) sifat

C) son

D) A. B. C iavoblar to'g'ri

3. *Husnbonuning oy desa, yud, kun desa, ko d bor ekan, bilimdon-u aqlli ekan.* Ushbu gapda qanday yordamchi so'z ishtirok etgan?

A) yuklama

B) ko'makchi

C) teng bog'lovchi

D) ergashtiruvchi bog'lovchi

4. *Buni eshitgan Sherzod: - Nima gap? - deb so'radi.* Ushbu gapda olmoshning qaysi turi ishtirok etgan?

A) gumon olmoshi

B) kishilik olmoshi

C) belgilash olmoshi

D) so'roq olmoshi

5. *E, og'lim, nega sen mening maslahatimga quloq solmading?* Ushbu gapda qanday tovush o'zgarishi mavjud?

A) tovush orttirilishi

B) tovush tushishi

C) tovush almashishi

D) tovush tushishi va almashishi

6. *Yigit oddiy kiyingan, o'rta bo'y, kelishgan va chiroyli ekan.* Ushbu gapdagi sifatlarni belgilang.

A) oddiy, kiyingan, chiroyli

B) oddiy, chiroyli, kelishgan

C) oddiy, kiyingan, o'rtabo'y, chiroyli

D) oddiy. o'rtabo'y. chiroyli

7. *U goh kulib, goh jiddiylashib voqeani so'zlab berar edi.* Ushbu gapda bog'iovcining qaysi turi qo'langan?

A) ayiruv bog'lovchisi

B) shart bog'lovchisi

- C) ergashtiruvchi bog'lovchi
D) sabab bog'lovchisi
8. **Kimdir, allakim, allaqaysi, allanima** so'zlari qaysi so'z turkumiga oid?
A) ot
B) olmosh
C) ravish
D) sifatdosh
9. **Biz o'z Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrab-avaylaymiz.** Ushbu gapdagi o'z olmoshi qaysi kelishikda turibdi?
A) bosh kelishikda
B) qaratqich kelishigida
C) o'rin-payt kelishigida
D) chiqish kelishigida
10. **Hamma, barcha, bari, butun** olmoshlariga qaysi qatorda to'g'ri ta'rif berilgan?
A) gumon ma'nosini ifodalaydi
B) shaxs, narsa, belgini jamlab keladi
C) narsalarning so'rog'ini ifodalaydi
D) narsalarni ko'rsatib keladi
11. **Har kim ekanini o'radi.** Ushbu gapda olmoshning qaysi turi qo'ylangan?
A) so'roq olmoshi
B) kishilik olmoshi
C) belgilash olmoshi
D) o'zlik olmoshi
12. **Qo'shma olmoshlar to'liq berilgan qatorni toping.**
A) kimdir, nimadir, qaysidir
B) har qanday, allakim, hech hir
C) har nima, qayergadir, o'z
D) biz, hamma, barcha
13. **Ismlarga qo'shilib, asos qismda ifodalangan narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatning uch shakldan biriga qarashligini bildirgan qo'shimchalarga qanday qo'shimchalar deyiladi?**
A) egalik qo'shimchalari
B) so'z yasovchi qo'shimchalar
C) shaxs-son qo'shimchalari
D) kelishik qo'shimchalari
14. **Ismlarning ko'plik, kichraytirish, erkalash, qiyoslash ma'nolarini bildiruvchi shakllari qanday shakllar sanaladi?**
A) egalik shakllari
B) sintaktik shakllar
C) lug'aviv shakllar
D) so'z tarkibi
15. **Qaysi qatorda ismlarning munosabat shakllari to'g'ri ko'rsatilgan?**
A) egalik qo'shimchalari
B) kelishik qo'shimchalari
C) bog'lamalar
D) Barcha javoblar to'g'ri

16. Ismlarning egalik qo'shimchalari bilan shaxs va sonda hamda kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishiga nima deyiladi?

- A) so'z yasalishi
- B) tuslanish
- C) so'z o'zgarishi
- D) turlanish

17. *-man, -san, -dir* qo'shimchalari hamda *bo'Imoq, sanalmoq, hisoblanmoq* so'zlariga qaysi qatorda to'g'ri ta'rif berilgan?

- A) ismlarni kesimga xoslovchi shakllari
- B) shaxs-son qo'shimchalari
- C) to'liqsiz fe'llar
- D) turlovchi qo'shimchalar

18. Sof ko'makchilar to'liq berilgan qatorni toping.

- A) qarab, qaraganda, ko'ra
- B) ostida, yonida, qoshida
- C) sari, bilan, oldida
- D) qadar, haqida, uzra

19. *Yoshlarimiz bilimdom, negaki, ularning bilim olishi uchun mamlakatimizda keng imkoiuyatlar yaratilgan.* Ushbu gapda bog'lovchining qaysi turi ishtirok etgan?

- A) teng bog'lovchi
- B) ko'makchi
- C) aniqlov bog'lovchisi
- D) sabab bog'lovchisi

20. *Men-ku bu haqda o' yiab ko'rdim. Siz-chi?* Ushbu gapda yuklamaning qaysi turlari ishlatilgan?

- A) kuchaytiruv-ta'kid, so'roq yuklamalari
- B) so'roq, taajjub yuklamalari
- C) kuchaytiruv-ta'kid, so'roq yuklamalari
- D) ayiruv-chegaralov yuklamalari

21. *Xayriyat, shukur* modal so'zlari qanday ma'noni anglatadi?

- A) gumon ma'nosini
- B) achinish, pushaymon ma'nosini
- C) tasdiq va ishonch ma'nosini
- D) quvonch ma'nosini

7-SINF ONA TILI DARSLARIDA FOYDALANISH UCHUN TAVSIYA ETILGAN GRAMMATIK O'YINLAR

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning sifat bosqichiga o'tish dars berish usullarini tubdan o'zgartirishni talab etmoqda. Davlat ta'lim standartlari ona tili darslari oldiga o'quvchi shaxsini mustaqil fikrlash, o'zgaralar fikrini anglash, baholash va hurmat qilish, o'z fikrini og'zaki, yozma shaklda savodli bayon qila olish darajasida o'stirishni talab etmoqda. Bu esa grammatik qoidalarni quruq yod olishni emas, balki ana shu qonunlarni amalda qo'llay olish malakasini o'stirish asosida ijodiy fikrlashga o'rgatishni talab etadi. Bunda yangi pedagogik texnologiyadan o'rinli foydalanish darsni qiziqarli, ijodiy hamda samarali

bo'lishiga olib keladi. Darsni yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda grammatik o'yinlarning ahamiyati katta. Biz quyida 7-sinf ona tili darslarida foydalanish mumkin bo'lgan o'yinlardan namunalar tavsiya qilarniz. Berilgan o'yinlar qat'iy va o'zgarmas emas. Uni har bir o'qituvchi darsda mahalliy muhit hamda sinf o'quvchilarining bilim darajasidan kelib chiqib o'zgartirishi, ijodiy rivojlantirishi yoki muqobil variantlaridan foydalanishi mumkin.

«SVETOFOR» O'YINI

Bu o'yindan darslikda berilgan istalgan mavzuni o'tishda foydalanish mumkin.

O'yinning jihozi: qizil, saftq, yashil rangli doirachalar.

Darsda sinf o'quvchilari ikki yoki uchta kichik guruhga bo'linadi. Barcha guruh a'zolariga rangli doirachalar tarqatiladi. So'ng o'qituvchi sinf taxtasiga savollar yozilgan ko'rgazmani ilib qo'yadi. Guruh a'zolaridan biri savollarga javob beradi. Javobni to'g'ri deb hisoblagan o'quvchilar yashil doirachani, noto'g'ri deb hisoblaganlar sariq doirachani, javobni to'g'ri yoki noto'g'riligini bilolmagan o'quvchilar qizil rangli doirachani ko'taradi. Har uchala guruhga o'yin boshida savollar miqdoridan kelib chiqib ball beriladi. Har bir qizil doiracha uchun 1 ball ozaytirib boriladi.

Masalan, 1-guruhda 30 ball, 2-guruhda 30 ball, 3-guruhda ham 30 ball mavjud. Agar birinchi guruhdan beshta o'quvchi qizil doiracha ko'tarsa, 25 ball qoladi.

Sariq doiracha ko'targanlar javobni nima uchun noto'g'riligini izohlab beradilar. To'g'ri izohlay olmasa 0,5 ball ka-mayadi.

O'yin oxirida qolgan ball o'yindan chiqib ketmagan guruh a'zolari o'rtasida bo'linadi.

«ZAKOVAT» O'YINI

Bu o'yindan mustahkamlash, takrorlash, avvalgi sinfda o'tilganlarni takrorlash darslarida foydalanish mumkin.

O'yinni o'tkazishda sinf ikki guruhga bo'linadi. O'qituvchi o'yinda boshlovchi vazifasini bajaradi. Har ikki guruh o'ziga guruh sardorini belgilaydi. So'ng konvertdagi savollardan tanlab oladi-lar. Savolga tayyorlanish uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. Guruh a'zolarining kelishuviga muvofiq bir kishi guruh a'zolarining javobini umumlashtirib bayon qiladi. Guruh a'zolaridan birortasi javobdan qoniqmasa, javoblarni to'ldiradi. Savolning oddiy yoki murakkabligiga qarab, oldindan to'liq javob uchun ball konvertga yozib qo'yiladi.

Har bir guruh to'plagan ballarini guruh a'zolari o'rtasida o'zaro bo'lishadi. Bunda guruh a'zolarining ishtiroki e'tiborga olinadi. Bu bilan o'quvchilarda o'zi va o'rtoqlarining javobini sinchiklab kuzatib borish, baholash hislari tarbiyalanadi. Mas'uliyat hissi va javoblarni tahlil qilish qobiliyati rivojlantiriladi.

«HIMOYA» O'YINI

Bu o'yin «tarmoqlar» metodiga oid bo'lib, yangi mavzuni bayon qilishda foydalanish mumkin. Buning uchun sinf ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh

«Topqirlar», ikkinchi guruh «Chaqqonlar» deb nomlanishi mumkin. Har ikki guruhga alohida topshiriq beriladi. Masalan, «Topqirlar» guruhi «Modal so'zlar» mavzusida «Chaqqonlar» guruhi «Modal so'zlarda tinish bel-gilarning ishlatilishi» mavzusida ma'ruza tayyorlaydi. Buning uchun 2-3 minut vaqt ajratiladi. Ma'ruza tayyorlashda darslikdagi topshiriq hamda nazariy materialdan foydalaniladi. Guruh o'z a'zolari ichidan 1 ta asosiy ma'ruzachi, 1 ta qo'shimcha ma'ruzachi tanlaydi.

Bu ma'ruzachilar guruhga berilgan mavzu bo'yicha darsni bayon qiladi. 1-ma'ruzachining kamchiligini qo'shimcha ma'ruzachi to'ldiradi. Ikkinchi guruh savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Keyin 2-guruh ma'ruza bilan chiqadi, 1-guruh esa savollar beradi. O'yin shu tarzda davom etadi. O'qituvchi boshqaruvchi vazifasini bajaradi. Ma'ruzachilarning bayoni to'liq bo'lmasa, o'qituvchi to'ldiradi.

Bu o'yinning ahamiyati shundaki, o'quvchilar kitob bilan mustaqil ishlashga o'rganadi.

«TAROZI» O'YINI

O'yinning jihnni: maktab ustaxonasida tayyorlangan tarozi.

Bu o'yindan yangi mavzuni o'tishda, darslikdagi topshiriqlarni bajarishda foydalanish mumkin.

Sinf ikki guruhga bo'linadi. Guruhlarga nom beriladi: «Lochinlar», «Burgutlar». Har ikki guruh o'ziga shior tanlashi mumkin. O'quvchilar darslikdagi topshiriqni bajargach, o'zlari izohlab beradi. So'ng «Lochinlar» «Burgutlar»ga savol beradi. «Burgutlar»ning javobini eshitgach, «Lochinlar» lozim topsa, to'ldirishi mumkin. Keyin «Burgutlar» savol beradi, «Lochinlar» javob beradi. «Burgutlar» ham javobdan qoniqmasa, to'ldirishi mumkin.



Qaysi guruh to'g'ri javob bersa, o'sha guruhga qarashli pallaga 1 ball qo'yiladi. Qaysi guruhning pallasi og'ir kelsa, o'sha guruh g'olib sanaladi. O'qituvchi umumiy ballni e'lon qilgach, guruh a'zolari o'zaro ballni bo'lishib oladi. Guruh sardori ballni taqsimlanishini izohlaydi. Bu bilan o'quvchilarda o'z faoliyatini hamda o'zgalar faoliyatini baholay osh malakasi o'stiriladi.

«HA-YO'Q» O'YINI

Bu o'yindan yangi mavzuni mustahkamlash yoki o'tilgan mavzuni takrorlash darslarida foydalanish mumkin.

Buning uchun o'qituvchi oldindan savollar tayyorlaydi. O'qituvchining har bir savoliga o'quvchi «Ha» yoki «Yo'q» deb javob beradi. Masalan:

- Ohnosh mustaqil so'z turkumi bo'ladimi? -Ha.
- Ko'makchi mustaqil so'z turkumi bo'la oladimi?

- Yo'q.
- Ana bu sodda olmoshmi?
- Yo'q.

Har bir to'g'ri javobga 1 ball beriladi. Noto'g'rijavobga «0» ball beriladi. So'ng o'quvchi to'plagan ball jamlanadi.

Bu o'yin o'quvchilarni tez va to'g'ri fikrlashga o'rgatishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, hozirjavoblik layoqatini o'stiradi.

«LOTO» O'YINI

Bu o'yindan yangi mavzuni mustahkamlash, o'tilgan mavzuni so'rashda, shuningdek takrorlash darslarida foydalanish mumkin.

Buning uchun o'qituvchi raqamlangan sharchalarni quticha yoki xaltachaga solib qo'yadi. Savollarni doskaga yozib qo'yish mumkin. O'quvchi quticha yoki xaltacha ichidagi sharchalardan birini oladi va qo'lidagi shar raqamiga mos raqamdagi savolga javob beradi. Agar u raqamda so'z berilgan bo'lsa, uni izohlaydi. 1-raqamli sharcha chiqsa 1-raqamli so'z izohlanadi. Masalan,

1. Shubhasiz — vazifadosh modal so'z, tasdiq ma'nosini bildiradi.

«HASHARCHILAR» O'YINI

O'yinning jihozi: Rasmlar, tarqatma material.

Sinf o'quvchilarini ikki guruhga bo'lib, ularga o'yin sharti tushuntiriladi. Yangi o'rganilgan mavzuga oid so'zlarni ifodalovchi rasmlar tarqoq holda beriladi. O'quvchilar o'qituvchining ruxsati bilan chegaralangan vaqtda belgilangan o'yin o'tkazishadi. O'quvchilar berilgan rasmga oid so'zlardan matn tuzadilar. Qaysi guruh o'quvchilari birinchi bo'lib matn tuzsa, o'sha guruh o'yinning 1-bosqichida g'olib hisoblanadi. Bunda matnning tarbiyaviy ahamiyatiga, uslubiy to'g'riligiga hamda imio xatolarining yo'qligiga alohida e'tibor qaratiladi. O'yinning 2-bosqichida 2-guruh g'olib guruhning matnidagi imloviy va uslubiy xatolarini to'g'rilaydi.

Bunda barcha o'quvchi o'yin jarayonida ishtirok etishi kerak. Guruh a'zolarining to'liq ishtirok etishiga ham ball qo'yiladi.

O'quvchilar o'yin jarayonida hamjihatlikka, bir-birlariga yordam berishga, ongli ravishda mustaqil fikrlashga o'rganadilar.

NIZOMIDDIN MAHMUDOV, ABDUHAM1D NURMONOV,
ABDULHAY SOBIROV, ISMOIL HOJALIYEV,
O'KTAMJON HUSANOV

ONA TILI

7-sinf

O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma

Toshkent «Ma'naviyat» 2011

Muharrirlar: U. Qo'chqorov, N. Hakimova
Rassomlar: A. Mamajonov, R. Zufarov
Texn. muharrir T. Zolotilova
Musahhihlar: Sh. Ilhombekova, H. Ahmedova
Kompyuter dizayni A. Tursunov

Terishga 12.04.2005-y.da berildi. Bosishga 07.07.2005-y.da ruxsat etildi.
Bichimi 84x108/3r Tayms garniturası. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b.t.
7,56. Shartli kr.-ott. 8,0. Nashr t. 8,2. 15000 nusxa. Buyurtma N° A-0203.

«Ma'naviyat» nashriyoti. Toshkent, Buyuk Turoft, 41-uy. Shartnoma 28—
05.

O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. 700129. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-
uy. 2005.

ONA TILI

O'QITUVCHILAR UCHUN
USLUBIY QO'LLANMA

7

